

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALIS'HYeR NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TARIX FAKULTETI

**TARIX TA'LIM YO'NALIS'HI
«O'ZBEKISTON TARIXI» KAFEDRASI**

**«TOSHKENT SHAHRI JOY NOMLARI TARIXIDAN
(1917-1980 YILLAR)»**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Rajabov Ablulaziz

Ilmiy rahbar: prof. SH.S.G'afforov

Malakaviy bitiruv ishi "O'zbekiston tarixi" kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014 yil _____ majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya yetildi. (bayonnoma №_____).

Kafedra mudiri:

dos.R.Sh.Xoliqulov

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2014 yil _____ iyundagi majlisida himoya qilindi va _____ foizga baholandi (bayonnoma №_____)

YaDAK raisi:

A'zolari:

Samarqand-2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-4
I-BOB. TOSHKENT SHAHRINING 1917-1965 YILLARDAGI TOPONIMIK HOLATI.....	5-49
1.1. Shaharning ma'muriy bo'linishi, ko'cha va maxallalarning nomlanishi.....	5-17
1.2. Shaxar boshqaruvi va xo'jaligi bilan bog'liq joy nomlari.....	17-30
1.3. Ijtimoiy va madaniy obyektlarning nomlari.....	30-49
II-BOB. SHAHARNING 1966-1980 YILLARDAGI QIYOFASI VA JOY NOMLARIDAGI O'ZGARISHLAR.....	50-73
II.1. Yangi tuman, mavze, ko'chalarning paydo bo'lishi va nomlanishi.....	50-55
II.2. Iqtisodiy-ijtimoiy obyektlar bilan bog'liq toponim-lar va ularning xususiyatlari.....	55-67
II.3. Madaniy xayot va maishiy xizmat sohasini aks ettiruv- chi toponimlar tarkibidagi o'zgarishlar.....	67-73
X U L O S A.....	74-75
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	76-77

KIRISH

Hozirgi davrda Toshkent O'zbekiston Respublikasi poytaxti, Osiyo mintaqasidagi yirik madaniyat, san'at, fan, texnika, sanoat, savdo markazlaridan biri, boy tarixga ega bo'lgan shahar sifatida tanilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shaharga shunday ta'rif bsradi: "Toshkent - Sharq darvozasi, deb nomlangan, ul-kan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy mavqyega ega bo'lgan, fan, madaniyat, ijod, ilm-ziyo salohiyati yuksak ravnaq topgan. butun jahon miqyosida tan olingan mamlakatimizning bosh shahridir".¹ Arxeologik tadqiqotlar natijasida uning yoshi 2200 yil deb belgilangan. Uzoq tarixiy taraqqiyoti davomi-da Toshkent Markaziy Osiyo hududidagi yirik shaharlar-dan biri bo'lib, Shosh viloyati markazi, Qang' davlati poytaxti, Turk xoqonligidagi yirik savdo markazi, Arab xa-lifaligi davrida ma'rifat o'choqlaridan biri, Chig'atoy ulusidagi muhim hunarmandchilik va savdo shahri, Temu-riylar davridagi strategik ahamiyatga ega bo'lgan va mada-niy hayotda alohida o'rin egallagan, xonliklar davrida Toshkent bekligining markazi, keyingi asrlarda Turkis-ton general-gubernatorligi markazi, sobiq sovetlar dav-lati tarkibidagi respublika poytaxti vazifasini o'tab, bugungi kunda suveren O'zbekiston davlatining poytaxti ma-qomiga erishgan. Toshkent "Yer yuzidagi eng qadimiy shahar-lardan biri. Uning tarixi - jahon tarixining bir qismi. Bu tarix o'zbek xalqininggina emas, O'rta Osiyodagi boshqa xalqlarning ham ko'p asrlik moddiy va ma'naviy madaniya-tini o'ziga singdirib olgan. Buyuk ipak yo'li Toshkent orqa-li o'tgan. O'shanda, qadim zamonlarda ham shahar yirik hunar-mandchilik, savdo va madaniyat markazi, Sharq bilan G'arbni bog'laydigan bamisoli bir ko'prik bo'lgan".² Uzoq tari-xiy jarayonlar davomida Toshkentning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muntazam o'zgarishlar ro'y be-rib. ular shaharning topografik hamda toponimik holati da ma'lum iz qoldirgan. Shu nuqtai nazardan, Toshkent shahrining joy nomlari bilan bog'liq ilmiy izlanishlar shahar tarixi, qolaversa, Uzbekiston tarixini muhim ma'-lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Mustaqillik davrida Vatanimiz poytaxti - Toshkent shahri tarixiga bo'lgan e'tibor ko'lamini kengayib, uning o'tmishi, bugungi kundagi taraqqiyoti va istiqboli bilan bog'liq masalalar turli soha mutaxassislari tomonidan tadqiq etib kelinmokda, jumladan, joy nomlari tarixi-ni o'rganishga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Zero, toponimlarda ma'lum hududning siyosiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotining tarixi aks etadi. Shaharning turli tari-xiy davrlarida sodir bo'lgan voqyeliklar natijasida yangi-yangi joy nomlari hosil bo'lib, alohida toponimik qatlam-lar shakllanishiga sabab bo'lgan.

Tarixiy nuqtai nazardan ularni turli davrlar - qadimiy, o'rta asrlar, xonliklar, mustamlakachilik, sobiq sovetlar, mustaqillik davrlari toponimlariga ajratish mum-kin. X,ar bir tarixiy davrga oid toponimlarni tadqiq etish natijasida, o'sha davrning tarixiy toponimik qiyofasi yara-tiladi va shu bilan birga, shahar tarixiga oydinlik kiri-tiladi. Til nuqtai nazaridan Toshkent toponimlari tarki-bida sug'diy, turkiy, fors-arab, rusiyzabon, aralash nomlar mavjud.

¹ Каримов И.А. Пойтахтимиз - муқаддас остонамиз. Асарлар тўплами. 8-жилд. - Т: "Ўзбекистон", 2000. 292-318-6.

² Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. - Т.: "Ўзбекистон", 2011. 96-97-6.

Mustabid sovet davrida mavjud joy nomlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 1917-1980 yillarda Toshkent shahri va umuman, O'zbekiston hududidagi ko'p joy nomlari hukmron sovet tizimi mafkurasiga mos ravishda o'zgartirilganiga guvoh bo'lamiz. Ularning tadqiq etilishi Toshkent shahri-ning 70 yil davomida kechgan tarixini xolis tarzda yori-tish, sobiq sovetlar hukmronligi yillaridagi shaharning tarixiy rivojlanishi va toponimik qiyofasini tahlil qilish, joy nomlarini ma'lum guruhlarga tasniflash, ular yordamida tarixni kengroq o'rganish imkonini beradi. Bir so'z bilan aytganda, ushbu tadqiqot uchun tanlangan davriy chegara Toshkent shahrining rivojida o'ziga xos bosqich bo'lib, uni toponimlar tahlili nuqtai nazaridan yondashib o'rga-nish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

1917-1980 yillar oralig'ida shahar sezilarli daraja-da kengaydi, yangi ma'muriy-hududiy qismlar tashkil topdi, ularga nomlar berildi. Toshkentning ushbu yillardagi joy nomlari hamda ularning tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar qator ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan bo'lib, ularning aksariyatida toponimlar shaharning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlar tafsilotlarida qayd etilgan.

Toshkent joy nomlarini tadqiq etishda davrga oid turli xil yozma manbalar - xarita, sxema va atlaslar, sgatis-tik ma'lumotlar, ma'muriy hujjatlar, davriy matbuot nashrlari alohida ahamiyatli bo'lib, ularda shahar topo-grafiyasi va toponimiyasining yillar davomida o'zgarib bo-¹ rishi aks etgan¹.

Mazkur ishda Toshkent shahri joy nomlarining 1917-1980 yillardagi holatini atroflicha yoritish maqsad qilingan. Toshkentning tarixiy toponimiyasiga oid keltiriladi-gan ma'lumotlar shahar tarixining turli qirralari -siyosiy, ma'muriy, iqtisodiy, madaniy, tarixiy topogra-fiya, o'lkashunoslik kabi sohalar bo'yicha bilimlarni oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotdan kelib chiqadigan xulosalar 1917 yildan to 1980 yilga qadar Toshkent shahri tarixiy rivojlanishi haqida aniq tasavvur hosil qilish-ga yordam beradi.

Amaliy jihatdan ushbu tadqiqot yozma manbalar, arxiv materiallari asosida Toshkent hududidagi toponimlar xususiyatlariga, ularda joyning tabiiy shart-sharoitlari, aholisining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'-naviy hayoti aks ettirilganligiga xolisona baho berish, tarixiy joy nomlarini tiklash, yoshlarni Vatanga muhabbat, o'z o'lkasi, shahri, mahallasi tarixini bilish, u bilan faxrlanish, uni asrash, xalqlarga cheksiz hurmat ruhida tarbiyalashda, millii o'zlikni anglapXsa muhim ahamiyat kasb etadi.

I-BOB. TOSHKENT SHAHRINING 1917-1965 YILLARDAGI TOPONIMIK HOLATI

¹ План-путеводитель по городу Ташкент. -Т., 1936; Карта "Ташкент". Туристская схема. - Москва: Главное управление геодезии и картографии при Совете Министров СССР. 1976.: Ташкент. Географический атлас/ Академия наук УзССР. Отдел геодезии и картографии.. Главн.управл. геодезии и картографии при Совете Министров СССР - М., 1984.

Тошкент шаҳар топографияси ва топонимиясига доир маълум соҳани нисбатан кекг камровда ёритувчи маълумотларни Тошкент шаҳар Давлат архивининг Ф-7 (Тошкент шаҳар советининг режалаш-тириш хайъати-1030-1971й.), Ф-10 (Тошкент шаҳар совети Ижроия кумитаси - 1917-1971й.), Ф-12 (Эски шаҳар совети - 1917-1929й.), Ф-23 (Тошкент шаҳар халқ хўжалиги совети - 1917-1920й.), Ф-28 (Тошкент шаҳар Статистика бошқармаси - 1926- 1967й.), Ф-36 (Тошкент шаҳар советининг меъморчилик-режалаштириш бош бошқармаси -1933-1971й.), Ф-42 (Тошкент шаҳар Ижроия кўмитасининг Молия бўлими - 1924-1968 й.), Ф-43 (Тошкент шаҳар Ижроия кўмитасининг маҳаллий саноат бошқармаси - 1957-1962й) жамғармаларида учра-тиш мумкин.

1.1. Shaharning ma'muriy bo'linishi, ko'cha va maxallalarning nomlanishi.

Toshkent shahrining tarixiy toponimiyasini tadqiq etishda shaharning o'rganilayotgan davrdagi mavqisi, tarixiy rivojlanishi va taraqqiyotidagi o'ziga xos xususiyatlarni e'ti-borga olish zarur. holbuki. har bir tarixiy jarayon ma'lum darajada toponimlarda aks etadi.

Ma'lumki, XX asrning birinchi choragida Turkiyeton o'lkasi tarixida muhim siyosiy voqyealar yuz berib, ellik yil davomida hukm yurgan Rossiya podsholigi musgamlakasi tugatil-di va 1917 yilgi inqilobiy harakatlar natijasida hokimiyat bolsheviklar partiyasi tazniqi bilan ishchi, dehqon va sol-dat deputatlaridan tashkil topgan sovetlar ko'liga o'tdi. Joylarda tashkil qilingan o'archa sovetlar yagona tizimni tashkil qilib, kommunistlar partiyasi rahnamoligida faoliyat yuritdi. Sovet Rossiya podsholigi hududi va musgamlakalari yerlari endiliqda sovet respublikalaridan iborat, markazi Moskva pahrnda joylashgan Ittifoq tasarrufiga kiritildi. Shu jumladan. Turkiston o'lkasi ham dastlab avtonom respublika sifatida, keyinchalik bir nocha sovet socialistik respublikalarga ajratilgan holda Sovet Ittifoqi tarkibiga qo'shib olindi. Markazlashgan davlat tuzish maqsadida Ittifoq davlati barcha hududlarni o'z nazoratiga olib, kuchli to-talitar tartib o'rnatdi. Unga ko'ra barcha respublikalar bolsheviklar tomonidan tuzilgan Kommunistik partiya mafkura-sini kabul qilib, markaz buyruqlariga bo'ysunishga majbur bo'ldi. Ushbu zo'ravonlik siyosatiga qarshi chiqqan, o'z millati va xalqi manfaatlarini himoya qilgan barcha harakatlar, guruhlar. insonlar shafqatsiz ravishda yo'q qilindi. Sovet Ittifoqi yetmish yilga yaqin davr (1922—1991 yillar) hukm surdi va mustabid tizimli, yagona mafkuraga ega totalitar davlat sifatida tarixda qoldi.

Ittifoq tarkibiga o'n beshta respublika kiritilgan, ularning qatorida Turkiston o'lkasi xududida tashkil qilingan O'zbekiston, Kirg'iziston. Turkmaniston, Tojikiston respublikalari ham qayd qilinib, xdr bir respublikaning o'z poytaxti bo'lgan. Jumladan, Toshkent shahri O'zbekiston Sovet Socialistik Respublikasining poytaxtiga aylantiril-gan va unda respublika miqyosidagi barcha boshqaruv organlari joylashtirilgan. Shu sababdan XX asr davomida shaxdr hududi kengayib, aholi soni ko'payib borgan va bu holat uning to-pografik manzarasi xdmnda toponimik qiyofasining tobora o'zga-rib borishiga olib kelgan. Mazkur o'zgarishlar ma'lum vaqg oralig'ida, voqyeliklar ta'sirida r'ny bergan bo'lsa-da, ayni vaqtda, ularga markaziy boshkdrv hukumatining ta'siri kuch-li bo'lgan va buni yangi paydo bo'lgan ma'muriy bo'linma, ko'cha, obyektlarning nomlarida ham yaqqol kuzatish mumkin.

Sovet hukumatining dastlabki yillarida Rossiya podsholigi davrida mavjud bo'lgan hukumat organlariga barxdm be-rilib, hududlarni boshqarish uchun yangi hukumat tashkil qilingan. Toshkent shahrida boshqaruv ishlarini Mehnatkash-lar deputatlarining shahar soveti (Tashsovdex), Markaziy Ijroiya ko'mitasi amalga oshirgan (Tashgorispolkom) va u 1917 yildan 1921 yilgacha faoliyat yuritgan. Mazkur qo'mpta Xalk. Komissarligi tsmonidan 1922 yilda chiqarilgan Kdrorga binonan Viloyat ijroiya qo'mitasidan (Oblisnolkom) mustaqil organga aylantirilib. faqat Ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD) ga bo'ysungan. Shahar Ijroiya

qo'mitasiga uning hududiy bo'linmalari - Yangi shahar ijroiya qo'mitasi hamda Eski shahar ijroiya ko'mitasi bo'sungan bo'lib, oxirgisi 1917-1929 yillar oralng'ida faol bo'lgan. so'ng Yangi shahar ij-ronya ko'l pan birlashtirilgan.

Ijroiya qo'mitalar shahardagi qurilish. obodon-lashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy ishlar-ni t; ;shtirish jarayonida markaziy hukumat ko'rsatmalari, qaror va farmoyishlariga asoslangan. Podsho huku-mati va tuzumini tugatib, yangi davlat gizpminp o'rnatish mobaynida podsho davrida vujudga kelgan barcha muassasa va tashkilotlarni yopish, yer va mulkni musodara qilib. davlat tasarrufiga o'tkazish, yangi ma'muriy tuzilmalar yaratish, ularning faoliyati bilan bog'liq holda va sovet tuzumiga xos bo'lgan nomlar berish maqsadida Ijroiya qo'mitalar jadal harakatlar olib borgan. Xususan, shaharda mavjud yirik ma'muriy-harbiy, savdo, ijtimoiy, ishlab chiqarishning yirik obyektlari yangi tuzilgan sovetlar davlati tasarrufiga o'tkazilgan va ularning nomlari o'zgartirilgan.

Keyingi navbatda shaharning ma'muriy qismlari masala-si ko'rib chiqilib, mavjud Eski shahar hamda Yangi shahar qismlari hududida rayonlar tashkil qiliyagan, ular raqam-lar bilan belgilangan hamda uchastok va kzartallarga bo'lingan. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun qator tashki-liy ishlarni amalga oshirish lozim bo'lib, buning uchun mab-lag' va shart-sharoitlar talab qilingan, shu sababdan ma'mu-riy-hududiy o'zgarishlar va ularga yangi nomlar berish ish-larining dastlabki bosqichi bir necha yillar, aniqrog'i, 1918 yildan 1920 yillarning oxirlarigacha davom etgan. Arxiv manbalarida Toshkentning Eski shahar va Yangi shahar kiyemlari ma'muriy bo'linishlar sifatida saqlanib qolgani 1929 yil-ga qadar yozilgan hujjatlarda qayd etilgan.

1929 yildagi Markaziy ijroiya qo'mita Prezidiumining shahar sovetlarini tashkil qilish xususidagi Farmoniga ko'ra Toshkent hududi 4 ta rayonga bo'linishi lozim bo'lgan. Rayonlarni tuzishdan maqsad: "...birinchidan, Kengash va umu-man boshqaruv apparati tomonidan shahar va shahar atrofi xo'jaligi doimiy nazorat qilinib turilishi hamda aholiga xizmat qilish uchun qulayliklar yaratish, ikkinchidan, so-vet qurilishiga ishchilarni jalb qilish uchun eng yaxshi sha-roitlarni yaratish"¹. Shaxarni rayonlarga bo'lish masalasi-da Kengash a'zolari ikki xil variant taklif etganlar. Bi-rinchi variant - shaharni iqtisodiy rayonlarga bo'lish. biroq bu holat Toshkent uchun to'g'ri kelmagan. sababi, un-dagn xalk xo'jaligi obyektlari soxalar bo'yicha ma'lum bir hududda joylashmay. balki shaharning turli joylarida bo'lgan. Ikkinchi variant bo'yicha - shaharni ma'muriy ji-hatiga ko'ra 4 qismga ajratish taklifi bsrilgan: Oktyabr slobodkasi. Parkent ko'chasi atroflari, Chimkent trakti hududi. Eski shahar qismi. So'nggn variant nisbatan qulay deb topilgai va ma'qullangan. Mazkur qismlar tartib ra-qamlar bilan belgilangan: I, II. III. IV rayonlar. Bu davrda shahar hududi jami 20.000 gektarni tashkil qilgan bo'lib, shundan I rayon hududi 2500 ga. II rayon hududi 7500 ga. III rayon m 7500 ga, IV rayon hudz-di 2500 gani tashkil qilgani arxiv hujjatida qayd etilgan.

Rayonlar, o'z navbatida, uchastoklarga bo'lingan. Jum-ladan, Yangi shahar hududiga to'g'ri keladigan qismda 16 ta uchastok qayd etilgan. ular rim

¹ Тошкент шаҳар давлат архиви. Ф-10 жамғармаси. 1-рўйхат. 618-йиғмажилд. 3-20-варақлар.

raqamlarida belgilangan (1-XU1); Eski shahar hududidagi mahallalar qismi esa ta'uchastokga taqsimlangan, ular ham rim raqamida belgilangan (T-XXX1)¹. Uchastoklar kichikroq bo'linmalar - kvartallarga taqsimlangan. Keyinroq nomlari raqamlar bilan mahallaning to'rt rayoni nomini so'zlar bilan o'zgartirilgan. 1929 Gshl noyabrida Toshkent hududi Lenin, Oktyabr. Proletar va Stalin rayonlariga bo'lingan².

Respublika poytaxti Samarqanddan Toshkentga ko'chirilishi munosabati bilan. 30-yillarda shahardagi qurilish ishlari jadallashti. yangi ma'muriy. iqtisodiy va boshqa obyektlar soni ko'payishi natijasida shaharni boshqarish-da muammolar yuzaga keldi. Shu sababli 30-yillar o'rtalarida Toshkent shahri hududi ayrim kolxozlar yerlarining shahar tasarrufiga o'tishi natijasida kengaygan. 1936 yil sentyabrda yana 2 ta rayon vujudga kelgan: Kirov va Frunze rayonlari. Endilikda shahar rayonlarining nomlari quyidagicha bo'lgan: Lenin. Stalin. Kuybishev (sobiq Proletar rayoni 5r, Frunze, Kirov. Shahar kengashining 1936 yildagi 33-yig'ilishi bayonnomasining 955-sonli bandida ushbu rayonlar o'rtasidan o'tgan chegaralar belgilangan . 1936 yilgi Toshkent shahar xaritasida ham yuqoridagi 6 ta rayon nomi ko'rsatilgan. Bu nomlarning aksariyati antropotoponimlar guruhiga mansub, aniqrog'i, beshta rayon o'sha davrda sovet davlatida mashhur bo'lgan siyosiy arboblarning -Kirov, Kuybishev, Lenin, Stalin, Frunze nomlari bilan atalgan va 1 ta - Oktyabr rayoniga o'sha yillarda sovet davlati uchun eng asosiy tarixiy voqeyalik, ya'ni 1917 yilgi Oktyabr inqilobi nomi berilgan.

Mazkur yillarda sobiq Sovet hukumati tomonidan sanoatlashtirish siyosati jadallashtirildi va buning oqibatida, ayniqsa, yirik shaharlarda qator sanoat obyektlari bunyod etilgan. Jumladan, Toshkent shahrida ham bunday korxonalarining ishga tushirilishi uchun ishchilar talab qilingan, malakali mutaxassislar tayyorlash esa, asosan, Rossiyaning markaziy shaharlarida yo'lga qo'yilgan edi. Tashkentdan Toshkentda joylashgan sanoat korxonalarida ishlash uchun sobiq Ittifoqning markaziy hududlaridan ko'plab mutaxassislar, ishchilar ko'chirib kelingan. Masalan, 1926 yil ma'lumotlariga ko'ra, shahardagi tub aholi soni 54,6%, ko'chib kelgan aholi 45,4%ni tashkil etgan. Shahar aholisi tarkibida o'zbeklar 52,5 % ni tashkil qilib, ruslar 35,4%, yevreylar 2,8%, tatarlar 2,7%, boshqa millatlar salmog'i esa 4,8% bo'lgan.³

Shuningdek, shahar hududi kengayishi natijasida aholi soni ma'lum darajada o'sib borgan, biroq mexanik o'sish sur'atlari ustun kelgan. 1932 yilgi hujjatda qayd etilishicha, "8 yil mobaynida aholi soni yiliga 8 foizga o'sib borgan va Moskva, Leningrad va boshqa shaharlarni ortda qoldirgan. Yangi shaharda o'sish 13,0 %, Eski shaharda o'sish 4,3 %. O'lim - har ming kishiga 24,2 kishiga teng"⁴.

Aholining umumiy o'sish sur'atini quyidagi jadval ko'rsatkichlarida kuzatish mumkin (1-jadval).

¹ Toshkent shahar davlat arxivi. F.-10 jamgarmasi. 1-ruyxat 360-yig'ma jild, 317-318-varaqlar.

² Toshkent shahar davlat arxivi. F.-1. f-3, F-10 ruyxatlariga tuzilgan mukaddimalarga qaralсин.

³ Toshkent shahar davlat arxivi. F-10 jamgarmasi. 1-ruyxat. 232-yig'majild, 62-64-varaqlar. Ushbu basnomaда rayonlarning chegaralari utgan kucha va ariqlarning nomlari kайд etilgan.

⁴ Toshkent shahar davlat arxivi. F-7 jamgarmasi. 2-ruyxat. 14-yig'majild. 4-10-varaqlar.

1-jadval Toshkent shahar aholisi va uning ijtimoiy tarkibi

yillar	aholi soni	Jami mustaqil ishlovch. (samodeyat.)	ishchi (raboch.)	Xizmatchi (slujash.)	boshka (proch)	Xudu d gektar	Aholi zichl.1 gektarga
1923	260960	86.477	22.330	18.471	45.470		13.0
1926	323.544	100.242.	23.201	26.552	50.489		16.1
1930	407.704	177.275	18.742	50.205	77.728	20.029	20.3
1931	427.457	--	-	-	-		21.3
1932	450.000	200.000	58.000	-	142.000		22.4

Ikkinchi jahon urushi yillarida (1939-1945) sobiq Ittifoqning Yevropa qismida joylashgan hududlarida urush harakatlari borayotganligi sababli, bu yerda yashovchi aholining ma'lum qismi hamda muhim iqtisodiy obyektlar, ijtimoiy va madaniy soha muassasalari mamlakatning janubiy yerlariga ko'chirilgan. Shu jumladan, O'zbekistonga ham aholi bilan birga sanoat obyektlari evakuasiya qilingan. Ularning katta qismi respublika poytaxtiga joylashtirilgan.

Toshkentda 1941-1945 yillardagi qurilish ishlari urush davrining o'ziga xos sharoitlarida olib borilgan. Sobiq Ittifoqning sharqiy rayonlaridagi bir qism sanoat korxonalarining Toshkentga ko'chirib kelinishi natijasida shaharda yirik sanoat inshootlarini joylashtirishda har doim ham shaharni rekonstruksiya qilish Bosh rejası talablariga rioya qilinmagan. Urush yillarida qurilishning qolgan turlari nisbatan sust rivojlangan. Toshkentga evakuasiya qilingan aholining kelib o'rinishi, korxona, tash-kilot, muassasalarning joylashtirilishi hisobiga shahar hududi kengayib. shaharning iqtisodiy va madaniy rivojlanishida yangi muammolar kelib chiqqanligi sababli shahar rayonlari sonini ko'paytirishga qaror qilingan. 1943 yilda shaharning mavjud oltita rayoniga (Kirov, Kuybi-shev, Lenin, Oktyabr, Stalin, Frunze) yana 2 ta - Sentral (Markaziy) va Moskva rayonlari qo'shilgan.¹

Evakuasiya qilingan obyektlarning Toshkent hududida qurilishi, tabiiyki, shahar qurilishining 1938 yilda tasdiqlangan Bosh rejasida ko'zda tutilmagan edi, shu sababdan urush yillarida barpo qilingan korxonalar mavjud shahar planirovkasining buzilishiga olib kelgan. Natijada, shaharni rekonstruksiya qilishning yangi rejasini tuzish taqozo etilgan. 1946 yili mazkur reja qayta ko'rib chiqilgan va quyidagicha Qaror qilingan : "1. Bosh rejadagi alohida bo'limlar tasdiqlansin, ya'ni: aholi soni 300-900 ming kishi bo'lishi, shahar hududini rayonlarga bo'linishi, reja tuzilishi radial-halqasimon bo'lib, shahar markazi ko'rsatilgan joyda qurilishi. 2. Shu bilan birga, Bosh reja "Mosoblproyekt"(1938 y.) tomonidan ayrim jihatlar inobatga olinmay tuzilgani qayd etilsin, xususan, hududning tabiiy va iqlim sharoitlari inobatga olinmagan, natijada, ko'p qavatli binolar salmog'i yuqori belgilangan, plan tuzilishi zich va relyef bilan hisoblashilmagan. 3. Ko'rsatilgan kamchiliklarni inobatga olgan holda, Bosh

¹ Ўша жойда.

rejaga tuzatishlar kiritilsin va bunda quyidagilarga asoslanilsin: a) kamqavatli imoratlar soni ko'paytirilsin; ko'pqavatli binolar, asosan, shahar markazida bunyod etilsin; b) shaharni suv inshootlari bilan ta'minlash va obo-donlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilsin, xususan, Bo'zsuv kanalida Shayxontahur maydonining yuqori qismida suv inshooti qurilsin; v) shahar rejasi ko'proq suv inshootlari hamda hudud relyefi bilan bog'lansin, shaharning asosiy yo'nalishlardan biri sifatida Bo'zsuv kanali olinsin; g) shaharning asosiy magistrallari aniq ajratib berilsin; ko'cha tarmoqlari erkin joylashtirilib, radial-halqasimon tizimga qat'iy amal qilish shart emas, balki mavjud asosiy ko'chalar inobatga olinsin". Shahar Bosh planini tuzish ishlari 1954 yili nihoyasiga yetkazilgan va keyingi qurilish ishlari aynan shu rejaga muvofiq holda 1960 yilgacha olib borilgan.¹

Urushdan keyingi davrda shaharni obodonlashtirish, tex-nik ta'minlash va me'moriy jihozlash ishlarida tub burilish yuz bergan va, bunda Xalq komissarlari kengashining 1946 yil 6 martdagi "Toshkent shahri shahar xo'jaligini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar" to'g'risidagi Qarori; UzSSR Ministrlar Soveti va O'zb KP MK (b)ning 1946 yil 1 ap-reldagi shu masalaga doir Qarori va boshkd me'yoriy huj-jatlarga asoslanib ish olib borilgan.

Manbalarda qayd etilishicha, "urush yillarida Toshkentga Ittifoqning g'arbiy hududlaridan aholi evakuasiya qilinishi natijasida shahar aholisi soni oshgan va 870,0 mingtagacha yetgan. Urushdan keyin rezevakuasiya amalga oshirilishi natijasida shahar aholisi soni kamaygan va 595,0 ming kishiga yetgan. Biroq urushdan keyingi tinchlik davrida tug'i-lish darajasi yana ko'tarilgan va Statboshqarmaning hisobga olmagan kontingentlari bilan birgalikda aholi soni 650,0 mingtani tashkil etgan va poytaxt aholisi respublika shaharlari aholisining 1/2 qismini tashkil qilib, butun res-publika aholisining 1/10 qismiga teng bo'lgan"².

Urushdan keyingi davrda shahardagi rayonlar soni kamaytirilgan: 1956 yili may oyida Moskva va Stalin rayon-lari, 1959 yil martda Markaziy rayonlar tugatilib, ular-ning hududi boshqa rayonlarga taqsimlangan. Jami, 1960 yilda Toshkentda 5 ta rayon bo'lib, ular quyidagicha nomlangan: Kirov, Kuybishev, Lenin, Oktyabr, Frunze.

1963 yilda shahar aholisi sonining 1 mln.ga yetishi hamda shahardagi qurilishlar ko'lamining kengayishi tufayli Toshkentning janubi-g'arbiy qismida yana bir yangi rayon -Chilonzor rayoni tashkil qilingan.

Ayrim tadqiqotlarda shahar hududi mikrorayonlarga bo'linganligi to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, Markaziy m/r-n, Shimoliy m/r-n, Shimoli-Sharqiy m/r-n, Janubi-Sharqiy m/r-n, Janubi-G'arbiy m/r-n, G'arbiy m/r-n. Ushbu mikrorayonlar shaharning ma'muriy birliklari hisoblangani qayd etilgan³.

Toshkent shahar ma'muriyati sovet hukumatining dastlabki yillaridayoq shahar ko'chalari nomlarini o'zgartirish-ga katta e'tibor qaratgan. Avval, shahar

¹ Тошкент шаҳар давлат архиви. Ф-315 жамғармаси. 1-рўйхат. 7 а- йиғмажилд. 1-25-вараклар.

² Ўша жойда.

³ Ташкент. /Научные' труды ТашГУ. Вып.226. - Т., 1964. - С.165.

markazidagi hamda unga tutash ko'cha va turar joylarning nomlari o'zgartirilib, ularga bolp: lyasida lgan, sovet hukmronligining o'rnatilishida muhim rol o'ynagan yoki kommunistlar uchun ideal shaxs sanalgan kishilarkpng ismlari qo'yilgan. Jumladan, Kaufman ko'chasi - Karl Marks, Romanov ko'chasi - Lenin. Skobelev ko'chasi - Kali-nin, Staro-Gospitalniy ko'chasi - Kafanov ko'chasi deb nomlangan, Kazachya Slobodka hududi - Oktyabr revolyusiyasi. so'ng Pryanishnikov, Soldatenko. Kupbishev. Apanasenko. Furmanov nomidagi ko'chalar paydo bo'lgan¹.

1925 yilda Yangi shahar hududpda joylashgan 26 ta ko'cha nomini o'zgartirish haqida Toshkent Yangi shahar soveti ijroiya qo'mitasi Prezidiumining 17-son 8-bandli (19.01.25.) Karo-ri chiqqan. Unga ko'ra quyidagi nomlari o'zgartirilishi lozim bo'lgan ko'chalar ro'yxati keltirplgan (nomlar hujjatd;,: 1 shakli bo'yicha keltirildi)²:

Eski nomlanishi:	O'zgartirilgan nomlanishi:
1. Alekseyevskiy pereulok	Pereulok im.Pryanishnikova
2. Perovskiy per.	Per.Akmechetskaya
3. Zasepenskij per.	Per.im.Troskogo
4. Kryuchkovskiy per.	Per.im.Kollarova
5. Salarskiy per.	Per.im.Nogina
6. Reyxardovskiy per.	P yer. Uzbeks ki y
7. Shkapskiy per.	PerIm.Budenogo
8. Kudrinskiy per.	Per.Pishpekskiy
9. Kadetskiy per.	Per.Kraskomovs
10. Petrogradskaya ulisa	UlLeningradskaya
11. Ilinskaya ul.	Ul.Kara Kalpaksakaya
12. Tvertinskaya ul.	Ul.Tadjikskaya
13. Pukalovskaya ul.	Ul.Kara-Kirgizskaya;
14. Abramovskaya ul.	Ul.Vostochnaya
15. Xivinskaya ul.	Ul.Xorezmskaya
16. Maxramskaya ul.	Ul.Uzbekistanskaya
17. Sadovaya ul.	Ul.Sovetskaya
18. Voronsovskaya	Ul.im.Stalina
19. Davmdovskaya	Ul.Finkelshteyna
20. Andreyevskaya ul.	Ul.Dubiskogo
21. Novostroyevskaya ul.	Ul.Djerzinskogo
22. Laxinskaya ul.	Ul.Sverdlova
23. Melnikovskaya ul.	Ul.Buxarina
24. Pervushinskaya ul.	Ul.im Figelskogo
25. Maxramskaya ul.(bir qismi) Ul.im-Frunze	Ul.im Frunze
26. Nikolskoye shosse	Shosse Lunacharskogo

¹ Буряков Ю.Ф., Гласс Ю.И., Соколов Ю.А., Чабров Г.Н. Тошкент кўчалари (иккинчи тўлдирилган ва кайта ишланган нашри - Т.: Ўзбекистон, 1972. 18-6.; Тошконт шаҳар давлат архиви Ф-30 жамғармаси, 1-рўйхат. 282-йиғмажилд. 45-варақ.

² Тошкент шаҳар давлат архиви. Ф-10 жамғарма, 1-рўйхат,395-йиғмажилд, 325-326 варақлар.

Mazkur Karorda. shuningdek, yangi bunyod etilgan ko'chalarga beriladigan nomlar xam keltirilgan: sobik Pervushin yerlari-da 3 ta. Xarbiy dalada 12 ta. sobik Ivanov yerlarida 24 ta ko'cha:

"A. Na bshshix Pervushinskix zemlyax:

1. Shkolnsh prospekt
2. Pionerskiy prospekt
3. Korotkiy pereulok

B. Na voyennom pole:

4. Prospekt im.Zinovyeva
5. Prospekt Kameneva
6. Prosekt imLibknexta
7. Prospekt Lineynsh
8. Prospekt Rabochiy
9. Ul.Poperechnaya
10. ULLroletarskaya
11. Ul.Obxodnaya
12. ULLolevaya
13. Ul-im.Pryanishnikova
14. ULLPumilova
15. Ul.Narovskogo

V. Na bshshix Ivanovskix zemlyax:

16. Prospekt im.Troskogo 28. pereulok Bанный
17. Prospekt Rozsh Lyuksemburg 29. tupik Rubsovskiy
18. Ul-Mirzachulskaya 30. tupik Aleksandrovskiy
19. Ul-Ivanovskaya 31. tupik Vasilyevskiy
20. ULLarkovaya 32. tupik Tezikovskiy
21. Ul-Zelenaya 33. pereulok P Kladbishenskiy
22. Ul-Kirpichnaya 34. ul-Parkentskaya
23. Ul-Sfsevaya 35. ul.Kooperativnaya
24. ULLovo-Bazarnaya 36. ul.Toyevskaya
25. Ul.Nevskaya 37. prospekt Malsh
26. Ul-Kladbiodenskaya 38. prospekt Sredniy
27. Pereulok I Kladbshsenskiy 39. prospekt Shsilyevskiy

Demak, 1925 yillardagi Kdrorga ko'ra Toshkentda jami 65 ta yangi ko'cha nomlari paydo bo'lgan. Yangi ko'chalarning qurilishi 1934 yilda shaharni loyihalashtirish bo'yicha tu-zilgan komissiya rejasi asosida amalga oshirilib. Toshkentning Yangi shahar qismidagi ko'chalar avvalgi - radi-al-halqasimon tartibda hamda yirik sanoat obyektlariga yo'naltirilgan holda qurilishi. Eski shaharda esa aholi uylari zich joylashgani bois, ayrim uylarni buzish, ko'cha-larning asosiylari gorizont tomonlariga ko'ra yotqizilishi va shahardan tashqariga to'g'ri olib chiqilishi lozim bo'lgan. Ko'chalarda daraxt va boshqa turdagi o'simliklar ekishni kengaytirish, zero, aholi yashaydigan mavzelarda bir ki-shiga 10-30 kv.m,dan kam bo'lmagan o'simliklar maydoni to'g'ri kelishi me'yoriy hisoblangan.

Yil sayin ko'payib borayotgan Toshkent aholisi z[^]chun sha-xar hududida yangi mikrorayonlar, ko'chalar barpo qilingan. Jumladan, 1936 yilgi xaritada 500 ta katta hamda o'rta uzun-likdagi ko'cha nomlari kdyd ztilgan. Rayonlar bo'yicha ularning soni quyidagicha: Kirov rayonida - 88 ta, Kuybishev rayonida - 124 ta, Leshsh rayonida - 97 ta, Oktyabr rayonida - 77 ta, Stalin rayonida — 61 ta, Frunze rayonida - 53 ta¹.

Ko'cha nomlarshsh ma'nosiga qo'ra 7 guruhga ajratsa bo'ladi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot (kasb-hunar, mahalla. yaqin-atrofdagi obyekt) bilan bog'liq toponimlar, son jihatdan ular ustunlik qiladi. Masalan: Gulbazar (Gulbozor), Charx, Teshik-Kapka (Teshik Qofqa), Sexnaya, Jelesnodo-rojnaya (Temiryo'lhilar).

2. Antropotoponimlar. Bunga O'rta Osiyo, sobiq Ittifoq xmda dunyoning boshqa hududlarida yashab o'tgan takikli shaxslar ismi bilan atalgan mikrotoponimlar kiradi. Ma-salan: Alan-kari (Allonqori), Zeyeti-ata (Zangiota), Roza Lyuksemburg, Lomonosov.

3. Aralash toponimlar ko'proq o'rtacha uzunlikdagi ko'cha-ya'ni torko'cha va muyulishlarning (proyezd. psq nom-.shiga xos. Bunday ko'chalarning bnr qismi aksari hollarda raqamlar orqali ifodalangan: pr. 1-y Chimbaysagban (Chim-boy-Sag'bon), per.2-oy Sapern'sh (Saperniy), ulZ-ya Akkurgan-skaya (Oqqo'rg'on). per.Turk-Arjskiy (Turkariq), Rakat-Zengi-ata (Zangiota), Malo-Mirabadskaya (Kichik Mirobod).

4. Joyning tabiati yoki umuman tabiiy obyektlar bilan bog'liq ko'cha nomlari ham son jihatdan anchagina: Almazar (Olmazor), Salarskaya (Salor), Shurtepe (Sho'rtepa), prLab-zak, Bozsuytskiy (Bo'zsuv) tupik, Dachnaya.

5. Turli geografik nomlarni o'zida aks ettiruvchi toponim-lar: ul.Uzbekistanskaya (O'zbekiston), Xorezmskaya (Xorazm), ulBaltiyskaya, Vladivostokskaya (Vladivostok).

6. Egotoponimlar: ul.Kara-Kirgizskaya (Krraqirg'iz), Tadjikskaya (Tojik), Turkmen'skaya (Turkman), Beshagach-skaya (Beshog'och), Karatashskaya (Krratosh).

7. Ma'lum tarixiy voqyelik bilan bog'liq toponimlar: ul.1-go Maya (1 May), 8-go Marta (8 Mart), Oktyabrinskaya (Oktyabr).

Joy nomlarini ruscha yozish nafaqdt ruscha xarita uchun xos jihat, balki o'sha davrda shahar ko'chalarida osilgan taxtachalarda ham shunday bo'lgan. Ko'cha nomlari tahlili natijalari quyidagi jadvalda aks etgan (2-jadval).

2-jadval 1930 yillar oxirida Toshkent ko'chalari nomlarining guruxlanishi

No	Topanimik guruhlar	Guruxdagi toponimlar soni
----	--------------------	---------------------------

¹ План-путеводитель по городу Ташкенту. 1936 года. — Т. 1936.

1.	Ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan bog'liq toponimlar	132 ta
2	Aralash toponimlar	123 ta
3	Antropotoponimlar	110 ta
4	Tabiat va tabiiy obyektlar bilan bog'lik ko'cha nomlari	71 ta
5.	Turli geografik nomlarni aks ettiruvchi topoiimlar	30 ta
6.	Etnotoponimlar	20 ta
7.	Ma'lum tarixiy vokelik bilan bog'liq kucha nomlari	12ta

Ikkinchi jahon urushi va undan keingi iillarda Toshkentda yangi rayon va mavzelar bilan bir qatorda yangi ko'cha-lar ham barpo qilingan. Arxiv hujjatlarida ularning anik soni va nomlari bilan bog'liq ma'lumotlar uchramaydi. Biroq ayrim manbalarga asoslangan holda ko'cha nomlari haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Masalan, hukumat organlariga o'tkaziladigan saylov materiallarini oladigan bo'lsak, ularda saylov okruglari shaharda ma'lum hududlar bo'yicha tashkil qilingani, har bir okrug bir nechta ko'cha yoki mahallalardan iboratligini hisobga olsak, saylov uchastkalari bi-lan bog'liq materiallarda shahar ko'chalarining nomlari to'g'risida ayrim ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Xususan, "Meh-natkashlar deputatlari Toshkent shahar Sovetiga saylov okruglarini tashkil qilish haqida" Toshkent shahar Ij-roiya komitetining 1959 yil 13 yanvardagi 1-son Qaroriga muvofiq shu yili Toshkent shahrida 442 ta saylov okrugi tash-kil qilingan bo'lib, okruglar klub, muassasa, mahallalar qoshida tashkil qilingan; ularning chegaralari ko'chalar bo'ylab o'tgan, okruglar nomi raqamlarda berilgan. 1959 yil-ga oid saylov okruglari qayd qilingan manbadan¹ shahar-ning 7 ta rayonida jami 545 ta ko'cha nomini aniqlash mum-kin. Agar 1936 yildagi Toshkent shahar rejasida 6 ta ma'-muriy rayon hamda 498 ta katta va o'rtacha uzunlikdagi ko'cha nomlari ko'rsatilganini hisobga olsak, 1959 yilda shahar rayonlari soni 1 taga ko'proq, katta va o'rtacha uzunlikdagilar soni tahminan 50 taga oshgan, deb ta'kidlash mumkin. Yangi ko'chalarga Ikkinchi jahon urushida kahramonlik ko'rsatgan jangchilarning nomlari, fan va madaniyat sohasida alohida xizmat ko'rsatgan olim. shoir, yozuvchilarning nom-lari berilgan va ularning katta qismi ruscha nomlar bo'lgan (general Petrov, V.Malyasov, Baranov, Ivliyev, A.Tolstoy, ALeverov, A.Yakubovskiy, A.Xidoyatov va b.)².

Shahar ma'muriyati ko'cha nomlarini o'zgartirish, yangi ko'chalarni nomlash bilan birga, tub aholining turmush tarzio'lgan an'anaviy ma'muriy bo'linmalar - maxallalarning nomlarini ham e'tibordan chetda qoldirmagan va ularning bir qismini hukmron mafkuraga mos ravishda o'zgartir-gan, ko'pchilik mahallalar birlashtirilishi natijasida ular-ning soni kamaygan. Jumladan, 1924 yilgi

¹ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-10 жамғармаси, 4-рўйхат, 143йиғмажилд. 665 та варақ

² Буряков Ю.Ф. ва б. Тошкент кўчалари..... кўрс.асар. 17-11

hujjatda 289 ta mahalla nomi keltirilsa¹, 1934 yilga oid hujjatda faqat 111 ta mahalla nomi qayd etilgan². Shahar mahallalarining joylashgan hududi, asosan, yangi tashkil qilingan Oktyabr rayoni va unga tutash yerlarga to'g'ri keladi. Arxiv hujjatida keltirilgan ma'lumotlarda quyidagi mahallalarning eski nomlanishi hamda ularning o'zgartirilgan shakli ma'muriy uchastoklar bo'yicha jadval shaklida ko'rsatilgan (3-jadval).

3-jadval.

Oktyabr rayoni xududidagi mahallalar soni ro'yxati (1934 yil)³

№	Yangicha nomlanishi	Eski nomi	Jami xo'jaliklar soni
1.	I uchastok Maqsido'zlik	Maqsido'zlik	76
2.	Mir-Muqsin	Eski Juva, Kunjak	103
3.	Baumana	Pushtihammom. Tinchon	233
4.	II uchastok Ishchi	Xo'ja ko'cha, Ishchi	231
5.	Zaribdar	I Oxun Guzar, II Oxun Guzar	195
6.	Narimanov	Ittifoq, Aglan Shaxid do 2-3	182
7.	III uchastok Axil	Tabib o'cha, Shakin Guzar	183
8.	Boltaboyev	Kozi o'cha, Sukpurch	184
9.	IV uchastok Sanvet	Chuvaldak, Besh og'ayni, Koshiqchilik	148
10.	Ulug'bek	Sarixumdon, Qoratut 3-4, Chaxchi ko'cha	236
11.	V uchastok Lenin	I Sebzor, 2 Sebzor	199
12.	Bolshevik	IDarbozakent, 2 Darbozakent	192
13.	Fasl	I Koxota, IV Koxota	200
14.	Kommunist	2 Koxota	115
15.	Kolxoz	3 Koxota, Tarnovboshi	190
16.	VI uchastok KiZIL Ko'priK	1 Toxtapul, 2 Toxtapul, 3 Toxtapul	207
17.	Toxtapul	9 Toxtapul, 7 Toxtapul	160
18.	Kahramon	5 Toxtapul, 8 Toxtapul, 6 Toxtapul, 10 Toxtapul	350
19.	VII uchastok Frunze	3 Oxun Guzar	158
20.	Voroshilov	Jin ko'cha, Baxodir	178
21.	Erkin	Parchabob, Kagni ko'cha	155
22.	VIII uchaspj Qurilish	Tik ko'cha, Chaqar	245
23.	G'anrat	Mo.chorxon	113
24.	Leninchi	Yakkachub, Yav	193

¹ Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-12 jamgarmasi. 1-ruyxat, 47-yif-majild, 107-107-varaklar. Mahallalar ruixati Malitskiy N.G. tomonidan ham borilgan. Tashkentskaya mahalla i mauza. - Tashkent. 1927.

² Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-375 jamgarmasi. 1-ruyxat. (114-yif-majild. 18-21-varaklar.

³ Usha manba. Jadvalda mahalla nomlari hujjatda berilgan shakl-da keltirilaadi.

25.	IX uchastok Axmedov	1, 2, 3 Kadivot	199
26.	Namuna	1,2Xuriat	142
27.	X uchastok Ruvadj	Qumloq, 1 Ravat. Xodjakan do 8-10	221
28.	Bordik	Berdik	165
29.	Mustak	1, 2TeshikQopqa, Uch ko'cha do 11-10	185
30.	Manjara	2 Rakat, Qora Sarop. 3 Rakat	239
31.	XI uchastok Komsomol	Hovuzbo'ii, Xo'ja Tarashkan. Hasanboy do 3-10	221
32.	XII uchastok Axun Babayev(a)	1 Shayx Sagdi, 2 Shayx Sagdi	298
33.	Qizil o'cha	1 Pichoqchilik, 2 Pichoqchilik	234
34.	Aloqa (Alaka)	Kunjak, Xoji Malik	102
35.	Uagent	Xiyobon, Uzgent	276
36.	XIII uchastok Kommuna	1-Hofiz kuyki	187
37.	Surat	4-Hofiz kuyki, 1-Qo'shtut	235
38.	Guliston	Guliston, 2 Qo'shtut	259
39.	8Mart	Xalim ko'p. Qozi ko'cha	221
40.	XIV uchastok Fayzulla Xo'jayev	3-. 2-Sayon	214
41.	Ms1lotav	1-Sag'bon	185
42.	Rudzatak	Guzarboshi, Kilbelbak	251
43.	Paxta	Sag'bon Oqtepa	107
44.	XV uchastok Engels	1-Chshatoy, 2-Chig'atoy	367
45.	Iqtisod	1-. 2-, Z-Chigatoy Chaqar,	213
46.	Madaliyat	1-, 2- Tukdi Jallab	237
47.	XVI uchastok Sosializm	1-, 2- Lashar	285
48.	Kalinin	1-, 2- Kallaxona	285
49.	Qizil Quyosh	Kissyak kurgan	225
50.	XVII uchastok Qizil Tovish	1-, 2- Sarixumdon	233
51.	Uzgarish	Maxxama, Ishqabad	122
52.	Qizil Yulduz	Damak do 16-17, unchilik	170
53.	Baynalmilal	Chuqur Kshploq	115
54.	G'alaba	Charxchilik, Xonaqr	150
55.	XVIII uchastok Vladimir	Ko'kcha. Tadko'cha	193
56.	Inqilob	Ko'kcha Ya/Shahar. Ko'kcha. Darbaza, II Ko'kcha Ya/Shahar	163
57.	XIX uchastok Kdzil Sharq	1-. 2- Obnazir	240
58.	Jarariq	Jarariq	140
59.	Parijskaya ommuia	Ayirilish, Podaxona	243

60.	XX uchastok Stalin	Xadra, Hovuzbog'	108
61.	I Degrez	I Degrez	67
62.	Jangob (Djangap)	Jangob (Djangap)	48
63.	Ilich	PDegrez, Gaugush, Sho'rtepa	283
64.	Xoja Rushnoy	Xoja Rushnoy	139
65.	G'ishtmasjlsh	G'ishtmasjid	143
66.	Proletar	1-. 2-Hovuzbog, Gulbozor	222
67.	XXI uchastok Xaqiqat (Xakikat1)	Shura, Rais ko'cha, Chuqurqishloq	234
68.	Shura	Kalatataya Xauzlik	145
69.	2 Utukur	Magal ko'cha, Djar ko'cha	237
70.	XXP uchastok Kaganovich	1-, 2- Kator Terak	97
71.	Pkramov	Balandmasjid	168
72.	Absdovoy	4-Oqmasjid, 1-Oqmasjid	188
73.	Maksim Gor'kiy	2-Okmasjid 3-Okmasjid	129
74.	Oyelmash	Yazvay(Yavay), Darxon	184
75.	Leningrad	Tarnavboshi, Zanjirlik	116
76.	XXShuchastok Krasniy Partshan	1-Orka ko'cha, 2-Orka qo'cha	200
77.	Okgebr	ShirinKuduk, D^kchi	239
78.	YangiXayog	Zakir, KuchukBashi	—
79.	Azod	Azod	86
80.	Cho'lpon	Cho'lpon	123
81.	Yuksalish	1-Qoryog'di, Z-Koryog'di	151
82.	XXIV uchastok Fabrika	1 Shatek, I Turk	255
83.	Urtak	2 Turk Olmazor, 2-Shatak	150
84.	To'lqin	I Ganchtepa	183
85.	XXV uchastok Sirli Masjid	Sirli Masjid	166
86.	Taraqqiy	Taraqqii	108
87.	Izvestiya	Shaxidon Tepa	187
88.	Yangi Yo'l	1-. 2-Minor Ya/Shahar,	258
89.	1 Kiyot Ya/Shahar	1-Qiyot Ya/Shahar	122
90.	2 Qiyot Ya/Shahar	2-Qiyot Ya/Shahar	131
91.	Birlashgan Idya	I-. 2-Idya	150
92.	1 uchastok Uzbekiston	I Turk Ya/Shaqar	99
93.	2 Turk Ya/Shahar	2 Turk Ya/Shaxzr	172
94.	Tilmai	Tojik, Hujum	167
95.	XXVI uchastok Pokrovskny	Maslyak, Shafqat	195
96.	Badirboy	Badirboy	26
97.	Saricho'pon	Saricho'pon	—
98.	Sharq	Sharq	39
99.	XXVIII uchastok Uchqun	Mirlar Andijon	189

100.	Pervomayskaya	1-, 2 Suzuk Ota Chaqar	—
101.	Bnrlashgan Ittifoq	1-. 2O'qchi	138
102.	Xamza	Samarqanl Darboza, Zangiota	148
103.	Ilgari	Cho'pon Ota, Chuqur ko'prik	240
104.	XXIX uchastok Новыи gorod		2409 xo'jalik
105.	XXX uchastok Aka-Turmush	1-Tepa, 2-Tepa	212
106.	Depa	Allan	58
107.	P rav da	Eshonguzar, 2 Yangi Shaqar	64
108.	XXXI uchastok Chig'atoy Chaqar	—	57
109.	1-y Tepe	—	—
110.	Buloq Boshi	—	150
111.	Darboza Og'zi	—	

Yukorida keltirilgan jadvalda 88 ta yangi mahalla nom-lari berilgan. Jadvalning birinchi ustunida ko'rsatilgan yangilangan hamda saqlanib qolgan mahalla nomlari ro'yxatiga nazar solsak, ma'nosiga ko'ra toponimlar tarkibi sezilarli tarzda o'zgarganiga amin bo'lamiz. Jumladan, agar XX asr birinchi choragida majud mahalla nomlari tarkibi-da kasb-hunar va aholining ijtimoiy guruhlari bilan bog'liq toponimlar (Etikdo'z, Degrez, Egarchi), tabiiy-geografik obyekt bilan bog'liq (Kattahovuz, Olmazor), relyef bilan bog'liq toponimlar (Oqtepa, Qo'rg'ontepa) aksariyat qismni tashkil qilib, shahar darvozalari nomlari aks et-gan (Samarqand darvoza, Taxtapul), mahalladagi yirik obyekt nomi bilan atalgan (Gulbozor, Eskijuva), etnik guruh nomi bilan bog'liq nomlar (Qashqar, Chuvalachi) key-ingi o'rinni egallab, tanikli shaxslar (Zangiota) va ma'lum tarixiy voqyeliklar bilan bog'liq (Janggoh) toponimlar kam miqdorda uchragan bo'lsa¹, sovetlar hukmronligi-ning dastlabki yigirma yillik davrida, ya'ni 1930 yillar oxirida, mahalla nomlari tarkibida quyidagi o'zgarishlar ro'y bergan. Shaxs ismlari bilan atalgan mahalla nomlari, ya'ni antropotoponim hamda tarixiy voqyeliklar bilan bog'liq bo'lgan toponimlar salmog'i oshgan. shuningdek, yangi guruh - madaniy hayotga taalluqli nomlar paydo bo'lgan, iqtisodiy-ijtimoiy hayot bilan bog'liq (ya'ni kasb-hunar va aholining ijtimoiy guruhlarini aks ettiruvchi), tabiiy-geografik obyektlar va relyef bilan bog'liq toponimlar soni kamaygan.

1959 yilga oid saylov okruglari to'g'risidagi hujjatda bunday okruglar mahallalarda ham tashkil qilingani qayd etilgan va bu borada 128 ta mahalla nomi qayd qilingan. Ushbu davrdagi mahalla nomlari, asosan, kasb-hunar, u joy-lashgan hududning nomlanishi, shaxs ismi, tabiiy shart-sharoitlar. madaniy-ma'naviy sohalar bilan bog'liq holda atalganini kuzatish mumkin (4-jadval).

4-jadval

¹ Бўриева Х. Тошкент шахрининг тарихий топонимияси (XIX asr oхири - XX asr бошлари). - Т: Noshirlik yogdusi, 2009. 44-6.

Toshkent shaqri maxallalarining 1959 yildagi nomlari¹

1. Avangard	15. Ilg'or	29. Krupskaya	43. Mudofaa
2. Allon	16. Inqilob	30. Kuybishev	44. Muyetahkam
3. Aloqa	17. Ittifoq	31. Kutuzov	45. Muqimiy
4. Baynal-Minal	18. Iqtisod	32. Ko'kcha	46. 1 May
5. Baland machit	19. Kalinin	33. Leninchi	47. 8 Mart
6. Birlik	20. Kamolon	34. Litvinov	48. 5-Mergancha
7. Bobir	21. Karl Marks	35. Mavze mevazor	49. Namuna
8. 2 besh yillik	22. Kattabsh-	36. Magazin mavze	50. Nizomiy
9. Vladimir	23. Kirov	37. Madaniyat	51. Obod
10. Voroshilov	24. Kommmntern	38. Mannon Uyg'ur	52. Ozod
11. Guliston	25. Kommupizm	39. M.Gorkiy	53. Oktyabr
12. Gurunch	26. Komsomol	40. Mayakovskiy	54. Oktyabrning40 yilligi
13. Degrez	27. Kolxozchi	41. Maslak	55. Olmazor
14. Zarafshon	28. Krasnyy partizan	42. Mikoyan	111. Katortol
56. Ordjonikid.che	74. Sur'at	93. Chopon - Ota -	112. Kizil ko'prin
57. Oxunboboyev	75. Taraqqiy	Novza	113. Kizil tovup
58. Oqilon	76. Telman	94. Chor-suv	114. Kizil-ko'shii
59. Oqtepa	77. Terlyak	95. Chuqurko'prik	115. Kizil yuldu:
60. Parij Kommuna	78. 4-Taxtapul	96. Sharq	116. Qizil Shar
61. Paxta	79. Tinchlik	97. Sharq yulduzi	117. Qoratosh
62. Paxtakor	80. U.chgant	98. Sharq haqiqati	118. Koryog'di
63. Podaxona	81. Uchqun	99. Shmidt	119. Kubir-Ari
64. Pichoqchilik	82. Fizuli	100. Shumilov	120. Qurilish
65. Pushkin	83. Frunze	101. Sho'ro	121. Qurog'on-teia
66. Pushtihammom	84. Furqat	102. Egarchi	122. Qo'shtut
67. Rivoj	85. Xizmatchi	103. Erkin	123. G'ayrat
68. Sariq chopon	86. Xonaqo	104. Yangn turmush	124. G'alaba
69. Sverdlov	87. Changaizor	105. Yangi shahar	125. Hamza
70. Selmarsh	88. Charx-komolon	106. Yangi hayot	126. Xasanboy
71. Stalin	89. Chilonzor	107. O'zbekiston	127. Haqiqat
72. Sobir Rahimov	90. Chigatoy	108. O'zgarish	128. Xislap
73. Sosialshsh	91. Chimboy	109. O'tkir	
	92. Chopon-ota	110. O'qchi	

Umuman olganda, sovet davrida mahalla nomlari tarki-bida vujudga kelgan yangi toponimlar aynan o'sha zamonda kechgan jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan, mahallaning bunga kadar mavjud nomlanishi va aynan shunday nom olishiga sabab esa inobatga olinmagan, bunday holat mahalla tari-xiy nomining unutilishiga olib kelgan.

1.2. Shaxar boshqaruvi va xo'jaligi bilan bog'liq joy nomlari

Yangi rayon, mahalla, ko'chalar bilan bir qatorda Tosh-kent shahri hududida turli tashkilotlar uchun inshootlar, aholining turar joylari qurilishi amalga oshirilgan va bu jarayonlarning jadallashi unga respublika poytaxti maqomining berilishi bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, 1926 yilgi hujjatda yozilishicha, Toshkent shahri hududida 48948 ta alohida xo'jalik bo'lib, ularning umumiy maydoni 1.665.232 kv.metr ga teng, bundan 86,8%i uylar, 13,3%i turli muassasalarga

¹ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-10 жамғармаси, 444-рўйхат, 143-йиғмажилд, 61-81-варақлар.

tegishli bo'lgan. Hukumatga tegishli muassa-salarning Samarqanddan Toshkentga ko'chirilishi munosaba-ti bilan muassasalarga tegishli maydonlar soni turar-joy maydonlarining qisqartirilishi hisobiga oshib borgan. Bir uy egasi uchun o'rtacha maydon 40.42 kv.m.ga teng; sobiq Eski shaharda - 20-25 kv.m.ga, Yangi shaharda - 100-120 kv.m. Bir qavatli uylar ko'pchilikni tashkil qilib, sobiq Eski sha-harda sinchli uylar, Yangi shaharda esa xom g'ishtdan quril-gan uylar ko'p bo'lgan. 1924-1930 yillar oralig'ida Toshkent-da yangi imoratlarni qurish ishlari nisbatan sust kechgan va, asosan, xususiy sektor bo'yicha olib borilgan . Davlat muassasalariga tegishli 197 ta, kooperasiyaga - 327 ta¹, jamoat tashkilotlariga - 5 ta, xususiy shaxslarga tegish-li - 2271 ta, jami - 3800 ta imorat qurilgan . Bu holat yillar bo'yicha quyidagi javdalda ko'rsatilgan (5-jadval).

5-jadval

	1924-27 y	1928 y	1929 y	1930 y.	Jami
Davlat muassasalari	42 ta	17	66	72	
Kooperasiya	127 ta	70	121	9	
Jamoat tash kilotlari	2 ta	--	3	--	
Xususiy imoratlar	1032 ta	256	168	65	
Ishchilar uchun	308 ta	125	17 6	6 7	
Xizmatchilar uchun	168 ta	50	2 7	4	
Hunarmandlar	8 ta	11	8	16	
Kishlok xo'jaligi va b.	423 ta	82	61		
	2310	611	647	282	3800

Sovet hukumati qarorlariga muvofiq tarzda tashkil etilgan muassasalar uchun yangi joy, imorat va binolar barpo etilguniga qadar shahar ma'muriyati, ijtimoiy-iqtisodiy soha obyektlari hamda madaniy-ma'rifiy muas-sasalar dastlab, shahar hududida mavjud va davlat tasar-rufiga o'tkazilgan turli binolarda joylashgan.

Birinchi navbatda, yangi sovetlar davlatini qurish va hoki-miyatini tashkil qilish uchun shahar ma'muriy tashkilotlari tuzilgan va ular shahar bo'ylab joylashtirilgan. O'lkada so-vet hokimiyatining o'rnatilishiga qarshi fuqarolar urushi olib borilayotgani sababli, sovet hukumati tomonidan qator harbiy gashkilotlar tuzilgan va ularning rahbarlik bo'lin-malarining katta Q14smi Toshkentda tashkil qilingan. Shu bois, ushbu yillarda paydo bo'lgan davlat ma'muriy tashkilotlari tizimida xarbiy tashkilotlarning nomlari ko'proq Jumla-dan, 1920 pilga oid arxiv hujjatlarida Toshkentda up;bu davrda mayukud quyidagi muassasalarning nomlari uchr, (bu yerda nomlar hujjatda keltirilgan shaklda berilib, qavs ichida o'zbek tilidagi tarjima shakli keltiriladi)².

¹ Тошкент шаҳар давлат архиви. Ф-7 жамғармаси, 2-рўйхат. 14-йиғ-иажилд. 4-10-варақлар.

² Тошкент шаҳар Давлат архиви Ф-30 жамғармаси, 1-рўнхат. ПЗн жилд, 1-30-варақлар. 1 3й-йиғмажилд. 3-18-варақтар; Ф-12-жамғармаси. 1-рўйхат,207-11иғмаж11"1Л. 56-57-, 75-84-варақлар. Русчадан таржима кллиган.

Turkestanskiy Sentralnyy ispolnitelnyy komitet (Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasi);

Sovet narodnogo xozyaystva (Xalq xo'jaligi Sovetlik Narodniy komissariat vnutrenniy del Turkrespubliki (Turkrespublika Ichki ishlar xalq komissarligi);

Turkestanskiy Narodnyy komissariat vneshniy del (Tashqi ishlar xalq komissarligi);

Komitet Turkestanskogo fronta (Turkisgon fronti qo'mitasi);

Byuro voyennogo stroitelstva Turkestanskogo fronta (Turkiston fronti xarbiy qurilish byurosi);

Upravleniye nachalnika injenerov Turkfronta (Turk-front muhandislari boshlig'i boshqarmasi);

Nachalnik voysk vnutrenney slujbg Turkfronta i yego sekretariat (Turkfront ichki xizmat qo'shini boshlig'i va uning kotibiyati);

Operativnoye upravleniye shtaba voysk vnutrenney slujb! Turkfronta (Turkfront ichki xizmat qo'shini shtabi Tez-kor boshqarmasi);

Stroitelnoye upravleniye shtaba voysk vnutrenney slujbm Turkfronta (Turkfront ichki xizmat qo'shini shtabi qurilishi boshqarmasi);

Narodniy komissariat revolyucionnogo komiteta (Revolucion qo'mita xalq komissarligi, Turkiston Markaziy ijroiya qo'mita tasarrufida);

Sentralnyy otdel voyennyx zapasov (Harbiy zahiralari markaziy bo'limi).

Upravleniye sklada zapasnoy rezervnoy artillerii (Zahira artilleriya omborxonasi boshqarmasi);

Orujeynaya masterskaya Tashkentskogo sklada Turkfronta (Turkfront Toshkent omborxonasi qurol ustaxonasi);

Turkaviamasterskaya (Turkaviaustaxonasi);

Upravleniye svyazi Turkfronta (Turkfront aloqa boshqarmasi)

Dislokator otdelov Turkfronta (Turkfront bo'limlari dislokatori);

Shtab voyennogo flota Turkfronta (Turkfront xarbiy flot shtabi);

Nachalnik konvoynoy straji Turkestanskoy Respubliki (Turkiston Respublikasi konvoy qo'riqchilari boshlig'i)

Nachalnik Tashkentskogo gorodskogo garnizona (Toshkent shahar gornizoni boshlig'i).

Tashkentskaya konvoynaya komanda (Toshkent konvoy komandasi);

Kontrolnaya komissiya po stroitelstvu Tashkentskogo voyennogo uchilisha (Toshkent harbiy bilim yurtini qurish bo'yicha nazorat komissiyasi);

"Turksentropexat" i yego filial (Turkiston marka-ziy bosmaxonasi va uning filiallari, Turkiston Respublikasi Markaziy qo'mitasi tasarrufida);

Sentralnoye schetnoye upravleniye byudjeta (Markaziy byudjet hisob boshqarmasi);

Upravleniye komissariata (Komissarlik boshqarmasi);

Otdel kreditnyx biletov Sentralnogo schetnogo upravleniya byudjeta (Markaziy byudjet hisob boshqarmasining kredit biletlar bo'limi, Komissarlik boshqarmasiga tegishli);

Narodniy komissariat sotsialnogo obespecheniya nasele-niya Turkestanskoy Respubliki (Turkiston Respublikasi aholi ijtimoiy ta'minoti xalq komissarligi);

Narodnda komissariat finansov (Xalq moliya komissarligi);
 Komissariat yustisii (Adliya komissarligi);
 Sudebnoye upravleniye (Sud boshqarmasi);
 Sovet narodn1x sudey (Xalq sudyalari soveti, Adliya komissarligi tasarrufida);
 Kollegiya pravovgx zagsitnikov pri Sfdarinsksm Sovete (Sir-daryo Soveti qoshidagi xuqukni ximoya qiluvchilar Kollegiyasi);
 Oblastnaya milisiya (Oblast milisiyasi);
 Otdel milisii Tashkentskogo uyezda (Toshkent uyezdi milisiya bo'limi);
 Prezidium sovetov ispolnitelngx komitetov Sfdar-inskoy oblasti i goroda (Sirdaryo oblasti va shahar ij-roiya qo'mitalari sovetlari Prezidiumi);
 Sentralnoye Turkestanskoye upravleniye evakuasii na-seleniya (Aholini evakuasiya qilish bo'yicha Turkiston mar-kaziy boshqarmasi);
 Tashkentskiy gorodskoy sovet narodnmx deputatov (Toshkent shahar xalq deputatlari soveti);
 Jilishnoye upravleniye Gorodskogo otdela Tashsovdapa (Tash-sovdep P1ahar bo'limining turar-joy boshqarmasi);
 Tashkentskiy gorodskoy Ispolnitelngy komitet (Toshkent shahar Ijroiya qo'mitasi);
 Novogorodskoy Ispolnitelnsh komitet (Yangi shahar Ijroiya qo'mitasi);
 Starogorodskoy Ispolnitelnsh komitet (Eski shahar Ijroiya qo'mitasi);
 Glavnoye upravleniye Tashkentskoy gorodskoy milisii Turkestanskogo Sentralnogo ispolnitelnogo komiteta (Turk-MIK, Toshkent shahar milisiyasi Bosh boshqarmasi);
 Komitet zdravooxraneniya (Sog'liqni saqlash qo'mitasi);
 Novogorodskoy otdel narodnogo obrazovaniya (Yangi shahar xalq ta'limi bo'limi);
 Starogorodskoy otdel narodnogo obrazovaniya (Eski shahar xalq ta'limi bo'limi);
 Prezidium Kommunalnogo otdela (Kommunal bo'lim Prezidiumi)
 Ma'muriy boshqaruvga oid aksariyat toponimlarda muassasaning qaysi hududni tasarruf etishi, turi hamda fao-liyat yo'nalishi, ba'zida uning qanday tashkilotga tegiggiligi aks etgan (Turkrespublika Ichki ishlar xalq ko-missarligi, Aholini evakuasiya qilish bo'yicha Turkiston markaziy boshqarmasi, Toshkent shahar ijroiya qo'mitasi, Sog'liqni saqlash qo'mitasi, Eski shahar xalq ta'limi bo'li-mi, Oblast milisiyasi).
 Toshkent shahri hududidagi barcha xo'jalik obyektlarini davlat tasarrufiga o'tkazish ishlari 1918 yil tashkil qilingan Xal"Q xo'jaligi sovetlari (Sovetsh narodnogo xozyaystva -Sovnarxoz)⁴ tomonidan amalga oshirilgan. Jumladan, 1918—1919 yillarda Xalq xo'jaligi sovetlari tomonidan 92 ta korxona davlat

tasarrufiga o'tkazilgan¹. Ulardan 35 tasi ngu tashkilotning Sanoat bo'limi, qolganlari boshqa muassasalar tasarrufiga topshirilgan, ayrimlarining faoliyati moddiy ta'minot tanqisligi tufayli keyinchalik tutatilgan. Yangi tashkil qilingan sanoat obyektlariga sovet hukumati yo'riqlariga binoan nomlar berilgan. Aksari toponimlarda korxonaning faoliyat turi aks etgan (Kastorka zavodi, To'qimachilyak ustaxonasi, Etikdo'zlik zavodlari), keyingi o'rinda muassasa turi hamda tartib raqami ko'rsatilgan nomlar turadi (4-sovet tegirmoni. 3-g'isht zavodi), ba'zi hollarda muassasa nomida uning joylashgan hududi aks etgan (Bo'rjar kimyo zavodi), shuningdek, dastlabki yillarda ushbu xo'jalik obyektlarining yangi nomlariga ko'shib korxonaning sobiq egasi ismi ham qayd etilgan (sobiq Ivanov zavodlari, sobiq Davidov ustaxonasi). Ta'kidlash joizki, 1918 yildan boshlab shahar hududidagi yirik sanoat obyektlari nomlarida antropotoponimlar salmog'ining keskin kamaygani kuzatiladi va bu holat sovetlar xukmronligining dastlabki yillarida yirik mulkning davlat tasarrufiga o'tkazilishi bilan izohlanadi. Masalan, 1919 yilda Toshkent xududidagi kimyo sanoatiga qarashli korxonalarning davlat tasarrufiga o'tkazilishi natijasida ularga berilgan yangi nomlar hamda bunga qadar mavjud eski nomlanishiga e'tibor qaratilsa, yangi toponimlarda shaxsga tegishlilik belgilari deyarli uchramaydi (6-jadval).

6-jadval

1919 yilda davlat tasarrufiga o'tkazilgan sanoat korxonalari ro'yxati²

№	Yanginomi	Eski nomi
1.	Sobiq Ivanov Vино va spirt omborxonasi	Ivanov savdo uyining vino va spirt omborxonasi
2.	3-sonli vino tayyorlash punkti	Pervushin savdo uyi zavodi
3.	4-sonli vino tayyorlash punkti	Ivanov savdo uyi
4.	7-sonli yog'-moy zavodi	Mir-Badalov yog'-moy zavodi
5.	10-sonli yog'-moy zavodi	Uvadyevlar yog'-moy zavodi
6.	Kastorka zavodi	Kastorka zavodi
7.	"Bo'rjar" kimyo zavodi	YusufDavmdov savdo uyi /kimyo zavodi/
8.	Soda zavodi	Sorokin va Goppe savdo uyi /soda zavodi/

¹ Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-23 jamgarmasi, 1-ruyxat, 80-iygmaжилд, 12-13-варақлар. (манбадан таржима қилинди). Ушбу хуж-жатдаги жадвалда фақат айрим корхоналар қайд этилган бўлиши керак, чунки sanoat obyektlarining sони кўп бўлган.

² Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-23 jamgarmasi, 1-ruyxat. 64-iygmaжилд, 1-6-варақлар.

9.	Kog'oz fabrikasi	(bu fabrika Turkiston xalq xo'jaligi sovetlari - TXXS -tomonidan tashkil etilgan)
10.	Chinni zavodi	(Pugasovning yonib ketgan gugurt fabrikasi o'rnida TXXS tomonidan qurilgan)
11.	Gugurt zavodi	Pugasov va uning o'g'illari savdo uyi /gugurt fabrikasi/
12.	Sobiq Ivanov qoshidagi bondarnaya ustaxonasi	Ivanov savdo uyi /bondarnaya ustaxonasi/
13.	Bo'yoq zavodi	Nikiforov zavodi

Biroq xalq xo'jaligidagi mayda ishlab chiqarish obyektlarining aksariyati ushbu yillarda o'z egalari qo'lida qolgan, buni arxiv hujjatlarida keltirilgan ayrim ro'yxat-larda kuzatish mumkin. Masalan, 1919 yilgi hujjatda Toshkentdagi 107 ta suv tegirmonining joylashgan hududi va egalarning ismlari keltirilgan¹. Tegirmon bilan bog'liq topo-nimlarni tahlil etish natijasida, ularning 104 tasi ma'lum shaxslarga, 3 tasi masjidlariga vaqf mulki sifatida tegishli bo'lgani aniqlanadi.

20-yillarda hukumat tomonidan olib borilgan yangi iqtisodiy siyosat ta'sirida xalq xo'jaligida davlat byudjetiga tegishli korxonalar bilan birga, turli shirkatlar - artellar, davlatdan joyni ijara olib ishlovchi kooperativ tashkilotlar, ittifoqlar, bir nechta artellarning birlashuvi natijasida vujudga kelgan trestlar paydo bo'lgan. Bu-lardan, ayniqsa, hunarmandchilik-sanoat artellari keng tarqalgan sanoat ishlab chiqarish shakliga aylangan. Masalan, 1926 yilda Eski shaharda 42 ta artel bo'lgani tadqiqotlarda qayd etiladi. Bu davrda sanoat korxonalarining nomlanishida davr voqyeli ("Yer-islohoti" arteli), muassasaning faoliyat turi ("O'zbekdavlatkino", Davlat banki, "O'zbekvino", Metallchilar ittifoqi), joylashgan hudud bilan bog'liq holda atalgan ("Jar-ariq yacheykasi"), ba'zi hollarda o'ziga xos tarzda ("Qo'shchi" ittifoq, "Mehnat", "Sila truda" artellari) va antropotoponimlar (Oxunboboyev nomidagi artel) uchraydi².

30-yillarda Toshkent shahri "planini tuzish va sosialis-tik tarzda rekonstruksiya qilish bo'yicha" maxsus hay'at ish olib borgan. 1934 yilda ushbu komissiya ko'chalarni qurish, sanoat obyektlarini joylashtirish, shahar transport va aloqa tarmoqlarini rivojlantirish, shaharni obodonlashtirish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish ishlarini tashkillashtirish, shahar atrofi hududlarini tartibga solish bo'yicha loyi-halar ishlab chiqqan. Asosiy sanoat korxonalari 1934 yilda taqdim etilgan loyihaga ko'ra quyidagicha joylashtirilishi rejalashtirilgan: "a) janubda, Toshkent stansiyasiga yaqin hududda - To'qimachilik kombinati va issiqlik quvvatidan keng foydalanuvchi, shu sababdan TES (Issiqlik energiyasi markazi) ga yaqin bo'lishi lozim boshqa korxonalar; b) shimolda, Toshkent stansiyasiga yaqin joyda - ko'proq metall bilan ishlovchi korxonalar; v) shimoli-sharqda, Chirchiq

¹ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-23-жамғармаси, 1-рўйхат, 79-йиғмажилд, 6-8-варақлар.

² Садыков Т., Рашидов Г. Детство Екимового Октября (краткий историко-экономический очерк). - Т.: Узбекистан, 19(58). - С.36. Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-12 жамғармаси. 1-рўйхат, 441-йиғмажилд, 141-141-орқа-варақ; 319-йиғмажилд, 6. 25-варақлар.

daryosi atroflarida - qandolatchilik, to'qimachilik fabrikalari, Suv xo'jaligi ustaxonalari, ya'ni atrof muhitga zarari bo'lmagan obyektlar; g) janubi-sharqda, Toshkent stansiyasi hududida - mavjud qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalari qato-rida tovarni jo'natish va qabul qilish bilan bog'liq obyektlarni qurish, "Qizil Sharq" zazodi, sellyuloza-qog'oz kombinati"¹. 1938 yilda shahar qurilishining bosh rejasi (generalga plan) tuzilgan. Bu haqda arxiv hujjatlarida ayrim ma'lumotlar uchraydi². 8 yil davomida, ya'ni 1938-1946 yil-lar davomida shaharning genplani shahar joriy planirovkasining asosi bo'lib kelgan va urushdan keyingi xo'jalikni tiklash yillarida ham uning ayrim elementlariga rioya etilgan.

30-yillarda yangi iqtisodiy siyosatning tugatilishi va olib borilgan jadal sanoatlashtirish siyosati natijasida shahar-dagi ishlab chiqarish korxonalari, xususan, sanoat obyektlarini ma'lum davlat boshqarmalari tasarrufiga o'tkazish ja-rayoni boshlangan, biroq artel shaklidagi ishlab chiqarish shakli ham saqlanib turgan va 1941 yilda Toshkentda 84 ta artel ishlagani manbalarda qayd etiladi³. Shu yillarda zavod va fabrikalarni avtomatlashtirish ishlari boshlangan, qo'l mehnati, sodda texnika vositasida ishlovchi mayda korxonalar o'rniga katta hududni egallovchi, bir nechta sex, korxonalardan tashkil topgan, mexanik jihatdan ancha takomillashgan yangi zavod majmualari barpo etilgan. Bular jumlasiga "Tashselmash", "Uzbekselmash", "Ekskavator", "Tash-kentkabel" zavodlari, Toshkent to'qimachilik ("Tekstilkom-binat"), Poligrafik kombinatlar, "Krasnaya zarya", "O'rtoq", 2-sonli poyabzal fabrikalarini kiritish mumkin. Ularda, asosan, qishloq xo'jaligini avtomatlashtirish uchun mahsulotlar, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Korxona va tashkilotlar bilan bog'liq toponimlarni, ma'nosiga ko'ra, quyidagi asosiy olti guruhga ajratish maqsadga muvofiq: korxona nomida uning faoliyat turi aks etgan va tar-tib raqamlar bilan berilgan (G'isht zavodlarining 1-guruhi, 1-sonli Non kombinati, 2-sonli poyabzal fabrikasi), korxona turini aks etuvchi (Kimyo fabrikasi), hududiy yoki ma'muriy tegishlilikni bildiruvchi ("Uzpoligrafkombinat", "O'zbekfilm",), shaxs ismi bilan atalgan va faoliyat turini ifodalovchi (Strelkov nomli FZU bosmaxonasi), sovet davri maf-kurasini aks ettiruvchi va o'ziga xos tarzda nomlangan ("Krasnaya zarya", "Krasnsh oktyabr", "O'rtoq") joy nomlari; ko'p hollarda ushbu toponimlar bir nechta so'zlarning qisqartirilgan shakllaridan tashkil topgan ("Tashoblkojobuvprom-soyuz", "Uzbekkirpichtrest").

Urush yillarida respublika poytaxti va uning qolgan hududlarida faoliyat yurituvchi barcha xo'jaliklar front ehtiyojlariga uchun xizmat qilishga moslashtirilib, aholining turmush tarzi ham shunga mos ravishda o'zgartirilgan. Toshkentdagi sanoat korxonalarining katta qismi harbiy qurollar ishlab chiqarish, harbiy texnikani ta'mirlash ishlarini amalga oshirgan bo'lsa, ko'plab tibbiy, ijtimoiy va ma'rifiy muassasalar yarador as-karlarga yordam berib, ularni davolash, evakuasiya qilingan aholiga boshpana berish, urushda qatnashayotgan askarlar

¹ Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-36 жамғармаси. 1-рўйхат. 6-йиғмажилд. 3-33-варақлар.

² Ф-36 - Toshkent shaharining me'moriy-rejalashtirish boshqarma-si hujjatlari jamgarmasida.

³ Садыков Т, Рашидов Г. Детище..., кўрс.асар. 37—6.

uchun kiyim-kechak va oziq-ovqat zaxiralarini tayyorlash ishlarida faol qatnashgan bo'lsa, ilmiy va madaniy muassasalar mamla-katning urushda g'alaba qozonishi uchun zarur bo'lgan tadbirlar-ni amalga oshirgan. Ushbu davrda Toshkent ittifoq ahamiyatiga ega bo'lgan yirik sanoat markazi sanalgan. Urush va urushdan keyingi yillarda shaharda YuOga yaqin yirik sanoat korxonalari joylashtirilgan. Sanoat sohasida 95 ming kishi band bo'lgan, ulardan 2/3 qismi og'ir sanoatda faoliyat yuritib, ushbu tar-moqnint yalpi mahsuloti 1 mlrd rublga teng, asosiy ishlab chiqarish fondlari 800 mln.rublli tashkil qilgan. Ishlab chiqarish-da artellar ko'rinishidagi korxonalar ham bo'lgan. Shuningdek, mahalliy sanoat hamda sanoat kooperasiya turlari ham rivoj-langan. Sanoatda yetakchi o'rinni mashinasozlik, yengil va to'qi-machilik sanoati egallagan.

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, shahar sanoatida urushgacha bo'lgan davrga nisbatan ancha o'sish kuzatiladi. Undagi band ishchilar soni ham ortgan. 1961-1965 yillarda sanoatning o'sish sur'ati 153,4% ga teng bo'lib, yillik o'sish sur'ati 8,9%ni tashkil qilgan¹.

Shahar sanoat rayonlariga maxsus bo'lingan va nomlangan: 1- Shimoliy, 2. Shimoli-sharqiy, 3. Sharqiy, 4. Ordjonikidze, 5. Vokzalorti, 6. Janubiy, 7. Janubi-g'arbiy. Faqat Toshkentning Markaziy rayoni sanoat rayonlari qatoriga kirmagan.

Urush yillari davrida shahar sanoati ko'proq Shimolk-sharqiy, Sharqiy, Vokzalorti, Janubiy sanoat rayonlarida rivojlangan. Sanoat ishlab chiqarishi hajminin: o'sishiga sobiq Ittifoqning g'arbiy hududlaridan ko'chirib keltirilgan sanoat obyektlari ham ta'sir ko'rsatgank. Birok ushbu qurilishlar shahar Bosh rejasi bilan muvofiq holda olib borilmagani tufayli ularning aksariyati mo'ljalga ko'ra joylashmagan.

Keyingi o'n besh yil mobaynida sanoat obyektlari nomlari soni ko'payishi kuzatiladi. Ushbu holat sanoatlashtirish siyosatining davom etishi bilan bog'liq Xususan, man-balarda 1950 yillar oxirida Toshkentda 230 ta sanoat kor-xonasi faoliyat yuritgani to'g'risida ma'lumotlar uchray-di², (ayrim tadqiqotlarda esa ularning soni 300 tani tash-kil qilishi va bu sanoat korxonalari respublika sanoat mahsulotining deyarli uchdan bir qismini ishlab chiqargani to'g'risida ma'lumotlar keltirilsa, yana boshqalarida yi-rik sanoat obyektlarining soni 150 tadan ziyodligi qayd etilgan³). 1941-1965 yillar mobaynida Toshkentdagi ish-lab chiqarish korxonalari va boshqa turdagi tashkilot, mu-assasalarning nomlari ushbu davrda ishlab chiqariladigan mahsulot, faoliyat yo'nalishi, korxona tuzilishiga ko'ra turi, tartib raqami, hududiy tegishliligi. taniqli shaxs ismi bilan, tarixiy voqyelik bilan bog'liq holda atalgan (2-sonli poyabzal fabrikasi, Gorkiy nomidagi tikuv fabrikasi, "Nedra Sredney Azii (O'rta Osiyo yer osti boylik-lari) zavodi", Charm mahsulotlarini qayta ishlash zavodi ~ zavod "Kojsmryeobrabotka", "Vatan" arteli, "Elektrik" arteli, "Vodokanal" tresti, "Kiyevtexfilm", Chkalov no-midagi metall buyumlar zavodi, 633-a zavodi, "Bo'rjar GES", Parashyut-desant mulki kombinati,

¹ Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-7 жамгармаси, 3-рўйхат 23-ийгмажилд, 2-варақ. рўйхат

² Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-7-жамгармаси. 2-рўйхат. 142-ийгмажилд, 2-варақ.

³ Соколов Ю.А. ва б. Ташкент. - Т., 1957. - С.56. ; Ташкент. /Научные труды ТашГУ. Вып. 226. - Т., 1964. - С.95-96.

"Kommunar" za-vodi, Qog'oz fabrikasi, Sanoatqurilishmateriallari Mi-nistrligining 1-sonli tajriba zavodi).

O'rganilayotgan davrda Toshkent shahri hududidagi savdo obyektlarining turi va soni iqtisodiy, ijtimoiy, demog-rafik, madaniy omillar ta'sirida ortib borgan. Savdo mu-assasalari qatorida bozor, yarmarka, do'kon (magazin), do'koncha (laryok)larni qayd etish lozim.

Arxiv hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 20-yillar oxirida Toshkentning Yangi shahar hududida Vos-kresenye, Eski gospitalniy, Olsy bozorlari hamda Yarmar-ka maydoni yirik savdo markazlari sanalgan. Shuningdek, Chimkent yo'li, Kasyanov, K.Marks, Pushkin, Niyozbek, En-gels ko'chalari, Oktyabr slobodkasi, 49-, 51-sonli paxta zavodlari hududlarida ham savdo obyektlari joylashgan. Jami, yuqorida keltirilgan joylarda 1 ta baza, 1-U magazinlarga tegishli 19 ta bo'lim, 1-U lareklarga tegishli 19 ta bo'lim bo'lib, ularda meva-sabzavotlar, boshqa turli xilda-gi oziq-ovqat, baqqollik, teri mahsulotlari, xona jihoz-lari, kiyim, poyabzal, qurilish mollari va h.k.lar sotil-gan¹. Ularning nomlari, asosan, raqamlar bilan berilgan, biroq aniqlik uchun joylashgan hududi va sotiladigan mol turi ham qayd etilgan (Voskresenye bozoridagi I magazin - universal, Voskresenye bozori hududidagi II magazin -poyabzal, Kasyanov ko'chasidagi III magazin - baqqollik, Qash-g'ar ko'chasidagi III larek - baqqollik).

Eski shahar hududida Eski Jo'ba (Glavnsh bazar - Bosh bozor), Urda bozori yirik savdo olib boriladigan joylar hisoblangan. Shuningdek, Gulbozor, Cho'ponbozor, Tuzbozor, Nonbozor va b. bozorchalar, Chig'atoy, Xadra, Taxtapul dar-vozasi, Xo'ja Malik mahallasi, Jarariq, Baland Mas-jid, Choqar, Yangi Shahar, Shayxontahur, Guliston, 2 Turk Yangi shahar nomli joylarda (asosan, shu nomli mahalla guzarlar, karvon-saroylar bo'lishi mumkin) do'kon va do'konchalar joylashgani ma'lum va ular ham hujjatlarda, Yangi shahardagi kabi, magazin va larek deb nomlangan. Jami Eski shaharning ushbu hududida 1-U magazinlarga tegishli 24 ta bo'lim, 1-U lareklarga tegishli 16 ta bo'limda turli mahsu-lotlar bilan savdo qilingan. Ushbu do'konlarning nomlari ham joylashgan hududi, raqamlar va u yerda sotiladigan mahsulot turiga ko'ra atalgan (Bosh bozordagi I magazin - manufaktura va baqqollik, Gulbozordagi II magazin - ma-nufaktura buyumlari, Podaxonadagi V larek - baqqollik, O'rdadagi II magazin - universal)².

1930 yillarda, yangi rejaga asosan, shaharda olib bori-layotgan rekonstruksiya ishlari natijasida ayrim yirik savdo maskanlarining nomlari o'zgargan. Bunga tashkil qilingan rayonlarning nomlanishi bevosita ta'sir ko'rsatgan. Masalan, Eski Jo'ba (Bosh bozor) nomi Oktyabr bozori deb o'zgartirilgan (hududga shunday nom berilishi sabab-li), Kirov rayonidagi bozor - Kirov, Frunze rayonidagi bozor Frunze nomi bilan atalgan. Oloy, Gospitalniy bozorlarining nomlari o'zgarmagan. Beshog'och maydonidagi bo-zor Beshog'och bozori deb atalgan. Jami, manbalarda ko'rsa-tilishicha, 6 ta yirik bozor bo'lib, ularga tegishli 12 ta bozorchalar bo'lgan (1939 y.)³. Bozorchalarga esa, asosan, joy-lashgan hudud

¹ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-12-жамғармаси, 1-рўпхат. 45-йиғмажилд. 67-70-варақлар.

² Ўша жойда.

³ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-28 жамғармаси. 1-рўйхат. 5647-йиғмажилд, 85-варақ.

nomi berilgan. Stalin rayonida: Beshog'och bo-zorida - Chorsu yaqinidagi bozorcha; Oktyabr rayonida: Mol-bozor, Somonbozor; Kuybishev rayonida: Pushkin ko'chasida-gi bozor (Pushkinskiy bazar), Selmash bozori, Yangi Par-kent bozori (Novo-Parkentskiy); Lenin rayonida: Molbo-zor (Skotoprignonsh rshok), Shumilov shaharchasidagi bo-zor. Zelensh bozori (8 Mart ko'chasida); Frunze rayonida: Milisiya bozori (Askiya ko'ch.), Malo-Beshagachskaya ko'chasi-dagi yangi bozor; Kirov rayonidagi bozor shu yilda yakgi qurilayotgani bois, unga hali nom berilmagan. Katta bozor-larning hududida turli xildagi savdo punktlari faoliyat yuritib, soni 728 taga yetgan (7-jadval)¹.

7-jadval

Toshkent shahar bozorlari savdo nunktlari (1939 yil)

Nompari	Oktyabr bepori	Oloy bozori	Gospital-niy bozori	Begyo g'och boeori	Frunzenskiy bozor	Kirov-skiy bozor	Jami savd) punktlari
Davlatga tegishli savdo punktlari	145	93	18	4	4	-	264
Kolxozlarning savdo punktlari	42	20	22	7	10	-	101
Kooperativlarga tegishli	71	49	57	7	4	-	188
Artellar va yakka tartibda ishdal chikaruvchilar	36	24	96	8	-	-	164
Olib-sotarlar	3	7	1	-	-	-	11
Jami:	297	193	194	26	18	-	728

Bozorlardan tashqari, savdo qiluvchi do'kon, do'koncha, pa-latka, pavilonlar ham bo'lgan. 1940 yilda jami 2115 ta savdo punkti bo'lib, bular tarkibiga "Boshsavdo" (Glavtorg), "O'zbek-birlashuv", Mahalliy Sanoat vazirligiga tegishli va boshkd do'kon, larek, savdo palatkalari kirgan.

Urush yillarida kechgan og'ir sharoit shahar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Respublikada yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarining katta qismi front ehtiyojlari uchun jo'natilgani, urush davrida respublikada savdo uchun ayrim mahsulotlar ishlab chikarilishi kamaygani yoki umuman to'xtab qolgani sababli, Toshkentda oziq-ovqat savdosi va umumiy ov-qatlanish muassasalari faoliyati sustlashgai, shaharda olib boriluvchi savdo va, ayniqsa, chakana savdo hajmi kamaygan. Buni quyidagi raqamlarda ham kuzatish mumkin (8-jadval).²

8-jadval

¹ Ўша ҳужжат, 53-варақ.

² Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-7 жамғармаси, 2-рўйхат, 68-йиғмажилд. 11-варақ,

№	Muassasalar turi	1941 yilda	1947 yilda
1	Umumiy ovqatlanish tarmog'i-dagi muassasalar soni	1939 ta	565 ta
2	Chakana savdo tarmog'iga qarashli muassasalar soni	1898 ta	2670 ta
3	Chakana savdo aylanmasi	1234,4 mln.rub.	1081 mln.rub.
4	Umumiy ovqatlanish muassasalarida pul aylanishi	154,9 mln.rub.	151,1 mln.rub.
5	Jami chakana tovar aylanishi	1387,3 mln.rub.	1232,3 mln.rub.

1950 yillarda shahar hududida yangi rayonlarning tash-kil qilinishi, ishlab chiqarish hajmining oshishi, shahar atrofi bo'ylab o'tgan temir yo'lining yangi tarmoqlari quri-lishi, aholi sonining o'sishi bilan bog'liq holda savdo obyektlari soni ko'payib borgan. Katta bozorlar soni 11 taga yetgan. Ular quyidagicha nomlangan: Molbozor, Oktyabr bozori, Oloy bozori, Moskovskiy bozori, Beshog'och bozori, Gos-pitalniy bozori, Parkent bozori, Frunzenskiy bozori, Sentralnsh (Markaziy) bozori, Pervomayskiy bozori, Ki-rov bozori. Savdo muassasalarining boshqa turlari ham ko'paygan, xususan, 1945 yilda shaharda faoliyat yurituvchi magazin va rastalar soni 421 ta bo'lsa, 1959 yilda ularning soni 962 taga yetgan, larek va palatkalar soni 382 tadan 975 taga, ko'chib yuruvchi savdo punktlari soni 30 tadan 644 taga oshgan. Magazinar tarmog'ining kengayishi ushbu jadval ma'lumotlarida aks etgan (9-jadval)¹:

9-jadval

Muassasa turi	1956 yil	1960 yil	1961 yil
Jami magazinlar shu jumladan:	764	951	1048
Oziq-ovqat do'konlari	464	541	584
ularidan xtisoslashtirilganlari	119	143	171
Nooziq-ovqat do'konlari	246	387	418
ularidan xtisoslashtirilganlari	157	234	257
Aralash do'konlar	54	23	46

60-yillar boshida mavjud bo'lgan savdo muassasalari-ni 9 ta turga ajratish mumkin:

- 1) ma'lum turdagi oziq-ovqat sotiladigan maxsus (126 ta) va aralash turdagi magazinlar (375), jami - 501 ta;
- 2) nooziq-ovqat mahsulotlari magazinlari - 132 ta;
- 3) har turdagi mahsulotlar sotuvchi katta magazinlar - univermaglar 5 ta;

¹ Народное хозяйство города Ташкента. Статистический сборник. Т: Госстатиздат, Узбекское отделение, 1961. - С.73.

4) vositachi do'konlar (olib-sotuvchi) - 8 ta, komission magazinlar - 7 ta, o'z-o'ziga xizmat qilish tipidagi do'konlar - 3 ta, namuna bo'yicha va tovarlarni ko'rgazma qilib sotish tipidagi magazinlar - 22 tani tashkil qilgan bo'lib, jami nooziq-ovqat do'konlar soni - 467 ta;

5) aralash hisoblangan magazinlar 79 ta bo'lgan. Jami ushbu davrda 1047 ta magazin faoliyat yuritgani arxiv man-balarida qayd etiladi;

6) do'konlardan tashqari savdo palatkalarida ham turli mahsulotlar sotilgan bo'lib, ularning soni 1024 taga yetgan;

7) qurilish materiallari hamda yoqilg'i vositalari sotiladigan omborxona va maydonlar 3 ta bo'lgan;

8) shahar savdo muassasalarini tovar bilan ta'minlangan muhim 8 ta savdo bazasi;

9) va katta savdo olib boriladigan, aholi gavjum joylar hisoblangan bozorlar soni bu davrda 11 taga yetgan.

Jami savdo muassasalarining soni 2091 tani tashkil qilgan¹.

Umuman olganda, 1918-1940 yillar oralig'ida Toshkent hududida mavjud savdo obyektlarining nomlarini k\ Gtda-gi toponimik guruhlariga tasniflash mumkin: sotila[^],ia_ mahsulot turini aks etgan (Molbozor, Somonbozor), g\,alsI hududga tegishlilikini ifodalovchi (Kirov bozori, Oktyabr bozori), raqamlar bilan belgilangan (I magazin, V larek). tashkilotga tegishlilik, joylashgan hududi bilan atalgan (Pushkin bozori, Beshog'och bozori), joylashgan yeri, inshoot turi, tartib raqami va sotiladigan mahsulotlar turiga ko'ra nomlangan (Urdadagi II magazin - universal, Bosh bozordagi I magazin - manufaktura va baqqollik) toponimlar.

1950-60 yillarda faoliyat yuritgan savdo obyektlarining nomlari esa, aksari hollarda, avvalgi yillardagiga nisba-tan murakkab tuzilishga ega bo'lgan. Ushbu holat kengayib bo-rayotgan shahar hududidagi savdo muassasalarining ko'payishi, ularning ixtisoslaridagi farq hamda sotiladigan mahsulotlar turining xilmaxilligining ortishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ushbu muassasalar bilan bog'liq toponimlarda, asosan, obyektning tartib raqami, joylashgan rayoni, ko'chasi, savdo muassasasida sotiladigan tovarlar turi, obyektning ixtisoslashuvi aks etgan (Univermag, Cherdansev ko'chasidagi 101-sonli non mahsulotlari do'koni, Oktyabr bo-zoridagi 131-sonli non mahsulotlari do'koni, 1-sonli gastro-nom, 5-kitob do'koni, Xdrbiylar do'koni, 23-sonli oziq-ov-qat do'koni, 3-sonli galanteriya do'koni, 18-sonli optika ma-gazini, Pervomayskiy bozori).

O'rganilayotgan davrda aholiga **maishiy** xizmat ko'rsa-tish sohalarida ham sovet hukumati tomonidan yangi tizim vujudga keltirilib, ularni boshqarish bo'yicha maxsus organlar tuzilgan. Toshkent shahrida mazkur tizim tashkilotlari Ijroiya qo'mita qoshidagi Kommunal xo'jalik bo'limi va uning bo'linmalari tasarrufida bo'lgan. Bu haqqa arxiv hujjatlarida ma'lumotlar mavjud. Masalan, 1922 yilda Kommunal xo'jalik bo'. shmi nazoratidagi 29 ta korxona va tashkilotdan 6 ta hammom, kir yuvish muassasasi hamda shahar vodoprovodi maishiy xizmatga tarmog'iga tegishlidir. 1923-1924 yillarda esa Kommunal

¹ Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-7 jam'armasi. 1-руйхат. 191-йиғмажилд. 15, 26-варақлар.

xo'jalik bo'limi tasar-rufidagi 61 ta xo'jalik obyektidan (zavod, tegirmon, us-taxona, fabrikalar) 7 ta hammom hamda 1 ta kirish yuvish muassasasi, transport vositalari hamda chiqindilar olib chiquvchi moslamalar mazkur tizimga taalluqli hisoblan-gan. Bunday muassasalarning nomlari ularning faoliyatini hamda tartib raqamini o'zida aks ettirgan (1-tegirmon, 5-hammom). Shuningdek, ushbu tizimga shaharning sanitar hola-tini nazorat qiluvchilarni ham kiritish mumkin, ular har bir rayonda 3-5 kishidan taqsimlangan, umumiy tarzda shahar hududi №1 - № 15 tagacha shunday sanitarlar nazo-rat qilgan rayonlarga ajratilgan, ushbu rayonlar tarti-biga ko'ra raqamlar bilan belgilangan.

Shahar hududining kengayib, aholi sonining ortib borishi, undagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotning rivojlanishi, qolaversa, Toshkent shahrining poytaxt sifatida e'tirof etili-shi bois maishiy xizmat hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlarini takomillashtirish talabi tobora ortib borgan. 1930 yillarda sha-harda yana bir nechta mehmonxona, ovqatlanish muassasalari, ham-momlar barpo qilinib, vodoprovod, kanalizasiya o'tkazish ishla-ri ko'lami kengaytirilgan, yo'llar va ko'priklar qurish ishlari olib borilib, ularga bo'lgan talablar ham oshgan.

Ikinchi jahon urushi yillari va urushdan keyingi xo'ja-likni tiklash davrida Toshkentda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasi ma'lum rejalarga ko'ra ish olib borgan. Ushbu soha xizmatchilari tomonidan kiyim, poyabzal tikish va ta'mirlash, mebel, gilam, uy-ro'zg'or texnikasi, chinni idishlar, metall buyumlarni ta'mirlash, shuningdek, sar-taroshxona, suratxona, avtomobil yuvish joylari, kitoblar-ni muqovalash, hujjatlardan nusxa olish ishlari amalga oshirilgan. 1960 yillargacha aholiga maishiy xizmat ko'rsa-tish sohasi Mahalliy sanoat boshqarmasi tomonidan boshqa-rilgan, biroq ularning ayrimlari yana bir nechta boshqarma-ga tegishli bo'lgan. 1958-1961 yillarda Toshkent shahrida quyidagi tur maishiy tashkilot va punktlar bo'lgani huj-jatlarda qayd etilgan (10-jadval)¹:

10-jadval

Toshkent shaqri qududidagi maishiy xizmat ko'rsatuvchi korxona va punktlar soni

Muassasa va punktlar	1958 y.	1959 y.	1960 y.	1961 y.
Mahalliy sanoat (jami) shu jumladan:	595	601	820	904
Poyabzal tikish va ta'mirlash	33	33	76	77
Shaxsiy buyurtma bo'yicha kiyim tikish va ta'mirlash	42	42	51	49
Metall buyumlar va soat tuzatish	90	96	118	148
Mebel ta'mirlash va buyurtma tayyorlash	9	5	17	18
Ximchistka va qabul punktlari	23	23	26	31
Buyurtma va ta'mirlashning boshqa turlari	26	26	32	20
Suratxona	25	26	33	44

¹ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-7 жамғармаси, 2-рўйхат. 104-йиғмажилд, 145-варақ.

Sartaroshxona	98	98	173	195
Poyabzal tozalash	237	237	274	307
Boshqa turdagi notovar xizmatlar	12	15	15	15
Savdo ministrligi:				
Kiyim tikish atelyesi	3	3	3	3
Prokat nunktlari	—	2	4	5
Hammomlar tresti (Gosbantrest):				1
Sartaroshxonalar	24	24	26	29
Harbiy savdo (Voyentorg):				
Ximchistka	1	1	1	1
Tikuv ustaxonalari	1	1	3	3
Poyabzal tikish va tuzatish	1	1	1	1
Poyabzal mayda ta'miri	2	2	2	—
Sartaroshxonalar	2	2	2	2
Suratxonalar	1	1	1	1
Temir yo'l:				
Tikuvchilik ustaxonalari	2	2	2	2
Radio va soat tuzatish	1	1	1	1
Boshqalar				
Xalq xo'jaligi sovetlari (S ovnarxoz):				
Shaxsiy buyurtma bo'yicha kiyim tikish	2	2	2	2
Poyabzal ta'mirlash	2	2	2	2
Sartaroshxona	2	2	2	2
Suratxona	1	1	1	1
Trikotaj atelyesi	1	1	1	1
Poyabzal atelyesi	1	1	1	1
J a m i :	642	650	875	963

Jami, 1961 yilda sartaroshxona 128 ta, suratxona 46 ta, kiyim tikish hamda ta'mirlash ustaxona va atelyesi 60 ta, poyabzal tikish va tuzatish 82 ta. poyabzal tozalash 307 ta, ximchistka 1 ta, metall buyumlar, radio va soat tuzatish ustaxonasi 149 ta, mebel tuzatish 18 ta, boshqa xizmatlar 42 ta bo'lgan.

1.3. Ijtimoiy va madaniy obyektlarning nomlari

1918-1960 yillarda Toshkent shahrining ma'muriy-hududiy tuzilishi hamda iqtisodiy rivojida kabi, uning ijtimoiy hayotida ham keskin o'zgarishlar ro'y bergan. Jumladan, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, ijtimoiy himoya tizimlari sovet davlati siyosatiga muvofiq tarzda yangidan tuzila boshlagan va mazkur jarayon

ushbu yo'na-lishdagi joy nomlarining tarkibiy o'zgarishlarida ham o'z aksini topgan.

Ta'lim-tarbiya tizimini oladigan bo'lsak, 1917 yillarga qadar rus mustamlakachiligi davrida faoliyat yuritgan ta'-lim maskanlari sovet hukumati tomonidan yopilib, ularning o'rnida, shuningdek, ijaraga olingan boshqa tashkilotlar binolarida, yangi o'rnatilayotgan tizim va uning mafkurasiga mos bo'lgan maorif hamda ijtimoiy tarbiya muassasalari tash-kil qilingan. Ta'lim-tarbiya tizimi I va II bosqich maktabi, katta yoshdagi aholiga ta'lim beruvchi maktab va kurslar, kasb-hunar bilim yurti, oliy o'quv yurtlari, bolalar hamda go'dak-lar uyi, bolalar majmuasi (detskiye ochagi), nuqsonli bola-lar koloniyalari kabi muassasalardan tarkib topgan .

1922 yilgi hujjatda 42 ta maktab nomi keltirilgan¹ (11-jadval).

11-jadval

Maktab nomi	Muassasalar soni	Pedagoglar soni	O'quvchilar soni
I bosqich maktablari			
Belinskiy nomidagi maktab	1	4	160
Dostoyevskiy nomidaga maktab	3	13	440
K.Marks nomidagi maktab	3	13	440
Pestalossi nomidagi maktab	2	9	280
Prjevalskiy nomidagi maktab	1	4	160
Pushkin nomidagi maktab	2	9	280
Tolstoy nomidagi maktab	2	9	280
Turgenev nomidagi maktab	2	9	280
Chexov nomidaga maktab	2	9	280
1-sonli o'zbek maktabi	1	4	160
2-sonli o'zbek maktabi	1	4	160
MAPU 1-sonli yahudii maktabi	1	4	160
2-sonli yahudiy Aleyxem maktabi		7	240
Vaxidov nomidagi 1-sonli tatar maktabi	2	9	280
1-sonli aralash maktab	1	3	80
1-sonli arman maktabi	1	4	160
K.Libknext tajriba-namunaviy maktab	2	16	280
1-sonli nemis maktabi	1	2	80
Yunon fuqarolari ittifoqi maktabi	1	2	80

¹ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-10 жамғармаси. 1-рўйхат. 339-йиғмажилд, 229-варак

Metallchilar ittifoqi maktabi	2	9	280
To'qimachilar ittifoqi maktabi	2	9	280
Sovet ishchilari ittifoqi maktabi	2	9	280
Poltoraskiy kasalxonasi jamoasi maktabi	1	2	80
Jami:	36	159	5200
II bosqich maktablari			
Krshov nomidagi maktab	1	12	120
Lunacharskiy nomidagi maktab	1	12	120
Pestalossi nomidagi maktab	1	14	120
Prjevalsskiy nomidagi maktab	1	14	120
Chexov nomidagi maktab	1	14	120
Birlashtirilgan tajriba-namunaviy maktaop	1	12	120
Jami:	7	78	720

Kattalar uchun tashkil qilingan maktablar soni 16 ta bo'lib, ularning kunduzgi hamda kechki kurslari bo'lgan. Ayni vaqtda, ta'lim tizimida turli millat vakillari uchun ochilgan bir qancha boshlang'ich maktablar, bolalar uylari qoshida tashkil qilingan maktablar, voyaga yetmagan huquqbuzarlar komissiyasiga tegishli muassasalar, o'rta maxsus ta'lim beruvchi internlar ham bo'lgan.

Toshkent shahri hududida 1922 yili turli maktablar soni 61 ta, o'rta maxsus ta'lim muassasalari soni 19 taga yetib, jami 80 ta o'rta va o'rta maxsus ta'lim dargohi fao-liyat yuritgan.

20-yillarda faoliyat yuritgan maktablarning nomlari tarkibida antropotoponimlar, o'rta maxsus ta'lim muassa-salarining nomlarida esa ixtisoslikni aks ettiruvchi toponimlar salmog'i yuqori, shuningdek, etnotoponim, raqam-lar, muassasa tegishli bo'lgan hudud, jamoa nomini bildi-ruvchi toponimlar mavjud,

1930 yillarda shahar aholisining ortib borishi bilan bog'liq holda maktablar soni ko'paygan. Xususan, 1932 yil-da 107 ta maktab bo'lgani ma'lum. Ularda, asosan, rus, o'zbek tillarida ta'lim berilgan, shuningdek, mahalliy yahudiy, tatar, uyg'ur, ozarbayjon tillarida o'qitilgan maktablar ham faoliyat yuritgan. O'qish, asosan, uch smenada olib borilgan. Arxiv hujjatlarida ushbu muassasalarning nomla-ri hamda joylashuviga doir ma'lumotlar uchraydi¹. Bu davr-dagi maktablar nomlanishida, albatta, tartib raqami ko'rsa-tilgan. Raqam bilan birga shaxsga yoki biror tarixiy voqye-likka atalgan so'zlardan tashkil topgan toponimlar salmog'i yuqori bo'lgan (1-sonli Belinskiy nomidagi matkab, 13-sonli 26 Komissar

¹ Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-7 жамғармаси. 2-руйхат. 9-йиғмажилд, 221-224-варақлар. Русчадан таржима қилинди.

nomidagi maktab, 20-sonli Platon nomidagi maktab, 27-sonli Oxunboboyev nomidagi maktab), ba'zi hollarda muassasa joylashgan hudud yoki o'quvchilar tarkibiga tegishli ma'lumotni beruvchi nomlar uchragan (37-sonli Turon maktabi, 43-sonli Seleksiya stansiyasi makta-bi, 49-sonli Ishchilar shaharchasidagi maktab, 68-sonli Sharq maktabi, Ko'rlar maktabi), shuningdek, etnotoponim ko'rinishidagi yoki madaniy-ma'naviy hayot bilan bog'liq holda ham nomlar berilgan (86-sonli uyg'ur maktabi, 38-sonli Bilim maktabi, 17-sonli O'rnak maktabi, 47-sonli Umid maktabi).

Mazkur davrda quyidagi turdagi maktablar faoliyat yuritgan: boshlang'ich (1937 yilda ularning soni 34 ta bo'lgan), to'liqsiz o'rta (62 ta), o'rta (54 ta), jami - 145 ta, shuningdek, temir yo'lchilarga tegishli 4 ta to'liqsiz o'rta va 8 ta o'rta maktab. Ta'lim berilishda o'smirlar va kattalar uchun alohida muassasalar tashkil qilingan. Jumladan, maktablar qoshida yoki mustaqil tarzda o'smirlar maktablari tashkil qilingan bo'lib, 1937 yili ularning soni 27 taga yetgan. Kattalar uchun maktablar esa bu davrda 34 ta bo'lib, ular ham mustaqil muassasa bo'lgan yoki o'rta maktablar qoshida tashkil qilingan va bu holat muassasaning nomlanishida aks etgan. Xususan, o'smirlar va kattalar uchun maktablar-ning nomlari, asosan, raqamlar ko'rinishida bo'lgan yoki biriktirilgan maktab tartib raqami qoshidaligini ifoda etgan (14-sonli kattalar maktabi, 71-maktab qoshidagi kat-talar maktabi, 108-maktab qoshidagi 2-sonli o'smirlar mak-tabi, 6-maktab qoshidagi o'smirlar maktabi)¹.

Ta'lim-tarbiya tizimida maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalarini ham qayd etish lozim. Bular tarkibiga bo-lalar bog'chalari hamda yaslilar kiradi.

1937 yilgi hujjatda ta'kidlanishicha, Toshkentda ushbu davrda jami 143 ta bolalar bog'chasi bo'lgan, ulardan 63 tasi maorif bo'limi, 1 tasi kolxoz va qolgan 79 tasi turli muassasalarga tegishli bog'chalar². Bog'chalarning barchasi tar-tib raqamlari bilan belgilangan (32-sonli bolalar bog'cha-si, 118-sonli bolalar bog'chasi), ba'zi hollarda aniqlik kiritish maqsadida tartib raqami bilan birga bog'cha te-gishli bo'lgan muassasa nomi ham qayd etilgan.

Xususan, 1941 yilda quyidagi yaslilar faoliyat yuritgan³: Lenin rayonida: 1, 2, 3, 4, 6, 7, 8, 20, 24, 36, 43, 49, 66-sonli yaslilar, Aeroport yaslisi.

Kuybishev rayonida: 9, 10, 13, 14, 15, 17, 18, 19, 21, 22, 23, 25, 50, 51, 52, 55, 56, 61, 65, 70, 71-sonli yaslilar.

Kirov rayonida: 11, 12, 16, 28, 30, 41, 48, 52, 57, 68-sonli yaslilar, G'isht zavodi yaslisi, Partkurslar yaslisi.

Frunze rayonida: 32, 33, 59-sonli yaslilar.

Oktyabr rayonida: 26, 27, 29, 37, 44, 46, 63-sonli yaslilar.

Stalin rayonida: 31, 34, 35, 42, 45, 54, 58, 69-sonli chslilar, Arpapoyadagi yasli. Jami - 66 ta yasli.

¹ Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-28 жамғармаси. 1-рўйхат. 6995-йиғмажилд, 1-11-варақлар

² Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-28 жамғармаси, 1-рўйхат, 6916-йиғмажилд, 1-2-варақлар.

³ Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-7 жамғармаси, 2-рўйхат, 47-йиғмажилд, 22-варақ.

Yaslilar ham, bolalar bog'chalari kabi, aksariyat hol-rda tartib raqamlari bilan, ba'zida muassasa tegishli oo'lgan tashkilot yoki u joylashgan hududning nomi bilan atalgan (54-yasli, Aeroport yaslisi, Arpapoyadagi yasli).

1930 yillarda ta'lim tizimida maxsus ta'lim beruvchi bilim yurtlari va oliy o'quv yurtlari bo'lgan. Ularda guma-nitar va iqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha ta'lim berilib, kunduzgi va kechki shaklda o'qitish tizimi tashkil qilin-gan. Quyida ushbu muassasalarning nomlari va joylashgan hududiga doir ro'yxat keltiriladi (1936 y.)¹:

Oliy o'quv yurtlari:

1. Kunduzgi Pedagogik institut (Beshog'och, 6)
2. Kechki ped.institut (Poligraficheskaya ko'ch.)
3. O'qituvchilar instituti (Bnshog'och, 6)
4. Tibbiyot instituti (Karl Marks ko'ch., 109)
5. Farmasevtika instituti (Karl Marks ko'ch.)
6. Sovet huquqi o'qituvchilari instituti (Shayxontahur)
7. Konservatoriya (Baynalmilal ko'ch, 3)
8. Urta Osiyo Davlat instituti (Karl Marks, 4)
9. Industrial (sanoat) instituti (Asaka ko'ch., 16)
- 10 To'qimachilik instituti (To'qimachilik kombinatining sos.shaharchasi)
11. SAZIIT (1-go may Ishchilar shaharchasi)
12. Toshkent moliya-iqtisod instituti (8-Arpapoya, 91)
13. Qishloq xo'jaligi instituti (Gogolevskaya ko'ch., 49)
14. Irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash instituti (Novo-uchitelskaya ko'ch., 16)
15. Marksizm-leninizm instituti (Engels qo'ch., 61)
16. Sanoat akademiyasi (To'qimachilik kombinatining sos-.shahyarchasi).

Texnikumlar:

1. Selmash texnikumi (2-ya Klinicheskaya, 2)
2. ShUNXU texnikumi (4-Arpapoya, 5/7)
3. Hisob-kitob ishi iqtisodiy texnikumi (Z-Qiyot-Yangi-shahar, 124)
4. To'qimachilik texnikumi (Kuybishskaya ko'ch., 12)
5. Aloqa texnikumi (1-ya Gaichetepa, 63)
6. Topografik texnikum (Shahrisabz ko'ch., 5)
7. Qurilish-yo'llar texnikumi (Lunacharskoye shosse, 49)
8. Elektro-mexanika texnikumi (Proletarskaya ko'ch., 67)
9. O'simliklarni himoya qilish texnikumi (Taxtapul ko'ch., 10)
10. Irrigasiya texnikumi (Lunacharskoye shosse, 21)
11. O'quv ishlab chiqarish texnikumi (Unshlixt ko'ch.)
12. Mahalliy sanoat texnikumi (Hamza ko'ch., 3)
13. Industrial (sanoat) texnikumi (Proletarskaya ko'ch. 36)
14. Musiqqa bilim yurti (Chaqarko'cha, 66)
15. Tasviriy san'at bilim yurti (Navoiy, (Shayxontahur))
16. Estrada-sirk bilim yurti (Shatak, 124)

¹ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-28 жамғармаси. 1-рўйхат. 6913-йиғмажилд. 13-14 вараклар.

17. Laxutiy nomli Teatral bilim yurti (Balandmasjid, 146)
18. Jismoniy tarbiya texnikumi (Frunze ko'ch., 60)
19. Pedagogika bilim yurti (Narimanov ko'ch.)
20. Lenin nomli 1-sonli bilim yurti (Bolshevik ko'ch., 179).
21. Kaz.pedbilimyurti (Chervanovskaya ko'ch., 2)
22. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachilari pedago-gik.bilim yurti (Bolshevik ko'ch., 6)
23. Kechki pedagogik bilim yurti (Dmitrov ko'ch., 83)
24. Akusherlik maktabi (Qashg'ar ko'ch., 121)
25. Feldsherlik maktabi (Taxtapul, Ishchilar shahar-chasi, Sovetskaya ko'ch., 1)
26. Biblioteka texnikumi (Uchqun ko'ch.)
27. Moliya-iqtisod texnikumi (Sverdlova, 28)
28. Gazeta maktabi (Leningradskaya, 27)
29. O'rta Osiyo Tibbiy o'quv kombinati (Taxtapul, Sovet-skaya ko'ch., 1)
30. Bolalar musiqa maktabi (KMarks ko'ch., 19).

1960 yil boshlarida 220 ta maktabdan 169 tasi umumta'lim, 42 tasi ishlovchi yoshlar maktablari bo'lib, umumta'lim mak-tablari tarkibida, shuningdek, 26 ta ishlab chiqarishga yo'nal-tirilgan maktab va 4 ta maktab-internat bo'lgan¹ (ba'zi tadqi-qotlarda texnikumlar 33 ta, oliy o'quv yurtlari 16 ta deb ko'rsatilgan²). Maorif tizimida, shuningdek, 24 ta texnikum, 17 ta (18) oliy o'quv yurti bo'lgan³. Ularning nomlari o'quv yo'nalishi va tartib raqamlar bilan bog'liq holda qo'yilgan⁴.

Ta'lim tizimining yuqori bosqichi sanalgan oliy o'quv yurtlari soni 1961 yilda 18 tani tashkil qilgan, ular quyi-dagilar:

1. Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika instituti.
2. Toshkent politexnika instituti.
3. Toshkent temir yo'l transporti muhandislari instituti.
4. Lenin nomli Toshkent Davlat universiteti.
5. Toshkent qishloq ho'jaligini mexanizasiyalash va irrigasiya muhandislari instituti.
6. Toshkent qishloq xo'jaligi instituti.
7. Toshkent tibbiyot instituti.
8. Toshkent moliya-iqtisodiyot instituti.
9. Toshkent to'qimachilik instituti.
10. Toshkent davlat xorijiy tillar pedagogika instituti.
11. Toshkent aloqa elektrotexnika instituti.
12. V.X.Belinskiy nomidagi Toshkent Davlat kechki pedago gika instituti.
13. Toshkent farmasevtika instituti.
14. Uzbek Davlat jismoniy tarbiya instituti.

¹ Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-7 jam'armasi. 2-ru'yhat. 19-iyfmaжилд, 42-варақ

² Гуламов Р., Зайко Г., Зотов А. и др. Ташкент. Краткий справочник. - Т. 1958. - С.89.

³ Города Узбекистана Сост.Кейзер СИ. - Т: Госиздат УзССР., 1964. - С.12.

⁴ Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-7 jam'armasi. 2-ru'yhat. 148-iyfmaжилд, 42-варақ.

15. Toshkent partiya oliy maktabi.
16. Toshkent Davlat konservatoriyasi.
17. A.N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent Davlat teatral-badiiy instituti.
18. Umumittifoq savdo institutining Toshkent sirtqi bo'limi.

Ma'rifiy muassasalar bilan bog'liq toponimlarni 6 ta guruhga bo'lish mumkin: tartib raqami va shaxs ismi bilan atalgan (asosan, maktablarga xos, masalan, Hamza nomli 65-maktab), tartib raqami va muassasa turini ko'rsatuvchi (34-sonli bolalar uyi, 51-sonli bolalar bog'chasi), muassasa tu-rini ko'rsatuvchi (o'rta, to'liqsiz o'rta, o'smirlar, kattalar uchun, ishchi yoshlar, texnikum, institut) va ta'lim ixtisos-ligini ifodalovchi so'zlardan tarkib topgan (O'rmon makta-bi, Maktabgacha ta'lim kunduzgi pedagogika bilim yurti, Pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti), muassasa turi va hududiy mansublikni aks ettiruvchi (Sirtqi ta'lim bo'yicha Respublika metodik kabineti, Markaziy rayon Xalq ta'li-mi bo'limi, Toshkent Davlat konservatoriyasi) antropotopo-nimlar hamda muassasa turi va ixtisosligini anglatuvchi nomlar (Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika instituti).

Ma'rifiy muassasalar qatorida 1920 yillardan bosh-lab Toshkent shahrida bir qator **ilmiy** muassasalar ochil-gan. Ular orasida qishloq xo'jaligining turli tarmoqla-rini rivojlantirishga xizmat qiluvchi institutlar sal-mog'i yuqori bo'lgan. Keyingi navbatda tibbiy soha, so'ng geo-logiya sohalariga oid muassasalar turadi. Ilmiy muasssa-salar bilan bog'liq nomlar arxiv manbalarida statistik turdagi hujjatlarda ham uchraydi. Jumladan, 1940 yilgi ro'yxatga ko'ra Toshkentda 50 ta ilmiy-tadqiqot muassasasi faoliyat yuritgan¹. Ular ikki xil - ittifoqqa bo'ysunuv-chi hamda respublikaga bo'ysunuvchi muassasalarga bo'lingan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra ittifoqqa bo'ysunuvchi mu-assasalarda 1942 ta xodim faoliyat yuritgan bo'lsa, ulardan 481 tasi ilmiy xodim (763 tasi ayollar bo'lgan). Respublika-ga bo'ysunuvchi muassasalarda esa 2740 xodim bo'lib, ular-dan 536 tasi ilmiy xodim (1495 tasi ayollar), jami ikkala turdagi ilmiy-tadqiqot muassasasida 4848 ta ishchi faoliyat yurttib. ulardan 1014 tasi ilmiy xodim bo'lgan. Quyida mazkur ro'yxatdagi muassasalarning nomlari keltiriladi:

Ittifoqqa bo'ysunuvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari:

1. Paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti.
2. O'g'itlar va tuproqshunoslik markaziy stansiyasi.
3. O'simliklarni himoya qilish markaziy stansiyasi.
4. Markaziy seleksion stansiya.
5. Oqqovoq agrotexnika markaziy stansiyasi.
6. Mexanizasiyalash va agrotexnika marqaziy stansiyasi
7. Solonchaklar tajribasi bo'yicha meliorativ markaziy stansiya.
8. "Kirda" elita xo'jaligi.
9. Kauchuklilar bo'yicha ilmiy-tadqiqot instituti.
10. Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti.
11. Irrigasiya ilmiy-tadqiqot instituti.

¹ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-28 жамғарма, 1-рўйхат. 6917 йиғ-мажилд, 65-варақ Руйхатдаги номлар русчадан таржима килинди.

12. O'rta Osiyo o'simliklarni himoya qilish stansiyasi.
13. O'rta Osiyo VIR tajribasi stansiyasi.
14. Paxta sanoati ilmiy-tadqiqot instituti.
15. Geofizika observatoriyasi.
16. Fanlar akademiyasining O'zbekiston filiali.
17. Suv xo'jaligi muammolari ilmiy-tadqiqot instituti.
18. Fizika-texnika laboratoriyasi.
19. Astronomik observatoriya.
20. Kimyo ilmiy-tadqiqot instituti.
21. Botanika ilmiy-tadqiqot instituti.
22. Geologiya ilmiy-tadqiqot instituti.

Respublikaga bo'ysunuvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari:

1. Ipakchilik sanoati ilmiy-tadqiqot instituti.
2. Oziq-ovqat ilmiy-tadqiqot instituti.
3. Chorvachilik ilmiy-tadqiqot instituti.
4. Qumlar va agro-o'rmon-meliorasiya tajriba stansiyasi.
5. Sabzavot tajriba stansiyasi.
6. Shreder nomli Mevachilik xo'jaligi tajriba stansiyasi
7. Markaziy Arxiv boshqarmasi.
8. Tarixiy-inqilobiy muzey.
9. Tabiat muzeyi.
10. Markaziy politexnika muzeyi.
11. Dinga qarshi markaziy muzey.
12. SAGU Botanika bog'i.
13. Maktablar ilmiy-tadqiqot instituti.
14. Davlat ommaviy kutubxonasi.
15. San'at muzeyi.
16. Veterinariya tajriba tadqiqot stansiyasi.
17. Venerologiya va dermatologiya ilmiy instituti. •
18. Mehnat va kasb kasalliklari ilmiy-tadqiqot instituti
19. Sanitariya va gigiyena ilmiy-tadqiqot instituti.
20. Tuberkulez kasalligi ilmiy-tadqiqot instituti.
21. Onalik va bolalikni himoya qilish ilmiy-tadqiqot instituti.
22. Fizioterapiya va kurortshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti.
23. Epidemiya va mikrobiologiya ilmiy-tadqiqot instituti.
24. Eksperimental medisina ilmiy-tadqiqot instituti.
25. Onkologiya instituti.
26. K,on quyish ilmiy-tadqiqot instituti.
27. Zoologiya bog'i ilmiy-tadqiqot instituti.
28. O'zbekiston Kompartiyasi ilmiy-tadqiqot instituti Urush yillari va undan keyingi davrda shaharda ilmiy tashki-

lotlar soni ko'paygan 1943 yili Fan.lar akademiyasi tashkil qilin-gan va 1957 yidda uning tarkibida 36 ta ilmiy-tekshirish muassa-sasi *fevuliyat* yuritgan¹. Shahardagi ilmiy tashkilotlar soni o'si-shini kuyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin (12-jadval):

12-jadval

Ilmiy muassasalar soni²

1940 yil	42 ta	1959 yil	68 ta
1950 yil	44 ta	1960 yil	71 ta
1958 yil	58 ta	1961 yil	69 ta

Ilmiy-tadqiqot muassasasi nomida tashkilotning ixti-soslik yo'nalishi hamda turi aks etgan (Paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti, Venerologiya va dermatologiya ilmiy instituti, Sanitariya va gigiyena kasalligi ilmiy-tadqi-qot instituti, Zoologiya bog'i ilmiy-tadqiqot instituti, Maktablar ilmiy-tadqiqot instituti). Ro'yxatda keltirigan toponimlarga ko'ra ilmiy-tadqiqot muassasalari nafa-qat institutlarda, balki boshqa turdagi muassasalar, ya'ni tajriba stansiyasi, bog', tashkilot, muzeylarda ham ilmiy bo'lim sifatida faoliyat yuritgan (SAGU Botanika bog'i, San'at muzeyi, Markaziy arxiv boshqarmasi, "Kirda" eli-ta xo'jaligi, Markaziy seleksion stansiya).

Tadqiq etilayotgan davrda Toshkent shahridagi mavjud tibbiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalar soni ortib, ularning tar-kibi kengaygan, takomillashgan, hududlar bo'yichajoylashish zichligi ham o'sgan. Bu omillarning barchasi tibbiy obyektlar-ning nomlarida o'z aksini topgan.

1920 yillar boshida mavjud tibbiy muassasalar - shi-foxona, ambulatoriya, tug'uruqxona, dorixonalar sharo-itini yaxshilash maqsadida, ular ta'mirlangan. Yangi tash-kil qilingan tibbiy punktlar esa, asosan, ijaraga olin-gan yoki davlat tasarrufiga o'tkazilgan binolarda joylash-tirilgan. Ular tibbiy soha talablariga javob bermaganli-gi sababli bir qator muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Tibbiy muassasalar Toshkent shahar Ijroiya qo'mi-tasi tomonidan nazorat qilingan. Xususan, manbalarda 1922 yilda Toshkentning Yangi shahar qismida mavjud bo'lgan quyi-dagi 30 ta tibbiy va tibbiy xizmatga oid muassasa nomi uchraydi³:

1. Shahar kasalxonasi.
2. Xirurgiya kasalxonasi.
3. Toshkent shahar ruhiy kasalliklar shifoxonasi.
4. Tug'ruqxona.
5. Bolalar kasalxonasi.
6. 1-sonli ambulatoriya.
7. 2-sonli ambulatoriya.
8. 8-sonli ambulatoriya.
9. 9-sonli ambulatoriya
10. Tez yordam punkti va Santransport.

¹ Гулямов Р., Зайко Г., Зотов А. и др. Ташкент.... кўрс.асар, 90-6.

² Народное хозяйство города Ташкента. Стат. сборник. - Т: Госстат-издат. Узбекское отделение, 1961. - С.73.

³ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-12 жамғармаси. 1-рўйхат, 274-йиғмажилд, 34-варақ; Ф-30-жамғармаси. 1-рўйхат, 113-йиғмажилд, 3-4-варақлар. Номлар русчадан таржима килинди.

11. Toshkent shahar sanitariya nazorati.
12. Rayon tibbiy yordami.
13. Milisiya qoshidagi shifokor punkti. 14 Maslahatxona.
15. 1-sonli dorixona.
16. 2-sonli dorixona.
17. 3-sonli dorixona.
18. Buyumlar skladi.
19. Oziq-ovqat skladi.
20. Dezotryad.
21. Dezokamera.
22. O'lka pasterovskaya stansiyasi va kasalxonasi.
23. O'lka kimyo laboratoriyasi.
24. O'lka mikrobiologiya laboratoriyasi.
25. 1-sonli yasli.
26. 2-sonli yasli.
27. Ona va bola uyi.
28. 1-sonli Qizil go'dak uyi.
29. 2-sonli Qizil go'dak uyi.
30. 1-sonli Kichik kommunarlar uyi.

1924 yilda Eski shahar ijroiya qo'mitasi Sog'lomlashti-rish bo'limining tasarrufiga quyidagi 4 ta muassasa: Eski shahar kasalxonasi, Akusher-ginekologik kasalxona, Eski shahar 1-sonli ambulatoriya, Eski shahar 2-sonli ambula-toriyasi, Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish muassasasi ki-ritilgan bo'lib¹, 1928 yilda esa ularning soni 39 taga yetgan² (13-jadval):

13-jadval

Eski shaqar Sog'lomlashtirish bo'limi tasarrufidagi tibbiy muassasalar

№	Muassasa nomi	Joylashgan hududi	Joylashgan mahalla nomi
1.	Eski shaxdr kasalxonasi	Sebzor dahasi	Cho'ponbozor
2.	Akusher-ginekolo-giya kasalxonasi	Shayxontahur dahasi	I Olmazor
3.	Epidemiologik shifoxona	Ko'kcha dahasi	II Qushtut
4.	1-sonli ambulatoriya	Shayxontahur dah	II Olmazor
5.	2-sonli ambulatoriya	Beshog'och dahasi	III Arpapoya
6.	3-sonli ambulatoriya	Sebzor dahasi	III Kohota

¹ Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-12 жамғармаси, 1-рўйхат, 207-йиғмажилд, 76-77-варақлар.

² Toshkent shahar Davlat arxivi. Ф-12 жамғармаси, 1-рўйхат, 556-йиғмажилд, 15-16-варақлар.

7.	4-sonli ambulatoriya	Ko'kcha dahasi	Podaxona
8.	5-sonli ambulatoriya	Sebzor dahasi	Eski shahar kasalxonasi qoshida
9.	6-sonli ambulatoriya	-	-
10.	Oblpedtexnikum qoshidagi ambulatoriya	Shayxontahur d.	5-Mergancha
11.	Narimanov nomli pedtexnikum qoshidagi ambulatoriya	Shayxontahur dahasi	Shayxontahur masjidi
12.	Kooperasiya texnikumi qoshidagi ambulatoriya	Shayxontahur dahasi	Shayxontahur masjidi
13.	Sag'bon Oqtepa feldsherlik punkti	Ko'kcha dahasi	Sag'von Oqtepa
14.	Seleksion stansiya qoshidagi feldsherlik punkti	Shayxontahur dahasi	Seleksion stansiya
15.	Tubdispanser	Shayxonatahur d.	Sho'rtepa-Degrez
16.	Vendispanser	Shayxontahur d.	II Olmazor
17.	Maktab dispanseri	Shayxontahur d.	Xo'ja Ro'shnoiy
18.	Tropik stansiya	Shayxontahur d.	Zanjirlik
19.	Tish texniklari laboratoriyasi	Sebzor dahasi	3-ambulatoriya qoshida
20.	Tez tibbiy yordam punkti	Sebzor dahasi	Eski sh. kasalxon. qosh.
21.	Sudmedchast	Sebzor dahasi	Eski sh.kasalx. yonida
22.	Uyda yordam ko'rsatish rayon xizmati	-	Rayon ambulatoriyalari qosh.
23.	Eski shahar kasalxonasi qoshidagi laboratoriya	Sebzor dahasi	Eski shahar kasalxonasi
24.	Bolalar uchun 1-maslahatxona	xontahur dahasi	Xadra
25.	Bolalar uchun 2-sonli maslahatxona	Sebzor dahasi	1-Sebzor 3-ambul. qoshida
26.	Ayollar maslahatxonasi	Ko'kcha dahasi	Kesak-qo'rg'on
27.	Yasli	Shayxontahur d.	Xadra
28.	Zaiflashgan bolalar uyi	Beshog'och dahasi	-
29.	Ona va go'dakni asrash instituti	Shayxontahur d.	O'rda
30.	Sannadzor va dezotryad	Sebzor dahasi	Cho'ponbozor

31.	Sanmaorif uyi	Sebzor dahasi	Cho'ponbozor
32.	Ospaga qarshi emlash	Sebzor dahasi	Cho'ponbozor
33.	7-sonli ambulatoriya	Beshog'och dahasi	Samarqand darboza
34.	Mavsumiy ambulatoriya	Ko'kcha dahasi	Chig'atoy Oqtepa
35.	Mavsumiy ambulatoriya	Sebzor dahasi	Yunusobod
36.	Ipakchilik (grenajern.) zavodi qoshidagi yasli	Beshog'och dahasi	
37.	Quyoshda davolash muassasasi	Shayxontahur d.	Orqako'cha
38.	Shahar qo'shxonasi qoshidagi birinchi yordam	Beshog'och dahasi	Shahar qo'shxonasi
39.	Bolalar uchun 3-sonli maslahatxona	Beshog'och dahasi	Mirzag'oz

Mazkur tibbiy muassasalarning nomlarida obyekt yasoylashgan hudud, tibbiy xizmat turi hamda tartib rakami aks etgan (Eski shahar tibbiy bo'limi. Eski shahar kasalxonasi, Shahar kasalxonasi (Yangi shahar-da), Jarrohlik shifoxonasi, Tug'uruqxona, 8-sonli ambulatoriya, 3-sonli apteka, Toshkent shahar sanita-riya nazorati, Rayon tibbiy yordami, Dezokamera, Dezot-ryad), ayrim obyektlarning nomlari sovet tuzumining mafkurasiga mos holda qo'yilgan (1-sonli Qizil go'dak uyi (Dom Krasnogo mladensa № 1).

1930 yil oxirlarida shahar hududining kengayi-shi va aholi sonining ko'payishi bilan tibbiy muassa-salar soni va turi ko'paygan, ular uchun maxsus insho-otlar barpo qilish yo'lga qo'yilgan. Jumladan, stasionar davolovchi maskanlar, poliklinikalar, tish davo-lash muassasalari, diagnostik laboratoriyalar, mas-lahatxonalar, korxonalar qoshidagi tibbiy yordam punktlari, dorixonalar, sanatoriy, kurort, dam olish uylari va h.k.lar faoliyat yuritgan.

Quyidagi jadvalda 1936 yilda faoliyat yuritgan tibbiy muassasalar turi va ularning soni keltiriladi¹ (14-jadval).

14-jadval

№	Muassasa turi	Muassasalar soni
1.	Stasionar-davolash muassasasi (izolyatorsiz)	12
	Jumladan: kasalxona	10
	tug'ruqxona	1
	Tub.bolnisa	1
	ularla bemorlarning tashrifi soni	2689,0
	shifokorlar soni	546
2.	muassasasi	2
	ularda bemorlarning tashrifi soni	410.4

¹ Toshkent shahar davlat arxivi. Ф-7 jamgarmasi. 2-ryuxat. 38-iyfmaжилд, 105-варак.

	shifokorlar soni	76
3.	Uyda yerdam ko'rsatish	156,0 mipg
4.	Tez yordam tansiyasi	1
5	Korxona qoshidagi tpbbpi punkt	26
b.	Fnzioterapiya muassasasi	3
7	Rentgen mark	4
8.	Muyetaqil diagnostika laboratoriyasi	2
9.	Shifoxona qoshidagi klinik diagnostik laboratoriya	8
10.	Poliklinika qoshidagi klinik-diagnostik laboratoriya	14
11	Shifoxona qoshidagi apteka	6
12.	Go'daklar uyi ona va bola uyi	1
13.	Sut oshxonasi va oziq-ovqat stansiyasi	
14	Sanatoriy	10
	ulardan umumiy sanatoriy	5
	guberkulez sanatoriysi	2
	Umumin bolalir sanatoriysi	2
	Bolalar tuberk.kasal.sanatoriysi	1
15.	Narkopunkt	1
16.	Quyoshda davolash muassasasi	3
17.	Maktab shifokorlari	75

30-yillar davomida shahar hududida bir qancha sanato-riy, kurort, dam olish uylari ochilgan. Jumladan, 1939 yili ular quyidagicha bo'lgan¹:

1. Partaktiv dam olish uyi (Kirov rayonida, 1934 dan mavjud)
2. Politprosvet soyuzi dam olip. Kuyb.r.,
3. UzSSRGosplani dam olish uyi (Kirov.r.1935).
4. Mtsantrud soyuzi MK dam olish uyi (Kir.r.1
5. SSSR MK Toshkent dam olish uyi (Kir.r.1936).
6. O'zSSR Narkomtorg dam olish uyi (Kir.r.1937).
7. UDOS VSSPS Toshkent dam olish uyi (Stal.r., 1934).
8. Sredaztekstilstroy (O'rtaosiyotekstilqurilish) dam olish uyi (Kuyb.r.1935).
9. O'zbekiston boshlang'ich va o'rta maktablari Soyuzi MK, dam olish uyi (1937).
10. Bolalar malyariya /kasalligini danolash/ sanator] (Lenin r., 1938).
11. Stalin rayoni yasli-sanatoriisi (1937).
12. Mehnatkashlar uchun tuberkulez /kasalligini davo-lash/ sanatoriysi.

¹ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-28 жамгармаси, 1-рўйхат, 6930-йигмажилд, 2-варақ, Номлар русчадан таржима қилинди

13. Toshkent temir yo'llari maktab bolalari sanatoriysi (Lenin r., 1936).
14. 3-sonli bolalar poliklinikasi qoshidagi bolalar sanatoriysi (Len.r., 1936).
15. Frunze rayoni bolalar sanatoriysi (1938).
16. 4-sonli bolalar poliklinikasi qoshidagi kunduzgi sanatoriy (Stal.r.1934).
17. Lenin rayoni bolalar mavsumiy sanatoriysi (1939).
18. Toshkent temir yo'llari tungi sanatoriysi (Len.r., 1927).
19. Respublika bolalar asab kasalliklari sanatoriysi (Len.r., 1927).
20. Lenin nomli bolalar tuberkulez kasalligi sanatoriysi (Kuyb.r.).
21. Shahar partaktivining bolalar sanatoriysi (Kuyb.r., 1930).
22. "Krasnaya mayka" bolalar sanatoriysi (Kuyb.r., 1931).
23. 1-sonli bolalar sanatoriysi (Kuyb.r., 1937).
24. 8 Mart nomli bolalar sanatoriysi (Kuyb.r., 1933).
25. 14-sonli bolalar yaslisi qoshidagi sanatoriya bo'limi (Kuyb.r., 1939).
26. 2-sonli bolalar poliklinikasi qoshidagi kunduzgi sanatoriy (1934).
27. Bolalar poliklinikasi qoshidagi yozgi bolalar sanatoriysi (Oktyabr r., 1936).

Sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi, aholiga tib-biy yordam ko'rsatishning yo'lga qo'yilishida dorixonalarining o'z o'rnini bor. O'rganilayotgan davrda hukumat tomonidan dori-xonalar tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Jumladan, Xalq Komissarligi qoshida ximiya-farmasevtik bo'lim, joylardagi sog'liqni saqlash bo'limlarida esa uning bo'limlari tashkil etilgan. RSFSR Xalq Komissarlari Soveti 1918 yil 28 dekabrda dorixona va dorixona idoralarini nasionalizatsiya qilish haqida qaror qabul qilganidan so'ng, Turkiston Respublikasining vaqtli harbiy-revolutsion soveti barcha dorixonalarni nasionalizatsiya qilish haqida dekret qabul qildi. 1925 yilda Uzbekistonda dorixonalar Boshqarmasi tashkil etildi, uning ixtiyoriga 34 ta xo'jalik hisobidagi dorixona, markaziy dorixona ombori, kontrol-analitik va kimyo-viy farmasevtik laboratoriyalar topshirildi. 1938 yil noyabr oyida Respublika dorixonalar boshqarmasi qaytadan tashkil qilinib, unga Dorixonalar bosh boshqarmasi (GAPU) deb nom berildi¹.

1940 yilda tibbiy muassasalar tizimiga yangi turdagi davolovchi maskanlar qo'shilgan, ularning kasalliklar tuzilishiga ko'ra bo'linmalari rayonlar bo'yicha taqsimlanishida ma'lum o'zgarishlar ro'y bergan va ular tibbiy muassasalar-ning nomlarida ham aks etgan. Xususan, manbalarda uchraydigan joy nomlari va ular bilan bog'liq ma'lumotlarga ko'ra quyidagi muassasa guruhini ajratish mumkin: umumiy va maxsus kasalxona, tug'ruqxona, bolalar kasalxonasi, izolyatorlar, ambulatoriya va poliklinika, tish davolash maskani, poliklinika, feldsherlik punkti, uyda davolash stantsionari, emlash stantsiya va otryadi, maslahatxona, dorixona, sanatoriy, sut quyish va tarqatish punkti, yasli.

Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda tibbiy muassasalar faolligi oshgan. Bunday holat urush va undan keyingi tiklanish davri talablari bilan bevosita bog'likdir. Toshkent shahrida mavjud tibbiy davolovchi maskanlardan

¹ Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш 50 йил ичида. - Ред.М.Муслимов. - Т.: Медицина, 1967. 7-6.

tashqari ayrim notibbiy muassasalar (maktab, bog'cha va h.k.) binosi ham frontdan yarador bo'lib qaytgan askarlarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun xizmat qilgan. Urushdan so'ng ham ushbu binolardan bir necha yillar davomida tibbiy maqsadlarda foydalanilgan. Statistik ma'lumotlarga nazar solsak, tibbiy tizim muassasalari turlari urush va urushdan keyingi yillarda avvalgidek saqlanib qolgan, faqat ularning ma'lum tarmoqlari bo'yicha sonlarida o'zgarishlar yuz bergan"¹. Masalan:

	<u>1941 yilda :</u>	<u>1947 yilda:</u>
Stasionar yordam ko'rsat.	17	45
shifok. muassasalari		
Shifokor. ambulatoriya	42	78
poliklinikalari		
	<u>1941 yilda :</u>	<u>1947 yilda:</u>
Tug'ruqxonalar	3	2
Doimiy yaslilar	52	54
Urush nogironlari uylari	1	1
Boshqa nogironlar uylari	2	2
Yotoqxonalar	5	4

Urush yillarida oziq-ovqat tanqisligi, tibbiy xodimlarning asosiy ishi front jangchilarining salomatligini tiklashga qaratilganligi, qolaversa, turli yoshdagi aholining ishlab chiqarishga jalb qilinganligi tufayli aholining umumiy salomatligi qoniqarli darajada bo'lmagan. Ayni vaqtda, iqtisodiy muammolar tufayli tibbiy muassasalarda bir qator muammo va kamchiliklar ham bunga ta'sir ko'rsatgan. Respublika poytaxtidagi tobora o'sib borayotgan aholining tibbiy xizmatga bo'lgan ehtiyojlari-ni qondirish maqsadida sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish ishlari urushdan keyingi yillarda ham davom ettirilgan. Asosiy e'tibor yangi kasalxona va yaslilarni qurishga qaratilib, xususan, tadqiqotlarda 1957 yilda Toshkentda 50 ta shifoxona, 7 ta tug'ruqxona, 42 ta ambulatoriya, 71 ta yasli bo'lgani haqida ma'lumotlar uchraydi.² Tadqiq etilayotgan davr statistik ma'lumotlarida shifoxonalar soni (gospitallarni hisobga olmaganda) yillar bo'yicha ortib borishi kuzatiladi. Jumladan, 1940 yil-da - 35 ta, 1950 yilda - 50 ta, 1955 yilda - 54 ta, 1960 yilda - 67 ta; sanatoriylar soni esa 1961 yilda 10 taga yetgan³. Demak, o'n yil mobaynida shifoxonalar soni 5-9 taga, tug'ruqxonalar 5 taga, yaslilar soni 26 taga oshgan.

1920-30 yillardagi aksariyat tibbiy muassasalarning nomlari muassasa turini anglatuvchi so'zlar bilan birga, uning faoliyat yo'nalishi, ma'lum tarmoq, tashkilot yoki hududga tegishlilikini bildiruvchi so'zlardan tashkil topgan (Harbiylar

¹ Тошкент шаҳар давлат архиви. Ф-7 жамғармаси, 2-рўйхат, 68-йиғ-мажилд, 9-варақ; 47-йиғмажилд, 13-18-варақлар.

² Соколов Ю.А. и др. Ташкент. Краткий справочник-путеводитель под ред.Р.Г.Гуламова. - Т.: Госиздат УзССР, 1957. - С.115.

³ Народное хозяйство города Ташкента. Статистический сборник. - Т: Госстатиздат, Узбекское отделение. 1961. - С.93.

dispanseri, Rentgenkabinet, Sannadzor, Ona va bola uyi, Tez sirdam xizmati, Shifokorlarning jismoniy tar-biya nazorati, Ginekologik shifoxona, Oktyabr rayoni em-lash otryadi, Toshkent temir yo'llari maktab bolalari sana-toriysi, Yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Bola-Masjid-dagi bolalar kasalxonasi), shuningdek, ayrim turdagi tib-biy maskanlar shaharning har bir rayonida bittadan yoki umuman olganda shahar hududida bir qancha bo'lgani sababli tibbiy muassasa turi va uning tartib raqami bilan bog'liq holda atalgan, ularning salmog'i ham yuqori (2-sonli shahar kasalxonasi, 13-sonli ambulatoriya, 1-sonli bolalar masla-hatxonasi, 3-sonli maktab dispanseri, Aloqa texnikumi-ning 3-sonli izolyatori, 1-sonli tug'ruqxona, 5-sonli bola-lar poliklinikasi, 22-sonli ambulatoriya, 3-sonli bolalar poliklinikasi qoshidagi bolalar sanatoriysi). Tibbiy mu-assasalarning ayrimlarida antropotoponim, tarixiy voqye-lik yoki sovet mafkurasining o'ziga xos tomonlari bilan bog'-liq holda berilgan nomlar uchraydi (R.Lyuksemburg nomida-gi bolalar kasalxonasi, 8 Mart nomli bolalar sanatoriy-si, "Krasnaya mayka" bolalar sanatoriysi).

1940-1960 yillarda Toshkentdagi mavjud tibbiy xiz-matga doir muassasalar nomlari, asosan, son jihatdan ko'paygan, biroq ma'nosiga ko'ra toponimik guruhlar urush-gacha bo'lgan davr toponimlaridan deyarli farq qilmaydi, faqat tartib raqamlari bilan berilgan toponimlarda muas-sasalar ko'paygani sababli, sonlarning o'sishi qayd etiladi. Jumladan, ushbu yillarda muassasasa turi va uning faoli-yat yo'nalishini aks ettiruvchi toponimlar (84-sonli zavod tibbiy sanitariya qismi (MSCh) aksariyatni tashkil qilgan, ikkinchi o'rinda raqamlar va tashkilot turini ifodalovchi nomlarni qayd etish mumkin (4-tug'ruqxona, 5-sonli yuqumli kasalliklar bolalar kasalxonasi, 70-sonli yasli), tabiiy sharoitlar, ma'lum hududga tegishliligi, biror tarixiy voqslik, shuningdek, davr mafkurasi bilan bog'liq muassa-sa nomlari nisbatan kam (Yasenniy sanatoriy, "Abrikosoviy sad" bolalar sanatoriysi, Markaziy rayon tibbiy bo'limi, "O'zbekistonning 15 yilligi" sanatoriysi).

Toshkent shahrining 1917-1960 yillardagi iqtisodiy va ijtimoiy hayotida yuz bergan o'zgarishlar bevosita uning madaniy rivojlanishi bilan bog'liq tarzda kechgan. Sovetlar barpo etgan yangi mamlakatda yagona Kommunistik partiya hukmronligini ta'minlovchi, Sovetlar tizimini ulug'lovchi mafkurani o'rnatish, xalq ongiga hukumat qarorlariga itoat qilib, ularga amal qilib yashashni singdirish borasida sovet hukumati tomonidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Muassasa va tashkilotlarda tashkil qilingan kasaba uyushmalari, kutubxonalar, shuningdek, turli klublarda so-vet tuzumini idellashtiruvchi g'oyalar targ'ib qilingan, sovet davlatining vujudga kelishi yo'lida kurbon bo'lgan, Kommu-nistik partiya ishlarida faol bo'lgan shaxslarni ulug'lash siyo-sati olib borilib, insonning ma'naviy erkinligi cheklab qo'yilgan. Hatto yangi tashkil qilingan madaniy muassasalar-ning nomlanishi ham hukumat tomonidan qat'iy belgilangan talablar asosida tanlangan, xususan, sovet davrining taniq-li davlat arboblari ismlari, muhim sanalgan siyosiy voqyea-lariga atab qo'yilgan nomlar madaniy muassasalar bilan bog'-liq toponimlarning asosiy qismini tashkil qilgan.

O'rganilayotgan davrga oid manbalarda shaharda mavjud istirohat bog'i, kinoteatr, teatr, muzey, kutubxona, klub, choyxonalar shuningdek, bolalar maydonchasi va lagerlar to'g'risida ayrim ma'lumotlar uchraydi.

Madaniyat va istirohat bog'lari shaharning markaziy qismi yoki aholi gavjum joylarida barpo qilingan. Ular yozgi mavsumda faoliyat yuritgan, asosan, shaxs ismlari bi-lan nomlangan.

Shahar aholisining madaniy darajasini oshirishda teatr-larning alohida o'rni bor. Toshkent poytaxt shahar bo'lgani sababli unda respublikaga mashhur bir nechta teatr joylash-gan edi. Jumladan, arxiv hujjatida 1941 yilda 10 ta teatr mavjud bo'lganligi qayd etiladi¹:

1. Sverdlov nomli davlat rus opera va balet teatri (Prav-da Vostoka ko'ch.)
2. Mehnat Qizil bayroq ordenli davlat Uzbek opera va balet teatri
3. Lenin ordenli Hamza nomidagi davlat Uzbek akademik dramteatri (Hamza ko'ch.)
4. Maskim Gorkiy nomli davlat rus dramteatri (K.Marks ko'ch.)
5. Muqimiy nomli davlat musiqali komediya teatri (Na-voiy ko'ch., 69)
6. Davlat rus operetta teatri (Gogolevskaya ko'ch., 47)
7. O'zbek yosh tomoshabinlar teatri (Hamza ko'ch.)
8. Rus yosh tomoshabin teatri (Gogolevskaya ko'ch.)
9. Birlashgan respublika qo'g'irchoqlar teatri (K.Marks ko'ch.)
10. Kolxoz-sovхозlar teatri (ko'chib yuruvchi) (5 dekabr ko'ch., 13) Teatrlar bilan bog'liq toponimlar antropotoponim,

teatrning faoliyat yo'nalishi, hududiy mansubligi, ba'zi-da qaysi tilda ijod qilishini anglatuvchi so'zlardan ibo-rat. Ularning nomidan Toshkent teatrlarining turli yoshdagi tomoshabinga mo'ljallab, turlarga bo'lingani, opera, ba-let, drama, musiqali komediya janrlarida ijod qilgani, davlat mukofotlariga sazovor bo'lganini aniqlash mumkin. Muzeylar ham madaniy-ma'rifiy tizimning o'ziga xos turi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tadqiq etilayotgan davrda ular mamlakatning tarixi, turli soha-lardagi erishgan yutuqlarini namoyon qilishda muhim rol o'ynagan. 1941 yilda Toshkent shahrida 4 ta katta muzey fao-liyat yuritgani, yana ikkita muzey ochilishi rejalashtiril-gani manbalarda qayd etiladi:

1. Tarixiy-inqilobiy muzey (O'zbekiston ko'ch., 2)
2. Politehnika muzeyi (Kuybshev ko'ch., 4)
3. Tabiat muzeyi (Sag'bon ko'ch., 12) .
4. San'at muzeyi (O'zbekiston ko'ch, 2)
5. Navoiy muzeyi (O'zbekiston ko'ch, 2) (ochilishi rejada bor)
6. Dinga qarshi muzey (O'zgarish ko'ch, 22) (ochilishi re-jada bor).

Muzey nomlarida ko'proq ularning ixtisoslashgan soha-si aks etgan.

1956 yili Ministrlar Soveti tomonidan Top¥t shah-rini rekonstruksiya qilish bo'yicha chiqarilgan Qarorda sha-har hududida aholi turar joylari, xalq xo'jaligi obyektlari, ijtimoiy soha muassasalarini qurish bilan bir qator-da sovetlar madaniyatini targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan madaniy-ma'rifiy

¹ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-28 жамғармаси, 1-рўйхат, 6917-йиғмажилд, 55-60-варақлар.

muassasalar tarmog'ini ken-gaytirish, ular uchun alohida joy va mablag' ajratilishini besh yillik rejalarga kiritish talabi qo'yilgan. Mavjud manbalar va tadqiqotlarda muzey nomlari keltiriladi¹:

1. O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi (dastlab u "Tur-kiston xalq muzeyi , keyinchalik 'O'rta Osiyo bosh muzeyi", so'ng Markaziy tarixiy-inqilobiy muzey²" va 6. nomlar bi-lan atalgan)
2. O'zbek SSR Davlat san'at muzeyi (1918 yili N.K.Ro-manov kolleksiyasi asosida tashkil qilingan)
3. Tabiiy-ilmiy tashviqot va targ'ibot muzeyi (Beshog'och maydonda joylashgan)
4. O'zSSR Fanlar akademiyasi tabiat muzeyi
5. O'zSSR Fanlar akademiyasi adabiyot muzeyi.

Statistik manabalarda urush yillari va urushdan ke~ yingi davrda shahar hududida faoliyat yuritgan madaniy mu-assasalar soniga doir ma'lumotlar uchraydi (15-jadval):

15-jadval

Teatr, kinomoslama, muzeylar²

	1940 y.	1950 y.	1955 y.	1958 y.	1959 y.	1960 y.
Teatrlar	12	7	7	7	6	6
Kinomoslamlar	61	53	79	86	77	79
Muzeylar	5	5	5	5	4	4

1961 yilda Toshkentda quyidagi 6 ta teatr, sirk va 2 ta konsert zali faoliyat yuritgan:

1. Alisher Navoiy nomidagi Mehnat Qizil bayrog'i or-denli opera va balet teatri.
2. M.Gorkiy nomidagi Davlat rus drama teatri.
3. Hamza nomidagi Lenin Davlat ordenli o'zbek akade-mik drama teatri.
4. Muqimiy nomidagi Davlat respublika musiqali dra-ma va komediya teatri.
5. Oxunboboyev nomidagi yosh tomoshabinlar teatri.
6. Respublika qo'g'irchoqlar teatri.
7. Toshkent Davlat sirki.
8. O'zbek Davlat filarmoniya zali.
9. O'zbek Davlat estrada zali.

Xalqning ongini shakllantirishda kitoblarning o'z sal-moqli o'rni bo'lgani bois hukumat tomonidan mazkur davrda kutubxona va o'qish zallarini ko'paytirish, nafaqat, omma-viy, balki ilmiy, maxsus, o'quv kutubxonalarni tashkil qilish va ularni mafkuraviy muhitga mos bo'lgan kitoblar bilan ta'minlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Bu borada 1934 yili Toshkent shahrida mavjud barcha turda-gi kutubxonalar ro'yxatdan o'tkazilgan. Mazkur tadbir na-

¹ Соколов Ю.А. и др. Ташкент. Краткий справочник-путеводитель под ред.Р.Г.Гуламова. - Т: Госиздат УзССР, 1957. - С. 81-85.

² Народное хозяйство города Ташкента. Статистический сборник. -Т: Госстатиздат. Узбекское отделение, 1961. - С.86.

tijalariga ko'ra shaharda 532 ta kutubxona (shu jumladan, ko'chma kutubxonalar ham) hamda 53 ta o'kuv zali - jami 585 ta kutubxona muassasasi faoliyat yuritgani aniqlangan. Ro'yxatdan o'tkazilgan kutubxonalar quyidagi oltita turga bo'lingan: ommaviy, Xalqma'rifat qo'mitasi (Narkompros)-ga, kasaba uyushmalariga, turli muassasa va tashkilotlarga tegishli, bolalar, o'smirlar va o'quv kutubxonalari, ilmiy va maxsus kutubxonalar. Kutubxonalarning nomlarida ular qaysi tashkilot, muassasaga tegishliliga aks etgan (O'rta Osiyo universiteti Ishchilar fakulteti kutubxonasi, O'zSSR davlat ommaviy kutubxonasi, Oktyabr rayoni marka-ziy bolalar kutubxonasi, Sanoat banki kutubxonasi, 49-sonli paxta zavodi qoshidagi kutubxona, "Toshgo'shtkombi-nat"i kutubxonasi, 3-novvoyxona qoshidagi o'quv zali, "Toshximprom" arteli kutubxopasi, Chirchiq stansiyasi qoshi-dagi kutubxona, Tabiat muzeyi kutubxonasi).

Urush yillari va urushdan keyingi davrda ommaviy kutubxonalar soni ortgan. Barcha kutubxonalar zimmasiga kutubxonalarni kerakli adabiyotlar bilan ta'minlash, ularga kitobxonalarni jalb qilish vazifasi yuklatilgan. Toshkent shahrida 1940 yilda - 50 ta, 1950 yilda - 64 ta, 1955 yilda - 98 ta, 1960 yilda - 107 ta ommaviy kutubxona faoliyat yuritgani manbalardan ma'lum¹. Mazkur davrda kutubxona-larning ommaviy, ilmiy, maxsus, texnik, bolalar kutubxonalari kabi turlari bo'lgan. Ularning nomlarini antropotoponimlar (Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston SSR Davlat ommaviy kutubxonasi, Nodira nomli kutubxona, Uyg'ur nomidagi kutubxona), shuningdek, kutubxona turi, tashkilotga tegishliligi, tartib raqami, hududiy joylashuvini aks ettiruvchi toponimlar guruhlariga bo'lish mumkin.

Madaniy hordiq chiqarish muassasalari bilan birga, bolalar uchun mavsumiy muassasalar, ya'ni bolalarning yozgi lagerlari hamda maydonchalari tashkil qilingan. Ular turli korxona, tashkilot, muassasa ishchilarining bolalari uchun mo'ljallangan. Arxiv hujjatida 1937 yilda 20 ta lager va 24 ta bolalar maydonchasi bo'lgani qayd etiladi². Bolalar maydonchalari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bunyod qilingan park, bog'cha, ayrim ko'chalarda faoliyat yuritgan va bu holat ularning nomlanishida ham o'z ifodasini topgan (1-sonli bolalar maydonchasi - Detploshadka № 1 (Selmash), 1-sonli bolalar bog'chasi qoshidagi bolalar maydonchasi - Detploshadka pri d/s № 1, Gorkiy nomidagi park qoshidagi bolalar maydonchasi - Detploshadka pri parke im.Gorkogo). Bolalar yozgi lagerlari ko'proq shahar hududidagi maxsus joylarda hamda shahar tashqarisida, asosan, kolxoz yerlari hududlarda joylashtirilgan. Ularning nomlarida aksariyat hollarda lager qaysi tashkilotga tegishliligi aks etgan. Masalan, quyidagi ro'yxatda ularning nomlari va joylashgan hududi keltiriladi³:

1. Stalin nomli To'qimachilik kombinati pioner lageri (Sh.Rustavelli ko'ch.).
2. Frunze raysoveti Sog'lomlashtirish komissiyasi pioner lageri (Kirov ray.).

¹ Народное хозяйство города Ташкента. Статистический сборник - Т.: Госстатиздат, Узбекское отделение. 1961, - С.88.

² Ташкент шаҳар Давлат архиви. Ф-28 жамғармаси, 1-руйхат, 6916-йиғмажилд, 10-орқа варақ.

³ Ўша маба. 10-варақ.

3. Vostok Kooperasiya Soyuzi MQ pioner lageri (1 May ko'ch.).
4. "Qizil tong" fabrikasi pioner lageri (Qibray).
5. Toshkent Davlat temir yo'li pioner lageri (Ordjo-nikidze shahri).
6. Xloptrestzagotov. pioner lageri (Qibray).
7. Kaganovich nomli zavod pioner lageri (Kalinin po-selkasi).
8. Rayono pioner lageri (Magazin mahallasi).
9. Rayono pioner lageri (Uzbekiston kolxoziga qarash-li).
10. Rayono pioner lageri (Chig'atoy Oqtepa).
11. Rayono pioner lageri (Oqqovoq stansiyasi).
12. Rayono pioner lageri (Besh Qizil Soy).
13. Raysovet pioner lageri (Kirov Chirchikstroy zavodi).
14. Raysovetning 2-sonli pioner lageri.
15. Raysovetning 3-sonli pioner lageri (Qizil Yulduz kolxosi).
16. 7-sonli Vinzavod pioner lageri (Zarkent kolxosi).
17. Markaziy pioner bolalar stansiyasi lageri.
18. Ko'rlar maktabi pioner lageri (Parkentskaya, 14).
19. Qizil yarimoy Markaziy ijroiya qo'mitasi pioner lageri (Lunacharskiy poselkasi).

Ushbu davrda shahar kinoteatrlari aholi madaniy hordik chiqaradigan va muntazam tashrif buyuradigan maskanlardan hisoblangani bois shahar ma'muriyati ularning holati, ish rejasi va qanday filmlar namoyish qilinishi dasturiga alohida e'tibor qaratgan. Arxiv hujjatlarida kinoteatr-larning hisobotlari va taftish materiallarida ular fao-liyatidagi ijobiy va salbiy jihatlar to'g'risida ma'lumot-lar qayd etilgan. Shaharda kinoteatrlar tarmog'i keng ri-voj topgan. Ular har bir rayonda qurilgan, har besh yil-likka mo'ljallangan rejalar asosida ish yuritgan. Kinoteatr-lar repertuarida g'alabaga ishonch, urush yillarida jasorat ko'rsatgan qahramonlarni ardoqlash, sovetlar mamlakatini ulug'lash, kommunistik partiya siyosatini oqlash, sovet mada-niyatini targ'ib qilish, insonlar o'rtasidagi tuyg'ular kabi mavzularga doir kinolar namoyishi asosiy o'rin tutgan.

II-BOB. SHAHARNING 1966-1980 YILLARDAGI QIYOFASI VA JOY NOMLARIDAGI O'ZGARISHLAR

II.1. Yangi tuman, mavze, ko'chalarning paydo bo'lishi va nomlanishi

Toshkent shahri hududida XX asr davomida ro'y bergan keng ko'lamdagi topografik va toponimik o'zgarishlarga na-faqat muhim siyosiy voqyeliklar, balki tabiiy omillar ham sabab bo'lgan.

1966 yil 26 aprel kuni soat 5 dan 23 daqiqa o'tganda Toshkent shahrida kuchli zilzila sodir bo'lgan¹.

Zilzila oqibatlarini bartaraf etish va shaharni qisqa muddatda tiklash choralari ishlab chiqish maqsadida max-sus komissiya ish olib borgan. Uning ko'rsatmalariga binoan ulkan qurilish ishlari amalga oshirilgan, aholi uchun yangi turar joylar, turli tizim muassasalari faoliyatiga mo'ljallangan inshootlar barpo qilinib, 3,5 yilda zilzila oqibatlari bartaraf etilgan. Shahar hududida yangi dahalar bunyod etilib, 300 ming kishi uy-joy bilan ta'minlangan, 3200 m.kv. turar joy bunyod etilib, bolalar bog'chasi, maktab, institut, savdo va boshqa bir qator davlat muassasa-lari uchun binolar qurilgan. Toshkentda zilzila oqibatla-rini bartaraf qilib, yangi turar joylar qurishda sobiq Ittifoqning boshqa hududlaridan ham quruvchi va turli soha mutaxassislari bu yerga jo'natilgan. Yangi bunyod etilgan mavzelarni qurishda turli millat vakillari qatnashganlar, ushbu millatlarning nomlari keyinchalik yangi qurilgan hudud va ko'chalarga berilgan.

Shaharni tiklash bo'yicha olib borilgan ulkan qurilish ishlari Toshkentni rekonstruksiya qilish Bosh planiga tuza-tishlar kiritilishini taqozo qilgan. Shu sababdan 1970 yilda kiritilgan tuzatishlardan so'ng shaharni qayta qurish Bosh plani tasdiqlangan. Reja loyihalarini ishlab chiqishda A.I.Vanke, V.P.Varaksin, M.Lifanovskaya, V.M.Mixaelyan, shuningdek, "Tashgoriprogor" xodimlarining hissasi katta bo'lgan. Planda shahar hududini 25 ming gektargacha kengayti-rish, aholi sonining 1,5 mln.ga yetishi ko'zda tutilgan. Yalan-g'och, Sholi oqlash zavodi, Shimoli-Sharq, Yunusobod, Qora-qamish kabi yangi mavzelarda turar-joylar qurib, shahar mar-kazini barpo qilish bilan bir qatorda shahar markazini rekonstruksiya qilish ishlari ham olib borilgan².

Toshkektni rekonstruksiya qilish rejasiga doir olib borilgan keng ko'lamdagi qurilishlar tufayli uning hudu-dida yangi mavzelar shakllantirilgan, bunga

¹ Зилзила ўчоғи чўзиқрок шаклида бўлиб, шимоли-ғарбдан жануби-шарққа йўналган, у 5-10 км. чуқурликда жойлашган. Зилзиланинг кучи эпицентрда 8 баллга етган, маркази Қашқар маҳалласи ва Лабзак ўрнида бўлиб, максимал вайроналик зонаси 10-12 км.кв.га тенг бўлган. 9 майдан 10 майга ўтар кечаси, 24 май ва 5 июнда куч-ли (6-7 балл) силкинишлар такрорланган. Содир бўлган табиий офат-лар натижасида кўплаб эски усулда қурилган уйлар, мактаб, ка-салхона, маъмурий ва жамоат ташкилотлари бинолари қулаб, ша-ҳарнинг катта қисми, ва айниқса, унинг маркази вайронага айлан-ган. Жумладан, 2 млн.м..кв.дан зиёд турар жой, 236 та маъмурий бино, 700 га яқин савдо ва умумий овқатланиш шохобчалари, 26 та коммунал хўжалик корхонаси, 180 га яқин ўқув юрти, 8 минг ўрин-ли мактаблар, 36 та маданий-маиший муассаса, 185 та тиббиёт ва 245 та саноат корхонаси бинолари зарар кўрган, 78 минг оила ёки 300 минг киши бошпанасиз қолиб, қурбонлар ҳам бўлган. Марказий сейсмик станция 1966-1968 йиллар мобайнида рўй берган силки-нишлар сони 2500 дан ортганини қайд этган (Тошкент. Энциклопе-дия. / Бош таҳрир ҳайъати: А.Акромов, Б.Алимов, М.Аминов ва б. ˆ Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриети, 2009. - 232 б).

² Тошкент. Энциклопедия..., кўрс.асар. 341-6.

aholining o'sib borishi ham sabab bo'lgan, natijada, shaharning ma'muriy-hududiy tuzilishini o'zgartirish zarurati paydo bo'lgan. Shu munosabat bilan 1967-1977 yillar oralig'ida Toshkent-da 4 ta yangi tuman (rayon) tashkil qilingan: Sergeli, Hamza, Sobir Rahimov, Akmal Ikromov tumanlari. Yangi rayon-lar shaharning turli tomonlarida joylashgan.

Toshkentning janubi-g'arbiy qismida 1967 yilda tashkil etilgan Sergeli rayoni asosini 1966 yilgi zilziladan keyin qurilgan Sergeli aholi turar joy massivi tashkil qilgan. "Sergeli" so'zi O'rta Osiyo hududida yashagan qadim-gi sirg'ali qabilasining nomidan kelib chiqqan bo'lib, et-notoponimlar guruhiga mansub.

Shaharning sharqiy qismidagi hududni va qisman uning markaziy yerlarini ham o'z ichiga olgan Hamza rayoni 1968 yilda tuzilgan. Bu rayonda zilziladan keyingi davrda bir nechta aholi turar joylari massivlari qurilgan, yirik sa-noat obyektlari barpo qilingan. Rayon nomi O'zbekiston xalq shoiri, taniqli dramaturg, bastakor, rejissyor, pedagog, davlat arbobi, jadidchilik harakatining namoyandalaridan Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889- 1929) sharafiga qo'yilgan.

Toshkent hududining shimoli-g'arbiy tomonga kengaytirilishi unda yana bir ma'muriy-hududiy birlikning pay-do bo'lishiga olib kelgan. Xususan, 1970 yilda Oktyabr va Kirov rayonlarining ma'lum qismi hamda Toshkent viloya-ti Kalinin rayoni hududida Sobir Rahimov rayoni tuzilgan. Rayonga Ikkinchi jahon urushi yillarida qahramon-larcha halok bo'lgan diviziya komandiri, general Rahimov Sobir Umar o'g'li (1902-1945) nomi berilgan.

1977 yilda Chilonzor va Oktyabr rayonlarini ixchamlash-tirish maqsadida ularning ma'lum hududlari hisobidan yangi tuman - Akmal Ikromov rayoni tashkil etilgan. Rayon nomi sovetlar davrining siyosiy davlat arbobi Akmal Ikromov (1898-1938) xotirasiga atab ko'yilgan.

Ushbu davrda shahar hududida mavjud rayonlar xarita-larda ham tasvirlangan. Xususan, 1976 yilgi Toshkent shahar karta-sxemasida to'qqizta shahar tumani hududlari ko'rsati-lib, ularning nomlari keltirilgan: Kirov, Kuybishev, Lenin, Oktyabr, Sergeli, Sobir Rahimov, Frunze, Chilonzor rayonlari. Rayon nomlari tarkibida oltita antropotoponim, bitta etnotoponim, bitta tabiat bilan bog'liq nom va bitta tarixiy voqyelikni aks ettiruvchi toponim mavjud.

1966 yil zilzilasidan shikastlangan shahar markazi hamda yangi tashkil qilingan rayonlar hududida tarixiy voqyeliklar ta'sirida shaharda vujudga kelgan aholining zich joylashgan mavzelari - massivlarning qurilishi keng ko'lamda olib borilgan. Ular kvartal, mikrorayon, alohi-da joylashgan turar joy birikmalari komplekslari ko'ri-nishida bo'lgan. Toshkent hududida massivlar 1930 yillar-da vujudga kelgan va ularda, asosan, 4-5 qavatli turar joy binolari qurilgan. 1966 yildan keyin turar joy massivlari qurilishi jamoa xo'jaliklari yerlari va shaxsiy uylar o'rnida jadallashtirilgan. 1960-1970 yillarda 9 qavatli, 1980 yillardan 12, 16 qavatli turar joy binola-ri, xizmat ko'rsatish obyektlari qurilgan, bu davrga ke-lib kvartallar soni ko'paygan va ular raqamlar bilan ifodalangan toionimlarda ham o'z aksini topgan.

Toshkentning markaziy qismida Markaz massivlari joy-lashgan. Unga kirgan mavzelarning nomlanishida "sentr" ("markaz") so'zini bildiruvchi "S" ("M") harfi hamda mav-zening tartib raqami ifodalangan: S-1 (M-1), S-1a, S-1b,

S-2, S-4, S-5, S-6, S-7. S-13, S-14, S-17, 18, S-26, S-27. Shuningdek, 1973 yildan boshlab markaziy qismga shimol-dan tutash yerlarda Sebzor massivi barpo qilingan.

1963 yilda tashkil etilgan Chilonzor rayoni hududidagi massivlarning qurilishi, asosan, 1966 yildan keyin boshlangan. Yangi qurilgan aholi turar joylari kvartallar deb atalgan va ularning nomlanishi dastlab maxsus shaklda bo'lib, harflar va tartib raqamlarida berilgan, masalan: B-5, B-6, B-7, B-14, B-15, V-21, V-22, V-23, G-9, G-9a, G-10, G-11, G-12, D-18, D-19, K-24, K-26 va h.k. Keyinchalik bu massivlar kvartallar deb atalgan: Chilonzor 1-kvartal, 2-kvartal, jami 26 ta raqamlangan kvartal, shuningdek, 9-a, 20-a, "S" kvartallari bo'lgan. 1979 yilda rayonning shahar marka-ziga tutash hududida Olmazor massivi shakllangan.

Toshkentning shimoliy qismida yangi barpo etilgan So-bir Rahimov rayonining asosiy hududini Qoraqamish turar joy massivlari hamda Talabalar shaharchasi (TashGU) tashkil qilgan. Bu yerda Qoraqamish 1/1, Qoraqamish 1/2, Qoraqamish 1/4, Qoraqamish 2/1, 2/3, 2/4, 2/5-kvartallari, Olimpiya massivi qurilgan. Ushbu massivlarning shimoliy tomonidagi yo'nalishda Ibn Sino, Shifokorlar shaharchasi (TashMI) nomli turar joy massivlari barpo qilingan.

1968 yildan boshlab shaharning Hamza rayonida katta qismi Chkalov nomidagi zavod ishchilari uchun mo'ljallangan uylardan tarkib topgan Aviasozlar shaharchasi qurilishi boshlangan. Undagi mavzalar kvartallar deb atalgan: Lisunov 1, Lisunov 2, Lisunov 3, Lisunov 4 kvartallari, Slonim massivi. Rayon janubida 1,2 qavatli uylar bo'lgan mahallalardan iborat Yangiobod massivi, 1970 yillarda shaharning sharqiy qismida 4,5. 9 qavatli uylardan iborat Krrasuv 1, Qorasuv 2, Krrasuv 3, 1985 yilda G'alabaniyning 40 yilligi nomli massivlar qurilgan. Shuningdek, mazkur rayonda Sholoxov massivi joylashgan.

Toshkentning markaziy va markazidan janubi-sharqiy tomondagi yerlar Lenin rayoniga tegishli bo'lgan, zilzila-dan keyingi davrda ushbu shahar tumanining janubida yirik aholi turar joyi - Ko'yliq mavzesi shakllangan, u bir nechta qismlarga bo'lingan: Qo'yliq 1, Qo'yliq 2, Qo'yliq 3, Qo'yliq 4, Qo'yliq 5 massivlari. Mazkur rayonda Fayz-obod massivi joylashgan bo'lib, u yerda, asosan, 1,2 qavatli uylar bo'lgan.

Toshkent zilzilasidan keyin bevosita shakllangan Sergeli rayoni hududida 1-S, 2, 3, 4, 2-S, 5, 6, 7, 10, 11, 12, 13, 14, 16, 17 kvartallari hamda Sergeli-2, Sergeli-3 massivlari bunyod etilgan.

Keyingi yillarda Toshkentning shimoli-sharqiy tomonidagi Kuybishev rayonida Severo-Vostok II massivi qurilib, u I, P, Sh mikrorayonlarga bo'lingan. Rayon hududida katta hududni Yunusobod mavzelari egallab, ular A-1, A-3, A-4, B-1, B-2, B-4, V-1, V-4, V-5, D-2, D-3 kvartallari deb atalgan.

Shahar massivlari bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud tadqiqot va manbalarda nisbatan kam uchraydi. Jumladan, 1972 yilgi shahar karta-sxemasida¹

¹ Карта "Ташкент". Туристская схема. - Москва: Главное управление геодезии и картографии при Совете Министров СССР, 1976 Карта-схема Ташкента. Министерства автотранспорта УзССР. Состав.: инженер Файзиёв К. - Т, 1972.

keltirilgan katta massiv va ularning bo'linmalari soni 51 ta bo'lsa, 1981 yilgi ma'lumotlarga ko'ra yirik massivlar soni 20 tadan oshiq, ularning bo'linmalarini qo'shganda esa massivlar soni 106 taga yetgan¹. 1960-1980 yillarda Toshkent shahri hududida shakllangan massivlar bilan bog'liq toponimlarning asosiy qismini joyning tarixiy nomi bilan bog'liq va tartib raqamlarda ifodalangan (Qoraqamish 2/1, Qo'yliq 5, Sergeli 2, B-6, G-12, D-19, K-26) nomlar tashkil qilgan, ayni vaqtda, shahar hududining qismini bildiruvchi nomlar ham qo'yilgan, ba'zida ularning bo'limlari tartib raqamlari bilan belgilangan (Markaz, M-1, M-13, Severo-Vostok-2, Severniy (Shimoliy)), ayrim massiv nomlarida joyning tarixiy nomi yoki o'ziga xosligi aks ettan (Darxon, "Fayzobod, Yangiobod, Yunusobod, Do'mbrobod, Krrasuv, Bulg'or ogorodlari), ba'zi mavze nomlarida shu yerda istiqomat qilgan aholining asosiy kasb-hunari bilan bog'liqlik, ijtimoiy omillar aks etgan (Sosgorodok, Aviasozlar shaharchasi, Vuz-gorodok, Risoviy), antropotoponimlar va raqamlardan iborat nomlar ham bo'lgan (Lisunov 1, Shumilovskiy gorodok).

Zilziladan keyingi yillarda bunyod qilingan yangi massivlardagi ko'chalarning katta qismi mazkur yillarda qurilgan yoki rekonstruksiya qilinib, ba'zilarining nomlari ham o'zgartirilgan. Ushbu davrda ko'chalarga urush yillarida khdra-monlik ko'rsatgan jangchilar, sovetlar mamlakati boshqaru-vida muhim o'rin tutgan siyosiy arboblari, taniqli olimlar, adiblar, san'atkorlarning ismlari berilgan. Ba'zi ko'chalarga Ittifoq hududida yashovchi turli millat nomlari, shuningdek, ayrim hududlarning nomlari qo'yilgan. Masalan, aynan 1966-1968 yillarda: Abay, General Uzoqov, Dnepr, Lohutiy, Moskva, Nazarbek, Prikarpat, Saidov, Segizboyev, Sergeli, Smolnii, Xalqlar do'stligi prospekti, Chochtepa kabi ko'chalari yangi qurilgan bo'lsa, Abdulla Qahhor, General Petrov, German Lopatin, Jahon Obidova, Lenin prospekti, Staro-dubsevo, Usmon Yusupov va b. ko'chalar rekonstruksiya qilingan va nomlar shu shaklda o'zgartirilgan.

Toshkent zilzilasidan keyingi o'n yillik davrda shahar hududidining kengayishi, uning turli qismlarida yangi rayon va massivlarning qurilishi natijasida katta, o'rta-cha va tor ko'chalar soni ham ortib borgan. Kartografik manbalarda ularning topografiyasi va toponimiyasiga doir ma'lumotlar mavjud. Jumladan, 1976 yilgi Toshkent shahar xaritasida 174 ta katta ko'cha nomi keltirilgan. Shuningdek, ushbu manbada shaharning 13 ta maydoni hududi belgilangan va nomlari qayd etilgan: Oqtepa, Ohunboboyev, Be-runiy, Kalinin, Komsomol, Kuybishev, Lenin, M.Gorkiy, Pushkin, Sapernaya, Frunze, Xadra, Xalqlar do'stligi. Ko'cha va maydonlar tarkibida antropotoponimlar salmoqli o'rinni egallaydi.

1960-1970 yillarda Toshkent hududidagi tuzilgan yangi rayonlar va massivlarning rivojlanishi bilan birga, ulardagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayot ham rivojlanib borgan. Aholi turar joy binolari, turli sohalarga tegishli tashkilotlar, idoralar qad ko'targan va bu hol, o'z navbatida, katta ko'chalar kdtorida

¹ Ташкент: Краткий путеводитель-справочник / Н.А.Дехканходжаев, А.И.Грищенко, С.П.Рахманов, А.С.Зельцер. - Т: Узбекистан, 1981. - С186-191.

ularning bo'linmalari - o'rtacha va kichik (tor ko'cha, muyulish) ko'chalar yeonining ko'payishiga olib kelgan.

Shaharni rekonstruksiya qilish Bosh planiga ko'ra qurilish ishlari 1980 yillarda ham davom ettirilgan. 1980 yil-da shahar hududida 10 ta rayon mavjud bo'lgan. Rayon nom-lari quyidagi guruhlariga bo'lingan: antropotoponimlar (7 ta) - Akmal Ikromov, Kirov, Kuybishev, Lenin, Sobir Rahimov, Frunze. Hamza: tabiat bilan bog'liq toponim (1 ta) - Chilonzor; etnotoponim (1 ta) - Sergeli; tarixiy voqyelikni aks ettiruvchi nom (1 ta) - Oktyabr.

Bu davrda katta va o'rtacha ko'chalar soni 1107 taga yetgan¹. Ko'cha nomlarining toponimik guruhpari quyidagicha (16-jadval);

16-jadval

1980 yilda Toshkent ko'cha nomlari guruhlari

№	Toponim guruh	Topoiimlar soni
1.	Lntropotoponimlar	524 ta
2.	Geografik joy nomlari bilan bog'liq toponimlar	214 ta
3\.	Ijtimoiy-iqtisodiy hayot aks etgan toponimlar	213 ta
4.	Madaniy-ma'naviy omillar bilan bog'liq nomlar	141 ta
5.	Tabiat bilan bog'liq toponimlar	122 ta
6.	Sharq ismlari orqali atalgan toponimlar	40 ta
7.	Tarixiy voqyelikni aks ettiruvchi nomlar	30 ta
8.	Etnotoponimlar	21

Umuman olganda, Toshkent shahar hududi 1966 yilgi zil-ziladan keyingi davrda ulkan qurilish maydoniga aylangan, barpo etilgan turar-joylar, binolar poytaxtning tashqi qiyofasini o'zgartirib, undagi rayon, mavze, ko'chalar soni ko'paygan. Tabiiy va mexanik o'sish hisobiga shahar aholisining soni o'sib borayotgani uchun Toshkent atrofidagi hudud-lar obodonlashtirilgan va bu yerlar shaharning tarkibiy qismiga aylantirilgan. Yangi tashkil etilgan ma'muriy-hududiy birliklarga hukumat qarorlari hamda ko'rsatmalariga asosan nomlar berilgan, biroq mahalliy aholi orasida keng tarqalgan turar-joylar tarixiy nomlarining katta qismi massivlar nomlanishida o'z shaklida saqlanib qolgan va ular-ga faqatgina raqamlar qo'shib aytilgan. Shahar toponimiya-sida salmoqli o'rinni egallagan ko'cha nomlarining deyarli yarmini shaxslar nomiga atalganlari tashkil qilgan, qolgan ko'chalar hududdagi xo'jalik, tabiat obyektlari, tarixiy hodisalar va madaniy taraqqiyot bilan bog'liq holda atalgan. Ko'cha nomlarida ushbu davrda vujudga kelgan antropotopo-nimlarning eng katta qismi siyosiy arboblar nomiga

¹ Ташкент: Краткий путеводитель-справочник /Н.А.Дехканходжаев., А.И.Грищенко, С.Р.Рахманов, А.С.Зельцева - Т: Узбекистан, 1981. -С.119.

atalga-ni, keyingi navbatda. fan va madaniyat sohasi mutaxassis-lari, so'ng iqtisodiyot sohasida tanilgan shaxslar ismi bi-lan bog'liq bo'lgan. Biroq bu shaxslarning ko'pchiligi Tosh-kent ahli yoki umuman o'zbek xalqi uchun begona bo'lib, ular-ning o'lkaning tarixiy rivojlanishida ahamiyati bo'lmagan. Nomlarida iqtisodiy va madaniy taraqqiyotni aks ettirgan ko'chalarning ko'pchiligi yevropacha nomlar bilan atalgan, ta-biiy obyektlar bilan bog'liq toponimlarning aksariyati ma-halliy tilda saqlanib qolgan bo'lsa-da, biroq ularning ta-laffuzi va yozilishida ayrim xatoliklarga yo'l qo'yilgan.

II.2. Iqtisodiy-ijtimoiy obyektlar bilan bog'liq toponim-lar va ularning xususiyatlari.

Toshkentdagi 1966 yil zilzila shahar uchun katta talo-fat olib kelgan. Ayniqsa, boshpanasiz qolgan aholi og'ir vaziyatga tushib qolgan. Biroq shahar ahlining matonati, bir-damligi va hamjihatligi tufayli barchaga tezkor yordam ko'rsatilgan. Zilziladan zarar ko'rgan oilalarga yuzlab xo-nadonlardan joy ajratilib, yashash uchun sharoit yaratib be-rilgan. Respublikaning turli hududlaridan toshkentliklarga boshpana va ish taklif qilinib, bir qator tashkilotlarda Toshkentga yordam ko'rsatish jamg'armalari tashkil qilingan. Kutilmagan tabiiy ofatdan ulkan zarar ko'rgan poytaxtni tiklash uchun butun respublika aholisi o'z yordamini ayamagan. Zilzila oqibatlarini bartaraf etash va shaharni qayta qurish bo'yicha qisqa muddat ichida tuzilgan rejaga muvofiq uch-to'rt yil ichida shahar qiyofasi o'zgarib, nafaqat markazda, balki shahar chekka hududlaridagi bog' va ekinzorlarning katta qismida yangi massivlar va jamoat binolari barpo qilingan. Lekin ularga dastlab, "shaharni qurish bahonasi-da" Moskva, Leningrad va boshqa o'nlab shaharlardan Mar-kaz ko'rsatmasiga binoan ko'chirib keltirilgan mutaxassis-lar, ishchilar joylashtarilgan; bu haqda ko'plab arxiv huj-jatlarida ma'lumotlar uchraydi. Keyingi navbatdagina uy-lar mahalliy aholi uchun ajratilgan. Mazkur holat yangi aholi turar joylaridagi ko'chalar va boshqa joylarning nom-lanishida yaqqol aks etgan. Masalan, zilziladan keyingi yil-larda ulkan qurilish maydoniga aylantirilgan yangi Chilon-zor rayonida Podmoskovnaya, Cheremushkin ko'chalari, ushbu davrda Toshkentga yo'ldosh shahar bo'lib qurilgan, so'ng sha-har rayoniga aylantirilgan Sergeli rayonida ukrainalik quruvchilarga atab ko'cha nomi Dneprovskaya deb qo'yilgan.

1970 yilda tuzatishlar kiritilganidan so'ng tasdiqlangan shaharni qurish Bosh rejasida Toshkent shahrini qurishda shaharsozlik sohasida erishilgan yutuqlar va ayni vaqtda shaharning tarixiy qiyofasini ham hisobga olish, asosiy e'tiborni aholining mehnat sharoiti, maishiy xizmati va hordiq chiqarishiga qaratish nazarda tutilgan. Biroq, ta'-kidlash joizki, turg'unlik davrida Toshkent shaharsozligi-da qator kamchiliklarga yo'q qo'yilgan. Bir tarafdin, Bosh planga rioya etilmagan, masalan, planda ko'rsatilmagan sa-noat rsorxonalari xo'jalik komplekslarining shahar hudu-dida qurilishi, yana boshqa tomondan planda rejalashtirilgan ayrim ko'rsatkichlar o'zini oqlamagan, ya'ni aholi soni mo'ljaldagidan ancha oshib ketgan - bularning barchasi esa binolar va yo'llar joylashuvidagi nomutanosiblikka

olib kelgan. Aholi sonining keskin oshishi hamda sanoat korxo-nalarining ko'payib ketishi shahar hududidagi ekologik va sanitariya ahvolining yomonlashuviga olib kelgan. Oqibatda, 1970 yil oxirida yangi bosh plan tuzish lozim bo'lgan, biroq shaharni qurishning yangi plani faqatgina 1980 yillarda ishlab chiqilgan va u ham 1985-1990 yillarga mo'ljallangan¹. Demak, qariyb o'n yillik davr ichida, ya'ni 1975-1985 yil-lar oralig'ida shahar hududidagi qurilishlar ba'zi hol-larda yagona rejasiz olib borilgan.

Shahardagi yangi massivlar tobora ko'payib boraygan sa-noat korxonalari atrofida joylashtirish rejalashtirilgan. 19o6'-1980 yillar oralig'ida shaharda zilziladan zarar ko'rgan korxonalar va muassasalar uchun yangi binolar qurib, kor-xona ishchilarini turar joylar bilan ta'minlash shahar boshqaruvi oldida turgan asosiy vazifalardan sanalgan.

Manbalarda qayd etilishicha, mazkur davrda shaharda 200 ga yaqin sanoat obyekti faaliyat yuritgan. Sobiq sovet hukumati-ning ko'rsatmalariga binoan O'zbekistonda paxtachilikki rivoj-lantirishga qaratilgan bir tomonlama taraqqiy etgan iqtiso-diyot shakllantirilgani bois, O'zbekiston poytaxtida ushbu so-haga xizmat qiluvchi sanoat tarmoqlariga katta z'tibor qara-tilgan. Shahar hududida qishloq xo'jaligi mexanizasiyasini ishlab chiqaruvchi, paxtaga qayta ishlov beruvchi, to'qimachilik, shuningdek, qurilish ashyolarini ishlab chiqaruvchi sanoat kor-xonalari soni ko'paytirilgan. Shuni ham qayd etish joizki, mustabid sovet mamlakatida barcha xo'jalik sohalari o'z faoliyatini hukumat tomonidan belgilangan va bajarilishi qat'iy talab qilingan besh yillik rejalarga asosan yuritgan. Rejada ko'rsatilgan natijalarga erisha olmagan sohadagi mas'ul shaxs-lar jazolangan. Shu sababli Toshkent hududidagi sanoat va boshqa korxonalarning faoliyati besh yillik rejalarga binoan tashkil etilgan. 1970 yillar to'qqizinchi va o'ninchi besh yillik rejasi-ga to'g'ri kelgan va o'sha davr adabiyotlarida sanoat rivoji tavsifi shu besh yilliklarni ta'riflash orqali keltirilgan. Jumladan, tadqiqotlardan birida ko'rsatilishicha, "to'qqizzinchi besh yilliqsa Toshkentda Farmasevtika zavodi, 2-sonli Poyab-zal fabrikasi, Zargarlik (yuvelir) zavodi, Badiiy buyumlar zavodi, bir sutkada bir yilda 1,4 ming tonna kandolatchilik, 27 ming tonna makaron hamda bir sutkada 60 tonna non va non mahsulotlarini yetkazib berish quvvatiga ega bo'lgan oziq-ovqat korxonalari kompleksi va boshqalar - jami 15 ta obyekt ishga tushirilgan. O'ninchi besh yillikda Quruvchilik plitalari zavo-di, Tikuvchilik fabrikasi, Nostandart jihozlar va mebel zavodi, Gilamlarni kimyoviy tozalash zavodi qurilgan. 1970 yil oxirida 400 tadan oshiq sanoat korxonasi bo'lib, ular O'zbekis-ton sanoat mahsulotlarining 1/4 qismini ishlab chiqargan"².

70-yillarda shahar sanoati tarkibi o'zgarib, unda og'ir sanoat salmog'i oshgan. Mashinasozlik va metallga ishlov be-rish sohalari yetakchi o'rinni egallagan. Ushbu sanoat soha-siga Chkalov nomidagi Toshkent aviasiya ishlab

¹ Тошкент. Энциклопедия. / Бош таҳрир хайъати: А.Акромов, Б.Алимов, М.Аминов ва б.— Т: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2009. 341-6.

² Ташкент в период развитого социализма. Под ред.Э.Ю.Юсупова и др. - Т.: Фан, 1983. - С.100-101.

chiqarish uyushmasi, ekskavator, "Pod'yomnik", "Kompressor", instrumental, kabel, abraziv va elektron texnika zavod-larining qo'shgan hissasi ortib borgan. 1966-1970 yillarda mashinasozlik sohasining rivojlanishiga 100 mln.rubl sarflangan¹. 1975 yilda respublikada ishlab chiqariladi-gan barcha sanoat mahsulotlarining 21,4%i, shu jumladan, mashinasozlik va metallga ishlov berish mahsulotining 61,1%i, paxta matolarini ishlab chiqarishning - 90 %i, yengil sanoat mahsulotlarining - 36,0%i, oziq-ovqatning -18,1%, qurilish materiallarining - 19,0%i Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan². Toshkent sanoatining qishloq xo'jaligi bilan uzviy bog'liqligini zavodlarning nomlarida ham kuzatish mumkin. Masalan, "Tashselmash", "Uzbek-selmash", "Uzbekxlopkomash" zavodlari qishloq xo'jaligi mashinalari yetkazib beruvchi asosiy korxonalar sanalgan.

Og'ir sanoat tarmoqlari bilan bir qatorda yengil hamda oziq-ovqat sanoati mahsulotlari hajmi ham ko'payib borgan. Shu jumladan, Toshkent to'qimachilik kombinati respubli-kadagi paxta matolarining asosiy qismini ishlab chiqargan.

Toshkent zavodlarida ishlab chiqqarilgan mahsulotlar nafaqat butun respublika, balki sobiq Ittifoqning boshqa hududlari uchun ham ahamiyatli bo'lgan. Shahar korxonalari yangi aviasiya texnikasi, atom energetika,si, traktorlar, seysmik jihatdan mustahkam temir-beton va yengil metall-konstruksiyalar, kabel simlari, yer osti chuqur zonalari-da izlanishlar olib boruvchi uskunalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etgan. Shahar sanoati rivojlanishida elek-troenergetika sohasi katta ahamiyat kasb etgan. Chirchiq-Bo'zsuv kaskadi, Toshkent GRESi, Chorvoq gidrotuzilmasi elektr quvvati bilan ta'minlash manbai bo'lib xizmat qilgan. 1960 yillarda qurilishi boshlangan Jarariq - Buxo-ro - Samarqand - Toshkent gaz quvuri 1970 yillarda niho-yasiga yetkazilgan va Toshkent korxonalarini gaz bilan ta'-minlashda muhim rol o'ynagan. 1966-1970 yillar mobaynida sanoatning o'sish sur'ati 139,4 %ga teng bo'lib, yillik o'sishi 6,9 %ni tashkil qilgan; 1971-1975 yillarda bu ko'rsatkich-lar mos ravishda 145,9 % hamda 7,8 %ga teng bo'lgani manbalardan ma'lum³.

Sanoat korxonalarining soni yillar mobaynida o'zgargan. Xususan, zilzila oqibatida vayron bo'lgan obyektlar orasi-da sanoat korxonalari ham bo'lganligini ularning nomlariga oid ro'yxatlardan ko'rish mumkin, zero, zilziladan keyingi bir necha yil davomida sanoat korxonalarining soni kamaygan. Jumladan, 1966, 1969, 1971 yilgi hujjatlarda Toshkent hududidagi sanoat korxonalarining nomlari shahar tumanlari bo'yicha kdyd etilgan. Turli yillarda ularning rayonlar bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha (17-jadval):

17-jadval

Toshkent shaxri sanoat korxonalarining rayonlar bo'yicha soni⁴

¹ Ташкент в период развитого социализма. Под ред.Э.Ю.Юсупова и др.
- Т.: Фан, 1983. - С.101-102.

² Народное хозяйство г.Ташкента. Краткий статистический сборник за 1971-1975 гг. - Ташкент, 1976. - С.14;
Ташкент шаҳар Давлат архиви. Ф-7 жамғармаси, 3-рўйхат, 23-йиғмажилд, 2-варақ.

³ Ташкент шаҳар Давлат архиви. Ф-7 жамғармаси, 3-рўйхат, 23-йиғмажилд, 2-варақ

⁴ Жадвал куйидаги ҳужжатларда келтирилган sanoat корхоналари номлари руйхати асосида тузилди:
Ташкент шаҳар давлат архиви Ф-7 жамғармаси. 2-рўйхат. 512-йиғмажид, 173-179-варақлар; 596-йиғмажилд.

№	Rayon nomi	1966 y.	Rayon nomi	1971 y.	Rayon nomi	1980 y.
1.	Kirov	28	Kirov	28	Kirov	11
2	Kuybishev	36	Kuybishev	24	Kuybishev	23
3.	Lenin	51	Lenin	23	Lenin	21
4.	Oktyabr	30	Oktyabr	20	Oktyabr	15
5.	Sergeli	8	Sergeli	8	Sergeli	16
6.	Chilonzor	20	Chshyunzor	18	Chilonzor	16
7.	Frunze	24	Frunze		Frunze	16
8.	-		Sobir Rahimov	23	Sobir Rahimov	27
9.	-		Hamza	12	Xamza	32
10.	-		-		Akmal Ikromov	8
	Jami	197	Jami	168	Jami	185

Sanoat korxonalarining nomlanishida ularning qaysi hududga mansubligi, qaysi tarmoq va sohaga tegishliligi aks etgan (Toshkent konserva zavodi, Toshkent lak-bo'yoq za-vodi. Marmar zavodi, Uy qurish kombinati, To'qimachilik kombinati, "Uzbekkinodetal" kinomexanika zavodi, "Promsvyaz" zavodi), ba'zi nomlarda korxonaning shu turdagi tartib raqami ko'rsatilgan (2-sonli Toshkent poyabzal fabrikasi, 4-sonli Non zavodi, 6-sonli Pivo zavodi, 3-sonli G'isht zavodlari boshqarmasi, 3-sonli Tikuv fabrikasi), ayrim korxonalar o'ziga xos tarzda nomlangan (5-Dekabr fabri-kasi, "Fan" bosmaxonasi, "Rassom" kombinati, "Sharq" mebel ishlab chiqarish firmasi, "Mikond" zavodi, "Vatan" mebel ishlab chiqarish firmasi).

Mustabid sovet davrida respublika sanoatidagi kamchi-liklardan yana biri, bu rejani bajarish yo'lida qo'yilgan xatoliklardir. Davlat rejalashtirish bo'limi tomonidan har besh yillikka mo'ljallangan rejalarini bajarish uchun aksariyat sanoat korxonalari asosiy e'tiborni mahsulot-ning miqdoriga qaratib, uning sifati ikkinchi darajali masalaga aylanib qolgan edi. Bu esa ishlab chiqarilgan mahsulotga bo'lgan talabning pasayishiga olib kelgan. Shu ta-riqa mahsulotlarning sifatini yaxshilash bo'yicha chora-tad-birlar ishlab chiqilishi zarurati tug'ilgan. 1979 yil 12 iyulda "Rejalashtirishni yaxshilash va xo'jalik mexaniz-mining ishlab chiqarish samaradorligi hamda ish sifatiga ta'sirini kuchaytirish" to'g'risida Kommunistik partiya markaziy qo'mitasi va SSSR Ministrlar kengashi qarori chiqarilgan. Mazkur qaror bajarilishi 1982 yilda nazorat qilingan. Kdrorni bajarish

maqsadida korxonalarda fan va texnikani rivojlantirishning yagona jamg'armasi tash-kil qilingan, ishchi va xizmatchilar sonini limitlash jo-riy etilib, mehnat amaliyotini brigadalar bo'yicha tash-killashtirish hamda rag'batlantirishning yangi shakllariga o'tib borilgan. Shunday bo'lsa-da, 80-yillarda sanoat kor-xonalarining faoliyatida kamchiliklar yuzaga kelib, mah-sulot sifatini oshirish masalasi hanuzgacha hal qilinma-gani ma'muriy hujjatlarda qayd etilgan.

1970-80-yillarda buyeyod etilgan savdo obyektlari o'zi-ning hajmi, shohobchalariga egaligi va sotiladigan mahsu-lot turlarining ko'pligi bilan ajralib turgan. Jumladan, bozor, alohida do'kon, larek, palatka, rastalardan tashqari shahar markazi hamda shaharning aholi zich joy-lashgan qismlarida yirik savdo markazlari, shahar atro-fida esa, temir yo'l stansiyalarida tovar (yuk) savdo stan-siyalari qurilgan. Umumiy tarzda ular universal va ixtisoslashgan magazin, universam, gastronom, kitob do'koni hamda kolxoz bozorlariga bo'lingan.

Kartografik manbada 1983 yilda Toshkent shahrida mav-jud bo'lgan 33 ta universal va ixtisoslashtirilgan magazin (shu jumladan, 5 ta savdo markazi: "Chilonzor", "Frunze savdo markazi", "Aviasozlar", "Sergeli", "Xdmza"), 8 ta universam, 16 ta gastronom, 11 ta kitob do'koni, 11 ta kol-xoz bozori, 15 ta restoran, 20 ta kafening joylashgan hududi va ayrimlarining nomlanishiga doir ma'lumotlar aks etgan¹. Tovlar savdo stansiyalarining soni 8 taga yetgan: "Qizil to'qimachi", "Lunacharskoye", "Rahimov", "Salor", "Serge-li", "Shumilov", "Toshkent-tovar", "Hamza".

Shahardagi ko'pchilik do'konlar tovarlari turiga ko'ra ma'lum tarmoqqa qarashli bo'lib, alohida bosh tashkilot tasar-rufida bo'lgan, masalan, turli matolardan tikilgan kiyim va gazmolning barcha turlarini sotuvchi ko'plab do'konlar "Tashtekstilshveytorg" birlashmasiga, optika va tibbiy uskunalar sotuvchi do'konlar "Medtexnika" shahar boshqarma-si, non va qandolat mahsulotlarini sotuvchi do'konlar "Tashxlebtorg" uyushmasi, xo'jalik tovarlarini sotuvchi do'konlar - "Tashxoztorg" uyushmasi, gul, gul ko'chatlari, mineral o'g'itlar, shuningdek, daraxt va boshqa ko'chatlarni sotuvchi do'kon, pavilon va kiosklar Tashgorispolkom bosh boshqar-masining "Svetm Tashkenta" firmasiga tegishli bo'lgan².

Manbalarda qayd etilishicha, savdo maydonlari, do'kon, omborlar, umumiy ovqatlanish joylari shaharda yetishma-gan va ularning soni bo'yicha Toshkent sobiq Ittifoqning boshqa yirik shaharlaridan ortda qolgan. 1976 yil boshlarida har 1000 kishiga 107 km.m. savdo maydoni to'g'ri kel-gan, talab qilinadigan me'yor esa 150 kv.m.ni tashkil qilgan³. Xususan, 1970 yilda chakana savdo korxonalari soni 3236 tani tashkil qilgan bo'lsa, 1975 yilda ularning soni - 3185 ta, 1980 yilda - 3151 ta, 1981 yilda esa - 3174 taga teng bo'lgan⁴, ya'ni savdo muassasalari soni kamayib borgan. Shu sababdan 1976-1990 yillar davomida soha mutaxas-sislari oldiga tovar almashish hajmini oshirish, savdo muassasalari texnik ta'minotini

¹ Ташкент. Географический атлас. Сост.: Академия наук УзССР Отдел географии. - М., 1984. - С.55.

² Ташкент. Энциклопедия. - Т., 1983. - С.382.

³ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-7 жамғармаси, 3-рўйхат, 23-Гтҗмажилд, 15-варак

⁴ Ташкент. Географический атлас. Сост.: Академия наук УзССР От-дел географии. - М., 1984. - С.55.

yaxshilash, savdo tarmog'ini o'sib borayotgan shahar aholisiga mos ravishda kengaytirish masalasi qo'yilgan. Mazkur davrda yangi qurilgan massivlarda dehqon bozorlari qurilib, ularning filiallari ham bo'lgan. Jumladan, Aviasozlar, Sergeli, Farhod, Yunusobod, Qoraqamish dehqon bozorlari va ularning filiallari 1970-1980 yillarda shu nomli aholi massivlarida barpo etilgan va xizmatga topshirilgan.

Ushbu davrda shaharda mavjud yirik savdo muassasalari nomlari quyidagi ro'yxatda keltiriladi:

Universal va ixtisoslashtirilgan magazinlar:

"Mebel"

"G'uncha"

Sovg'alar ("Podarki")

Hamza savdo markazi

Sergeli savdo markazi

Mebellar uyi ("Dom mebeli")

Frunze savdo markazi

"Rubin"

"Russkiy len"

"Okean"

"O'zbekiston"

Bolalar dunyosi ("Detskiy mir")

"Komfort"

Markaziy universal magazin ("SUM")

Yunusobod rayoni mebel magazini ("Mebel")

Soatlar ("Chasm")

Navoiy ko'chasidagi magazinlar

"Ganga"

Bolalar dunyosi (Oktyabr bozorida)

Baxt uyi magazini ("Dom schastya")

Bosh universal magazin ("GUM")

Poyabzal uyi ("Dom obuvi")

"Melodiya"

"Suvenir1"

Chilonzor savdo markazi

"Bogatf"

"Avtoturist"

"Shuhrat"

"Izumrud"

"Dinamo" sport magazini

"Nur" kitob do'koni

"Optika"

"Pedagog"

Universamlar:

"Luncharskiy"

"Yunusobod"

"Navoiy"
"O'rda"
"Farxadskiy"
"Xalqlar do'stligi"
"Xaskovo"

GUMda
Farhod bozorida

Bozorlar:

Aviasozlar
Beshyog'och
Gospitalniy
Lunacharskiy
Oktyabr
Oloy
Selmarsh
Farhod
Frunzenskiy
Yunusobod
Qo'yliq
Qoraqamish
Qorasuv (Sergelida)

Restoranlar, Kafelar:

"Bahor" "Toshkent" "Bolgariya" "Farg'ona"
"Dilbar" "Chilonzor" "Buratino" "Chinor"
"Do'stlik" "Yulduz" "Dilorom" "Shirin"
"Tuliston" "O'zbekiston" "Kiyevlyanka"
"Zarafshon" "Lazzat"
"Kooperator" "Moviy gukbazlar"
"Leningrad" "Muborak"
"Moskva" "Oktyabr"
"Medisina" "Parhyez taomlar"
"Rossiya" "Salom"
"Samarqand" "Snejok"
"Sayohat" "Toshkent"

Alohida savdo do'konlari, pavilon, kiosklarning nom-lari tartib raqamlari, hajmp hamda sotiladigan mol tu-rini aks ettirgan holda (Chilonzor dehqon bozori, Shimo-liy Olmazor bozori, Qoraqamish 1/3 bozorchasi, Markaziy universal magazin (SUM), Bosh universal magazin (GUM), 1-galantereya magazini, 7-sonli gastronom, 49-do'kon, 1-ki-tob do'koni, "Ganga", asosan, hind tovarlari bilan savdo qilgani bois, "Russkiy len" - ko'proq bo'z matolari mahsu-lotlari sotilgani uchun, b-sonli gul do'koni) hamda faoli-yat yo'nalishi va ma'naviy-madaniy hayot bilan bog'liq holda atalgan ("Znaniye" kitob do'koni, "Mebellar uyi". "Elektroterm", "Tyuyacha melochey" (uy-ro'zg'or buyumlari), "Matolar uyi" - "Dom tkani", "Tohir va Zuhra").

Umumiy ovqatlanish joylari bilan bog'liq toponimlar tar-kibida geografik hudud ("O'zbekiston", "Rossiya", "Bolgariya", "Toshkent", "Farg'ona"), ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan bog'-liq ("Kooperator", "Medisina", "Sayohat"), tabiat yoki mada-niy-ma'naviy sohaga tegishli ("Yulduz", "Bahor", "Lazzat", "Shirin", "Dilbar", "Do'stlik", "Muborak") joy nomlari uch-raydi, ularning ayrimlari restoran yoki kafening o'ziga xos-ligini aks ettiradi. Masalan, shaharning markaziy qismida gsashgan o'sha davrda mashhur sanalgan "Moviy gumbazlar" tuzilishida moviy rangdagi gumbazlar qurilgan va ular binog; , xos milliylik hamda salobat bag'ishlagan, "Burat; fesi nstirohat bog'i yonida qurilgan bo'lib, ertak kahramoni nomi bilan atalgan va ayniqsa.

bolalar uchun qiziqarli bo'lgan "Snejok" ("Qor parcha") ka-fesi o'zining turli-tuman muzqaymoqlari bilan tanilgan.

1966-1980 yillar davomida iqtisodiyot sohasi bilan bir qatorda shaharning ijtimoiy sohasi ham o'ziga xos tarzda rivojlanib borgan va mazkur jarayonni ma'rifiy, tibbiy va ijtimoiy himoya sohalariga oid joy nomlarining tarki-biy o'zgarishlarida kuzatish mumkin.

Zilzila oqibatida zarar ko'rgan ma'rifiy muassasa-lar binolari tez orada ta'mirlanib, yangi inshootlar qurish ishlari jadallashgan. Xalq ta'limi harajatlariga 1971 yilda 52.828 ming, 1976 yilda 84.605 ming, 1981 yilda esa 110.484 ming rubl ajratilgan¹.

70-yillarda maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi muassasalar soni 1960 yildagiga nisbatan 90 taga oshgan va 430 taga yetgan, ulardagi tarbiyalanuvchilar soni esa 73.795 tani tashkil qilgan, 1980 yilda bu ko'rsat-kichlar mos ravishda 588 ta hamda 128.270 taga teng bo'lgan². Biroq reja bo'yicha qurilishi lozim bo'lgan bog'cha-yaslilar o'z vaqtida bitirilmagani sababli, 1979 yildan boshlab Sha-har Xalq ta'limi boshqarmasi bolalarni qabul qilish re-jasini bajara olmaganligi manbalarda qayd etiladi³. Maktabgacha yoshdagi bolalarga mo'ljallangan muassasalarning 80%i maxsus qurilgan va jihozlangan binolarda joylashgan bo'lsa, qolgan 20 %i shunchaki moslashtirilgan binolarda joylash-tirilgan bo'lib, ular jiddiy ta'mirga muhtoj edi (S.Ra-himov, Oktyabr, Hamza rayonlarida). Shaharda bolalarning bog'cha va yaslilarga qatnashi darajasi 65 %ni tashkil qilgan. Bolalar bog'chalari va yaslilar Shahar xalq ta'limi boshqarmasi, turli tashkilotlar hamda Shahar sog'liqni saqlash boshqarmasi tasarrufida bo'lgan. Masalan, 1979 yilda ularning soni quyidagicha taqsimlangan (18-jadval)⁴:

18-jadval

Toshkent shaxrida 1979 yil bo'yicha maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi muassasalari

Qaysi tashkilot taasarufida	Muassasalar soni	Ulardagi bollar soni	Ulardagi o'rinlar soni
-----------------------------	------------------	----------------------	------------------------

¹ Архив Ташгороно. Ф-13 жамғармаси, 6-рўйхат, 62-йитаажилд, 342-варақ

² УзССР энциклопедияси. - Т., 1931. - 465 б.

³ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-7 жамғармасп. 4-рўйхат, 47!)-йиғмажилд, 60-варақ

⁴ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-7 Жс.мғармаси, 4-рўйхат, 108-йиғмажилд, 7-варақ.

GUNO (Shahar halq ta'lim boshqarmasi) – jami shu jumladan:	373	87227	69712
Yasli-bog'cha	347	84295	67477
Doimiy yasli	26	2932	2235
Vedomstvennyy (tashkilotlarga tegishli) shu jamladan:	212	40719	35720
Yasli-bog'cha	194	38541	33575
Doimiy yasli	18	2178	2145
Gorzdrav Shahar sog'liqin saqlash boshqarmasi)	3	280	285
Jami: shu jumladan	588	128226	105717
Yasli-bog'cha	541	122836	101052
Doimiy yasli	47	5390	4665

Bolalar bog'chalari nomlanishida tartib raqamlari bi-lan yuritilgan (237-bolalar bog'chasi, 80-bolalar bog'chasi), ayrim bog'chalarga, ayni vaqtda, 'o'ziga xos nomlar ham be-rilgan ("Gulliver" 126-bolalar bog'chasi, "Kamalak" 58-bolalar bog'chasi), ba'zi bog'chalar korxonalar qoshida tash-kil qilinib, ularning nomlarida ushbu holat aks etgan (To'qimachilik kombinati 1-bog'chasi, Temir yo'l deposi bog'-chasi, STO zavodi bog'chasi).

Maorif tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan maktab-lar qurilishi va ta'mirlash ishlari mazkur davrda davom ettirilgan. 1966-1970 yillar oralig'ida 75 ta, 1971-1975 yillarda 42 ta yangi maktab binosi qurilib, foydalanishga topshirilgani hujjatlarda qayd qilingan¹. 1971 yilda shaharda jami 319 ta maktab faoliyat yuritgan va ularda 271,7 ming o'quvchi ta'lim olgan, o'qituvchilar soni 12,2 ming-taga yetgan; 1976 yilda bu ko'rsatkichlar mos ravishda - 335 va 281,5 ming, 13,1 ming; 1980 yilda - 323 va 302,8 ming hamda 14,9 mingga teng bo'lgan².

80-yillarda maktablar 10 turga bo'lingan: o'zbek tilida ta'lim beruvchi, rus tilida ta'lim beruvchi, o'zbek va rus til-larida o'qitadigan, bir qator fanlarni xorijiy tillarda o'rgatadigan, ba'zi fanlar chuqurlashtirilgan maktablar, mak-tab-internat, musiqali maktab-internat, kechki (smenli) maktab, kunduzgi maktablar binosida joylashgan kechki maktablar o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari.

Maktablar nomlanishi avvalgi yillardagidek shaxs ismi bilan atalib, tartib raqamlari bilan belgilangan. Shuningdek, respublikaga qarashli 7 ta maxsus maktab ham bo'lgan (Uspenskiy nomidagi musiqa maktab-internati, 110-sonli

¹ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-7 жамғармаси. 3 рўйхат, 24-йиғмажилд, 53-варак.

² Народное хозяйство УаССР в 1979 г. - Т. 1980. - С.233; Ташкент. Географический атлас. Сост.: Академия наук УзССР Отдсл геогра-фии. - М., 1984. - С.37

max-us musiqa-badiiy maktab-internat, ko'zi ojiz bolalar uchun maktab-internat, rus tilini chuqurlashtirib o'rgatuvchi mak-tab-internat, Titov nomidagi sport yo'nalishidagi maktab-internat, Gliyer nomidagi musiqali maktab-internat)¹.

Maorif tizimi maktablar bilan bir qatorda o'rta ta'lim kasbiy-texnika bilim yurtlari ham faoliyat yur gan bo'lib, ular jumlasiga texnikum, SPTU, TU, GSPTU kabi muassasalar kirgan. Ularda im berishning kukduzgi, kechki va sirtqi shakllari bo'lgan. Mazkur bilim dargohlari xalq xo'jalik tarmoqlariga ko'ra ixtisoslash-tirilgan: sanoat va geolograzvedka, qurilish va transport, qishlok xo'jaligi, gidromeliorasiya, iqtisod, tibbist. maorif va jismoniy tarbiya, poligrafiya, madaniyat va san'at, transport, aloqa, savdo, oziq-ovqat va boshqa sohalar.

Shahar xo'jalik tarmoqlari rivojlanishi bilan birga, ularga mutaxassislar tayyorlovchi o'rta maxsus bilim yurtlari-ga bo'lgan talab oshgak va shu bois 1966-1980 yillarda bun o'quv dargohlari soni ko'paytirilgan. Xususan. 1971 yilda tex-nikumlar soni 30 ta bo'lib, ularda 42,0 ming o'quvchi tahsil olgan bo'lsa, 1980 yi.llda bu ko'rsatkichlar 36 ta hamda 52,4 ming-taga teng bo'lgan. Bilim yurtlari (uchilishe) esa 1975 yilda 36 ta, ulardagi o'quvchilar soni 21,1 miigta; 1980 yilda zsa 49 ta bilim yurtida 29,6 mingta o'quvchi tahsil olgan². Kasbkyy za texnika ta'limini beruvchi ushbu o'kuv muassasalari mustaqil tarzda, ba'zida esa ma'lum ishlab chiqarish obyekti qoshida tashkil etilgan, masalan, 1980 yilda Hamza tumanida V.P.Chkalov nomli Toshkent aviasiya ishlab chiqarish birla qoshida 266-sonli bilim yurti ochilgan, unda aynan shu korxona faoli-yati uchun zarur yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlangan. Barcha bilim yurtlari faoliyati Kasb-hunar bilim yurtlari boshqar-masi tomonidan nazorat qilingan.

Quyida 1980 yilda faoliyat yuritgan Toshkent shahrida-gi texnikumlar ro'yxati keltiriladi³:

1. Madaniy-ma'rifky texnikum.
2. Seologorazvedka texnikumi.
3. N.G.G'aniyev nomidagi kinotexnikum.
4. Elektromexanika texnikumi.
5. Topografik texnikum.
6. Aloqa politexnikumi.
7. Gidrometeorologiya texnikumi.
8. Hisob-kredit texnikumi (uchetno-kreditn).
9. Texnologik texnikum.
10. Qurilish texnikumi.
11. Poligrafik texnikumi.
12. V.A.Bilbas nomidagi gdromeliorativ texnikum.
13. Yu.A.Gagarin nomidagi aviasion texnikum.
14. Mashinasozlik kechki texnikumi.
15. Ijtimoiy ta'minot texnikumi.
16. A.Abduraxmanov nomli politexnikum.

¹ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-7 жамғарма. 3-рўйхат, жилд, 7-11-варак

² Ташкент. Географический атлас. Сост.: . географии. - М., 1984. - С.38.

³ Ташкент. Географический атлас. Сост.: . географии. - М., 1984. - С.38.

17. Moliya texnikumi.
18. Hisob-buxgalterlik texnikumi.
19. Elektrotexnika tibbiy texnikumi.
20. Kommunal xo'jalik texnikumi. •
21. Temir yo'l transporti texnikumi.
22. 1-sonli industrial-pedagogika texnikumi.
23. Sovet savdosi texnikumi.
24. Yuridik texnikum.
25. 2-sonli industrial-pedagogika texnikumi.
26. Mehmonxona xo'jaligi texnikumi.
27. Y.Oxunboboyev nomidagi tibbiy bilim yurti.
28. Hamza nomidagi musiqa bilim yurti.
29. P.F.Borovski nomidagi shahar tibbiy bilim yurti.
30. P.P.Benkov nomli rassomchilik (xudojestv.) bilim yurti.
31. Xoreografiya bilim yurti.
32. N.K.Krupskaya nomidagi pedagogika bilim yurti.
33. Yu.Rajabiy nomidagi pedagogika bilim yurti.
34. V.I.Lenin nomidagi pedagogika bilim yurti.
35. Toshkent Tibbiyot instituti qoshidagi tibbiy bilim yurti.

Texnikumlarning nomlarida ta'lim dargohining ixti-sosligi aks etgan, ba'zilarida antropotoponimlar ham tar-kibiy qismi sifatida qo'shilgan (Moliya texnikumi, Yu.A.Ga-garin nomli aviasiya texnikumi, N.G.Glinka nomidagi kino-texnikum, Hamza nomli musiqali bilim yurti, Xoreografpya bilim yurti). Kasb-hunar bilim yurtlari nomlarida esa mu-assasa turi va o'quv dargohining tartib raqami aks etgan (34-TU, 155-GSPTU)¹.

Maorif tizimida yuqori pog'ona hisoblangan oliy o'quv yurtlari va ularda tahsil oladigan talabalar soni ham 1966-1980 yillarda oshgan. 1966 yilda Toshkent shahrida 17 ta oliy o'quv yurti bo'lib, ularda 93,5 ming nafar talaba tah-sil olgan. 1971 yilda oliy o'quv yurtlari soni 16 ta, talaba-lar soni 125,1 mingta; 1981 yilda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda - 21 ta (shu jumladan, 2 ta filial institut) va 147.1 mingtani tashkil qilgan². Oliy o'quv yurtlari 9 ta asosiy ixtisoslik bo'yicha tasniflangan: universitet, sa-noat, transport va aloqa, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot va savdo, tibbiyot, madaniyat va maorif, san'at, jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi institutlar. Jami 80-yil-larda quyidagi institutlar faoliyat yuritgan³:

1. V.I.Lenin nomidagi Toshkent Davlat universiteti.
2. Qishloq xo'jaligi instituti.
3. Tibbiyot pediatriya instituti.
4. Madaniyat instituti.
5. Elektrotexnika aloqa instituti.
6. Qishloq xo'jaligi va irrigasiya muhandislari instituti

¹ Toshkent shahar Dazlat arxivi. Ф-7 жамғарма. 4-рўйхат. -4 7<)-йиғма-жилд, 1-10-варақлар.

² Народное хозяйство УзССР в 1979 г. - Т., 1980. - С.240; Ташкент. Географический атлас. Сост.: Академия наук УзССР Отдел геогра-фии. - М., 1984. - С.39.

³ Ташкент. Географический атлас. Сост.: Академия наук УзССР От-дел географии. - М., 1984. - С.39.

7. M.Ashrafiy nomidagi konservatoriya.
8. Abu Rayhon Beruniy nomidagi politexnika instituti.
9. Respublika rus tili va adabiyoti instituti.
10. Avtomobil-yo'llar instituti.
11. Tibbiyot instituti.
12. Xalq xo'jaligi instituti.
13. Jismoniy tarbiya instituti.
14. A.N.Ostrovskiy nomidagi Teatr-badiiy (xudojestv.) instituti.
15. Nizomiy nomidagi Pedagogika instituti.
16. Farmasevtika instituti.
17. F.Engels nomidagi Xorijiy tillar pedagogika in-stituti.
18. To'qimachilik va yengil sanoat instituti.
19. Temir yo'l transporti muhandislari instituti.
20. Kiyev fug'arolik aviasiyasi muhandislari instituti
21. Samarqand Kooperasiya instituti filiali (sirtqi bo'lim)

Institutlg nomlari, asosan, ularning ixtisoslik nomi bilan bog'liq, shuni ulardan 6 tasi tarkibida antropotoponimlar ham bo'lgan. Tadz tgan davrda Toshkent shahrida tibbiyot tig'ridagi muhim o'zgarishlar ushbu sohadagi muassasalar tarmog'ini kengaytirish va takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan, zero, hududiy jihatdan kengayib ayotgan shaharda tibbiy xizmatlab darajasida bo'lmagan. shahar kasalxonalari joylashgan maydon kichik ib, ulardagi o'rinlar ham yetishmagan, jumladan, bir o'rin ajratilgan, meyerga ko'ra esa 0 kv.m. talab respublika kasalxonalari bilan birga

•da 17065 ta o'rin bo'lgan va ularning 27%i yoki 4600

tasi bop yuyatlardan kelgan bemorlarga ajratilgan, shu

;un 13456 ta o'rin kolgan, me'yorga ko'ra Mazkur kamchilik-araf etish yuzasidan 1960 yil iyun oyida KPSS SSSR Ministrlar Soveti tomonidan qaror qabul :ga ko'ra Toshkent shahrida 1970 yilga qadar 3724 jallangan kasalxonalar hamda 17000 o'rinli poli-[ar qurilishi rejalashtirilgan . Nat] 1970`1980 yillar mobaynida, ayniqsa. ambu-

' va poliklinika, apteka, sanitariya-epidemiologik [lar soni oshib borgan. Ularda ishlash uchun mutaxas-yangi oliy va o'rta maxso's o'quv muassasa-t yo'nalishdagi in-o'quv yurti, shifo-a o'rta maxsus garda tibbiy soha m gyot sohasid; izlanishlar ha! morlarni davolash ishlariga qo'yilgan. 1980 yillarnikg boshida Toshkentda 65 ta shifoxona, 13 ta tug'uruqxona, 42 ta ioliklinika, 26 ta dis-paiser, 12 ta sanitariya maorifi uylari, 16 ta sanatoriy, 11 ta sanitariya epidemologik stansiya, 130 ta apteka, 18 ta medtexnika va optika do'konlari bo'lgan .

Tibbiy muassasalarning nomlari ularning turi va fao-liyat yo'nalishi (Endikronologiya Instituti, Akusherlik va ginekologiya ilmiy-tadqiqot instituti, Gematologiya va qon instituti, Ko'z kasalliklari ilmiy-tadqiqot in-stituti). muassasa turi va tartib raqami (2-sonli tug'u-ruqxona, 42-poliklinika, 15-sonli shahar klinika shifo-xonasi, 7-sonli optika magazini, 8-sonli apteka), faoliya-ti, tartib raqami, qaysi hududga yoki tashkilotga tegishli-ligi (Uzbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Toshkent Medisina instituti, 1-sonli shahar aptekasi, Toshkent shahar

sanitariya-epidemiologiya stansiyasi, Chilonzor tumani SES, O'rta Osiyo medisinada pediatriya instituti (SAM-PI)), ba'zida taniqli shaxs ismi yoki muassasaning qayerda joylashgani, uning tartib raqami bilan bog'liq holda atalgan (Abu Ali ibn Sino nomidagi 1-sonli shahar klinika shifoxonasi, Chkalov nomidagi Toshkent Aviasiya ishlab chiqarish birlashmasining tibbiy-sanitariya bo'limi (Med-sanchast TAPOiCh), Semashko nomidagi sog'lomlashtirish sanatoriysi).

II.3. Madaniy xayot va maishiy xizmat sohasini aks ettiruvchi toponimlar tarkibidagi o'zgarishlar

Toshkent shahri respublikadagi madaniyat va san'at markazi hisoblanib, zilziladan keyingi yillarda ham shaharda Respublikaning madaniy muassasalarining asosiy qismi joylashgan bo'lib, u par o'z faoliyatini davom ettirgan va rivojlanib borgan. Shahardagi istirohat bog'lari, muzeylar, teatr, kinoteatrlar, kutubxonalar soni oshib, ular aholining madaniy ehtiyojlari uchun xizmat qilgan. Biroq mustabid sovet hukumati ushbu tashkilotning ijodiy ishini sovet mafkurasiga mos tarzda belgilab, barcha erkinliklaridan mahrum etgan va kuchli kazorat ostida tutgan. Madaniy muassasalar ham besh yillik rejalar asoslashni davom ettirib, ushbu rejani bajarish maqsadli kamchilik va xatolarga. Ayni vaqt-

Parkda tomoshalar uchun zal hamda lektoriylar qurilgan. Ularda konsertlar, mavzuli kechalar, adabiyot va san'at, ilm-fan sohasi mutaxassislari bilan uchrashuvlar, shahar tashkilotlari o'rtasida musobaqalar tashkil qilingan, teatr tomoshalari qo'yilib, hujjatli filmlar namoyish etilgan. Tadbirlar aksariyatining maqsadi madaniy-ma'rifiy bilimlarni oshirish bo'lsa-da, ularda mavjud davlat siyosati-ning tanholigi va socialistik tizimning benuqsonligi, kommunistlar partiyasi yagonaligi mavzusiga, albatta, urg'u berilgan. Masalan, 1979 yilda shahar parklarida o'tkazilgan bir nechta tadbirlarning mavzulari quyidagicha bo'lgan: Kecha nomi - "Bizda asosiysi - bu Sovetlar mamlakati", "Uch beshyillik rejalari - Yangi Konstitusiyasining bir yilligi uchun", "Bilimlar mamlakati va fan cho'qqilari sari"; lektoriylarda o'qib eshitirilgan ma'ruzalar mavzulari - "Sovet turmush tarzi", "Davlat va huquq", "SSSR Konstitusiyasi - mehnatkashlar mamlakatining asosiy qonuni"; teatrlashtirilgan bayramlar mavzulari - "Sovet mehnatiga shon-sharaflar", "Sovet odami - bu haqiqiy g'urur". Shahar ahli hamda mehnatkashlarining bo'sh vaqtlarida bunday tadbirlardagi ishtirokni ta'minlash uchun turli korxona, muassasa rahbarlari hamda isti-rohat bog'lari ma'muriyati mas'ul hisoblangan. Ushbu madaniy tadbirlar aholi ma'naviy dunyoqarashining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan¹.

1970-1980 yillar davomida shahar hududida yangi bog'lar yaratilib, 1980 yillarda Toshkentda quyidagi 22 ta park va bog' bo'lgan²:

1. O'zbek SSR FA Botanika bog'i
2. V.I.Lenin nomli Toshkent davlat universiteti Bota-

¹ Ташкент шаҳар Давлат архиви. Ф-7 жамғармаси, 4-рўйхат. 107-йиғмажилд, 89-варақ.

² Ташкент. Географический атлас. Сост.: Академия наук УзССР От-д-ел географии. - М., 1984. - С.55.

- nika bog'i
3. Sobir Rahimov nomli madaniyat va istirohat bog'i
 4. XXYuK (VDNX) dam olish zonasi
 5. Gulshan madaniyat va istirohat bog'i
 6. A.S.Pushkin nomli madaniyat va istirohat bog'i
 7. San'at saroyi qoshidagi Kichik bog'.
 8. Telman nomidagi madaniyat va istirohat bog'i. E. Hayvonot bog'i (Zoopark).
 10. Eski dubovaya rosha.
 11. Yu.A.Gagarin nomli madaniyat va istirohat bog'i.
 12. Inkilob xiyoboni.
 13. M.Gorkiy nomidagi bolalar parki.
 14. V.I.Lenin nomidagi bolalar parki.
 15. Kommunarlar xiyoboni.
 16. Lenin komsomoli nomli Markaziy madaniyat va isti-rohat bog'i.
 17. Shumilov nomli madaniyat va istirohat bog'i.
 18. S.M.Kirov nomli madaniyat va istirohat bog'i.
 19. O'zbekiston VLKSM 40 yilligi nomli madaniyat va istirohat bog'i.
 20. 1 May nomidagi madaniyat va istirohat bog'i.
 21. Furqat nomli madaniyat va istirohat bog'i.
 22. Kommunistik shanbalikning 50 yilligi nomli mada-niyat va istirohat bog'i.

Bog' va parklarning antropotoponimlar va tarixiy vo-qyeliklar bilan bog'liq nomlari ko'p uchraydi (Furqat nom-li madaniyat va istirohat bog'i, A.S.Pushkin nomli madaniyat va istirohat bog'i, 1 May nomidagi madaniyat va istirohat bog'i, Kommunarlar xiyoboni), bog'ning ma'lum tashki-lotga tegishliligi, asosiy faoliyat yo'nalishi yoki o'ziga xos xususiyatini aks ettiruvchi toponimlar soni nisbatan kam (O'zbek SSR FA Botanika bog'i, San'at saroyi qoshida-gi Kichik bog', Hayvonot bog'i).

Toshkent zilzilasi oqibatlarini bartaraf etish bilan birga. shaharda yangi teatr, konsert zallari, madaniyat sa-roylari qurilgan. 1980 yillar o'rtalarida shaharda 9 ta te-atr tomoshabinlarga xizmat qilgan. Konsert zallari soni 7 taga yetgan, ulardan 2 tasi: 800 ta o'rinli Bilimlar uyi (1968 y.) konsert va kino zallari, 4000 ta o'ringa ega Xalk-lar do'stligi saroyi (1981 y.) konsert zali aynan shu davrda barpo etilgan. Ba'zi konsert tomoshalari turli madaniyat saroyi va klublar qoshidagi zallarda namoyish qilingan, masalan. Aviasozlar madaniyat va texnika saroyi. Poyabzalchilar madaniyat saroyi, Temiryo'lhilar madaniyat sar kabi. Ushbu davrda shaharda Xarbiy yig'ilishlar zali, "Bahor", konservatoriya, Ya.M.Sverdlov nomidagi, San'at sar rt zallari ham yat yuritgan.

Shahar ahli va poytaxt mehmonlarining madaniy horl chiqarishida kinoteatrlar alohida o'rin tutgan. Toshken' ^avomida kino namoyish qiluzchi qishki, mazsumiy s' atrlar hamda ko'chib yuruvchi kinomoslamalar bulgan, oid hujjatda kinoteatr, kino maydonchalari, ko'chib yur; boshqa turdagi kinomoslamalar soni 70 taga yetgani qatan.

1966 yilgi zilzila oqibatida shahardagi 3 mingga o'ringa ega 6 ta kinoteatr zarar ko'rgan. Shaharni rekonstruksiya qilish rejasida yangi kinoteatrlar qurish hamda es-kilarini ta'mirlash nazarda tutilgan. 1970—1981 yillarda qurilgan yangi kishki kinoteatrlar katorida "Lisunova", "Yunusobod*", "G'uncha". "Yangiobod", San'at saroyining Ki-chik zali, yozgi kinoteatlardan: "Oktyabr 60 yilligi", "Kosmos", "O'zSSR 50 yilligi", "Pushkin", "Do'stlik", "Pobeda", "Sputnik", "Yubileyniy". "Xusnobod", shuning-dek. maktablarda o'rnatilgan 14 ta kinomoslamalarni sanab o'tish lozim. Ular shaharning turli rayonlarida joylash-gan bo'lib, qishki kinoteatrlar 300, 450, 600 ta, yozgilari esa 300 ta o'ringa ega edi. Mazkur davrda ba'zi kinoteatr-lar binolari eskirgani va zamon talabiga javob bermagani sababli, ular yopilgan. Masalan, jami 3470 ta o'ringa ega bo'lgan "Pushkin", "Ordjonikidze", "O'zbekiston", "Tash-gres", "Oqtepa". "Yulduzcha", "Yangi hayot", "Zafar" kino-zallari 1979 yilda o'z faoliyatini to'xtatgan. Kinofikasiya boshqarmasi barcha kinoteatrlar oraoliyatini boshkargan. 1979 yili uning qoshida maxsus metodik kabinet ochilib, uning asosiy vazifasi kinoxizmat madaniyatini oshirish, kiko san'atini targ'ib qilish, repertuarlarni rejalashtirish. madaniy-ommaviy tadbirlarni ishlab chiqish hamda ular-ning o'tkazilishini nazorat qilishdan iborat bo'lgan.

Kinoteatr odamlar eng ko'p tashrpf buyuradigan mada-niy muassasalardan biri hisoblanardi. Xususan, 1980 da shahar kinozallarida 19,14 mln. tomoshabinga kinolar namoyish qilingan (rejada 17,16 mln. mu.pjallangan) va har yili ushbu ko'rsatkich opshb borgan. Mazkur lik ko'rsatkich 13,6%ga ko'tarilgan. 1982 yilda shahar Kino-fikasiya boshqarmasi tasarrufida 195 ta kinomoslamadan (45.8 o'rinli) 25 tasi qishki kinoteatr, 35 tasi yozgi kino-teatr, 3 tasi arenda kinozali, 113 tasi maktab kinomosla-malari, 19 tasi avtokinomoslamalar bo'lgan¹. 1980 yillar-da kinoteatrlar foyelarida kunduzgi kino apparatlari o'rnatilgan, barcha kinoteatlar avtomatik javob beruvchi te.lefonlar bilan ta'minlangan, seanslar namoyishidan oldin mikrofon orqali butun zaldagi tomoshabinlarga mu-rojaat qilinib, kelgusi haftada namoyish etiladigan ki-nofilmlar haqida va boshqa axborotlar yetkazib turilgan. Toshkent kinoteatrlarida turli anjumanlar, shu jumla-dan, xalqaro kinofestivallar ham o'tkazilgan. 1980 yilda Toshkentda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakat-lari VI Xalqaro kinofestivali o'tkazilgan.

1980 yillarda Toshkent shahrida quyidagi katta ki-noteatrlar faoliyat yuritgan²:

1. "Festival"
2. "Vostok"
3. San'at saroyi
4. K.Yormatov nomidagi
5. G'.G'ulom nomidagi
6. Navoiy nomli
7. "Ko'kcha"

¹ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-7 жамғармаси, 4-рўйхат. 479-мигмажилд, 1(5, 41-варақлар.

² Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-7 жамғармаси, 3-рўйхат, 445-йиғмажилд, 73-варақ.

8. "G'uncha"
9. "Nukus"
10. "Chayka"
11. Tashsovet 50 yilligi nomidagi
12. "Moskva"
13. VLKSM 30 yilligi nomli
14. Kinomoslamalar byurosi
15. "Drujba"
16. "Qozog'iston"
17. UzSSR 25 yilligi nomli
18. "Pioner"
19. Hamza nomidagi
20. "Yan:
21. S.Rahimo bog'i
22. Lisunov nomidagi
23. «Tinchlik»
24. «Vatan» 1982 y.

1976 yilda shahar maishiy xizmat ko'rsatish tizimida 1363 ta atelye va ustaxona birlashtirilgan, ular jumlasiga 40 ta yirik maishiy xizmat uyi (dom bmta) hamda maishiy xizmat kombinati kiritilgan. Ularning katta qismi ko'p qavatli uylarning birinchi qavatlarida hamda umumiy-savdo mar-kazlarida maxsus jihozlangan xonalarda joylashgan.

Shahar hududi bo'ylab maishiy xizmat ko'rsatish muassari ixtisosligi, turlariga ko'ra rayonlar bo'yicha joylashgan va bu holat ularning nomlarida yaqqol namoyon bo'lgan. Jumladan. 1972 yilga oid hujjatda quyidagi maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari nomlari qayd etilgan (19-jadval).

19-jadval

Maishiy xizmat ko'rsatish joylari¹

Rayon va muassasa nomlari	Rayon va muassasa nomlari
Kirov rayonida:	9.DOSAAF
1. Kirov RPO	10. Hammom va kir yuvish xizmati
2. «Uzstroyrembyt» tresti shahar RSU	Lenin rayonida:
3. Metallobgremoit kombinati	11. Lenin nomli indposhiv fabrikasi
4 Fotoreklama kombinati	12. "Remtochmxr" kombinati
5. Tashtopbaza	13. Lenin RPO
Kuyibyshev rayonida	14. Nosaioat xizmatlar komoinati
7. Kuybishev RPO	15. Turar joy almashtirish byurosi
8. Ortopediya zavodi	16. «Svety Tashkenta» kantorasi

¹ Тошкент шаҳар Давлат архиви. Ф-7 жамп: :-рўйхат. 305- йиғмажилд -5-варақ

Rayon va muassasa nomlari	Rayon va muassasa nomlari
17. «Tashgaz» boshqarmasi	34. Hammom va kir yuvish xizmati Chilonzor rayonida:
18. Savdo ministrligi muassasalari	35. "Novipka" atelyesi
19. Hammom va kir yuvish xizmati	36. "Sever" fabrikasi
20. Transagentlik	37. Chilonzor RPO
21. Madaniyat ministrligi muassasalari	38. Shahar "Uzavtotexxizmati" 3!). Hammom va kir yuvish xizmati Hamza rayonida:
Oktyabr rayonida:	40. "Servis" firmasi
22. Oktyabr RPO	41. Xamza RPO
23. "Goluboy ekran" teleatelyesi	42. 2-son.tta indposhiv fabrikasi
24. Hammom va kir yuvish xizmati	43. "Uzmedtex." - Sog'liqni saqlash ministrligi
Sergeli rayonida:	44. Fuqarolarga xizmat ko'rsatish boshqarmasi
25. Hammom va kir yuvish xizmati Sobir Rahimov rayonida:	45. Hammom va kir yuvish xizmati
26. "Remmebel" kombinati	
27. Hammom va kir yuvish xizmati Frunze rayonida:	
28. "5 Dekabr" fabrikasi	
29. Lombard	
30. "Ximchistka" fabrikasi	
31. Frunze RPO	
32. Yepgil sanoat mshshstrligi muassasalari	
33. Ko'ngillilar o't o'chirish jamiyati	

Maishiy xizmat muassasalari bilan bog'liq toponimlar-ni ma'lum guruhlarga tasniflash mumkin: hududiy joyla-shuvi hamda xizmat turi aks etgan (Kirov RPO, Shahar "O'zavtotexxizmati", "Tashgaz" boshqarmasi), raqamla belgilangan (asosan, hammomlarning nomlari raqamlangak), faoliyat turini ko'rsatgan (Ortopediya zavodi, Turar joy almashtirish byurosi, "Remmebel" kombinati, "Ximchist-ka" fabrikasi), muassasa faoliyati bilan bog'liq holda o'ziga xos tarzda nomlangan ("Goluboy ekran" teleatelyesi, "Sve-t! Tashkenta" kontorasi, "Servis" firmasi).

Toshkent shahrining poytaxt maqomida bo'lishi uning barcha sohalar bo'yicha yirik markazga aylanishiga sa bo'lgan. Toshkentga turli o'lkalardan tashrif buyurgan moh-monlar uchun shaharda mehmonxonalar xizmat qilgan. 1971 yilda Maishiy korxonalar boshqarmasiga tegishli 2004 ta o'ringa ega 5 ta hamda boshqa muassasalar tasarrufidagi 1370 ta o'rinli 4 ta, jami - 3414 o'ringa ega 9 ta

mehmonxo-na faoliyat yuritgan. Ya'ni har 1000 kishiga 2,4 o'rin to'g'ri kelgan, biroq qabul qilingan me'srlarga ko'ra 5 ta o'rin to'g'ri kelishi lozim bo'lgan. Shu tariqa mehmonxona tarmo-g'ini kengaytirish masalasi dolzarb sanalgan. 1960-1970 yil-larda "Rossiya", "Do'stlik", "Zarafshon" nomli 1182 o'rin-li yangi mehmonxonalar qurilib, ishga tushirilgan va jamp mehmonxonalar soni 12 taga yetgan. Ushbu mehmonxonalar Maishiy korxonalar boshqarmasi boshchiligida barpo qilin-gan. 1970 yillarda boshqa tashkilotlar tomonidan 600 o'rin-ga mo'ljallangan "Leningrad", 930 o'rinli "O'zbekiston" hamda 350 o'ringa moslashtirilgan "Yunost" mehmonxonala-ri qurilgan. Keyinchalik ko'pchilik mehmonxonalar Tosh-kent shahar hokimiyati Mehmonxona xo'jaligi boshqarmasi-ga tegishli bo'lgan. 1990 yillarning boshida quyidagi meh-monxonalar faoliyat yuritgan:

Mehmonxona nom.pari:

1. "Toshkent"
2. "Rossiya"
3. "Zarafshon"
4. "Do'stlik"
5. "'O'zbekiston"
6. "Leningrad"
7. "Chorsu"
8. "Xadra"
9. Idoralarga tegishli: "O'zbekbirlashuv" 10." Ippodorom"
11. "Yoshlik"
12. "Lokomotiv"
13. "Sayohat"
14. "Kosmos"
15. "Vostok"

Mehmonxonalar bilan bog'liq toponimlarni geografik joy ("O'zbekiston", "Toshkent", "Zarafshon", "Vostok", "Rossiya", "Leningrad"), obyekt joylashgan hudud ("Chor-su", "Ippodrom"), mehmonxona tegishli bo'lgan idora yoki uning faoliyati ("O'zbekbirlashuv", "Lokomotiv", "Kosmos"), shuningdek, madaniy-ma'naviy sohalar ("Yoshlik", "Do'stlik") bilan bog'liq nomlarga ajratish mumkin.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, 1966-1980 yillarda Toshkent shahar toponimlari soni ko'paygan va ularning tarkibida shaxs ismi bilan atalgan, ijtimoiy-iqtisodiy hayot hamda geografik joy nomlari bilan bog'liq tarzda nomlangan mikrotoponimlar salmog'i yuqori bo'lgan. Antropoto-ponimlarning katta qismi ko'cha va mahalla, maktab, kutub-xona, istirohat bog'lari nomlarida uchraydi. Iqtisodiy va ijtimoiy hayot bilan bog'liq toponimlarning ma'muriy organlar, zavod, fabrika va boshqa ishlab chiqarish korxo-nalari, ta'lim, tibbiy muassalar nomlanishida salmog'i yuqori bo'lib, obyektning o'ziga xos jihatlarini aks eti-ruvchi nomlar, asosan, madaniy muassasalar, maishiy xiz-mat obyektlariga qo'yilganligi kuzatiladi. Tabiiy shart-sharoitlar bilan bog'liq mikrotoponimlar hamda etnotopo-nimlar salmog'i esa ushbu davrda tobora kamayib borgan va ularning aksariyati turar-joy massivlari hamda ayrim ko'cha va mahallalarning nomlarida saqlanib qolgan. Raqamlar va so'zlar bilan aralash holda atalgan

toponimlar deyarli barcha sohalarga oid obyektlarning nomlanishida, shuning-dek, ko'cha, mahalla, mavzelarning nomlarida uchrab. odat-dagidek, muassasa yoki ma'lum turdagi joyning tartib ra-qamini anglatgan.

X U L O S A

1917-1980 yillar oralig'ida O'zbekiston hududida kechgan tarixiy voqyealar Toshkent shahrining maqomi, hududy, iholisi, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy taraqqiyoti hamda topografik va topokimik jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatgan.

Inqilob natijasida hokimiyatni egallagan bolshesik-larning kommunistik g'oyalarni targ'ib etishi, oarcha xalqlarni yagona mafkuraga bo'ysukdirishga urinishlar tomonidan yagona markaz ko'rsatmalariga amal talabi ilgari surilishi sababli, Toshkent shahrinin muriy qismlari, mahalla va ko'chalari. undagi tashkil qilingan muassasa va tashkilotlarga hukmron mafkuraga mos ravishda nomlar berilgak. Joy nomlarining tarkibida shaxs-lar ismiga atab qo'yilganlarining salmog'i yuqori bo'lgan. Keyingi o'rinda ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan bog'liq tabiiy sharoitlarni aks ettiruvchi nomlar, so'ng tarixiy voqyeliklar, madaniy rivojlanish bilan bog'liq toponim-lar, shuningdek, raqamlar bilan aralash holda shakllan-gan toponimlar va etnotoponimlar turadi.

Mustabid sovet davrida vujudga kelgan shahardagi joy nomlari ko'pincha hududning tarixiy nomi bilan umu bog'lanmagan. Ma'muriyat tomonidan joylarga nom berish jarayonida mazkur hudud yoki inshootning dastlab aynan shunday nom olishga bo'lgan sabablari, shuningdek, joyning tabiiy shart-sharoitlari, etnik holati, relyefi, turmush tarzi inobatga olinmagan. Yangi toponimlar aykan o'sha zamonda kechgan voqyealar bilan bog'liq bo'lib, aksari hollarda yevropacha (asosan ruscha) tillarda bo'lgan, hatto mavjud mahalliy nomlar ham ma'muriy hujjatlarda ruscha talaf-fuzga moslashtirilib qayd etilgan. Bularning bari o'z navbatida, joy nomining asli shaklining unu; ayrim hollarda ma'nosinikg noto'g'ri tushunilishi talqin qilinishiga sabab bo'lib, jop. lib borishiga olib kelgan.

Toshkent shahrida muassasa va tashkilotlarni tashkil qilishda Markaz tomonidan ishlab chiqilgan Bosh rejaga amal qilingan. Yangi vujudga kelgan ma'muriy-hududiy birliklar, yuqoridagi g'ilingan ko'chalar, qurilgan inshootlarning nomlanishida shahar hayotiining turli sohalaridagi taraqqiyotini kuzatish mumkin. Jumladan, shahar xo'jaligi bilan bog'liq joynomlari tarkibida sanoat obyektlari nomlarining ko'p uchrashi o'rganilayotgan davrda Toshkent hududida rejaga ko'ra ko'plab sanoat korxonalari qurilganidan dalolat beradi, ular asosan qishloq xo'jaligi va aholining kundalik maishiy ehtiyojlarining qondirish uchun zarur mahsulotlarni tshlab chiqish imkoniyatidan mahrum qilingan va Markazga qaramligini kuchaytirgan. Iqtisodiy manfaatlar ekologik vaziyat, iqlim sharoitlari, sanitariya talablari, aholi salomatligidan ustun ko'rilgan: «Ko'pgin yirik korxonalar va komplekslar demografiya va ekologiya vaziyatini hisobga olmay o'urildi – ko'p mehnat talab qiladigan ishlab chiqarishlar emas, balki ko'p fond talab qiladigan ishlab chiqarishlar, zararli chiqitlari va oqindilari salmog'i katta bo'lgan ishlab chiqarishlar barpo etildi. Poytaht aholisining tabiiy-iqtisodiy sharoitlariga va ijtimoiy-ekologik manfaatlariga xilof ravishda shaharda o'nlab ishlab chiqarish obyektlari barpo etildi»

Toshkent shahar joy nomlaridan o'zbek halqining ko'p asrlar davomida shakllangan buyuk tarixi, ma'lum davrlarda yashab ijod qilgan ulug' mutafakkilari,

ilf-fan, harbiy-diplomatik mahorati borasida erishgan yutuqlari, hamda o'lkaning go'zal tabiati aks etmaganligi odamlarning o'z halqi tarixini, milliy g'ururini unutishi, milliy qadriyatlari va an'alariga e'tiborsiz bo'lishi, o'lkadagi tabiiy boyliklarini avaylab-asramasligiga olib kelib, halqni milliy o'zlikni anglash uchun kurashish g'oyalaridan chalg'itgan va bunday holat sobiq sovetlar davlati manfaatlarining e'tirof etilishiga hizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Пойтахтимиз -муқаддас остонамиз. - Асарлар тўплами. 8-жилд. - Т.: "Ўзбекистон", 2000. - Б.292-318.
2. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч кимга қарам бўлмайди. - Т.: "Ўзбекистон", 2005. .13-жилд. - Б.257.
3. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. - Т., 2007. - 48 б.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. - Т.: "Ўзбекистон", 2011. - 440 б.
5. Аминджанова М.Т., Рахимов М.Р. Город древний, город юный. - Т, 1981. - 20 с.
6. Алимова Д. ва б. Тошкент тарихи (қадимги даврлардан бугунги кунгача).-Т., 2007. - 167 б.
7. Борисов С. Ташкент без окраин (очерки).-Т, 1971.-52 с.
8. Бўриев О. Дархон - хоннинг ерими? // Газ."Тошкент оқшоми". – 1992 йил 10 февраль.
9. Бўриева Х. Тошкент шаҳрининг тарихий топонимияси (XIХаср охири - XX аср бошлари).- Т: Noshrlk yog`dusi, 2009. -234 б.
10. Виткович В. Путешествие по Советскому Узбекистану.—М., 1953.-21-99С.
11. Гуламов Р., Зайко Г., Зотов А. и др. Ташкент. Краткий справочник.- Т., 1958. - 192 с.
12. Зияев А.А. Центр Ташкента - прошлое и настоящее.-Т. 1987.-86 с.
13. Зотов А., Раймов Т., Смирнов Н., Якубов Б. Города Узбекистана.-Т, 1965. - 287 с.
14. История развития социалистического Ташкента (1941 -1965 гг.). Отв.ред.Аминова Р.Х. - Т, 1966. - 495 с.
15. Кейзер С.П. Города Узбекистана. Указатель литературы. - Т, 1964.-96 с.
16. Муҳаммаджонов А. Қадимги Тошкент. - Т.: "Шарқ", 2002. - 24 б.
17. Народное здравоохранение в Узбекистане. Самарканд, 1927. - 25 с.
18. Народное образование УзССР за 15 лет (1924-1939). Под ред.Е.В.Рачинской. - Т., 1939. - 208 с.
19. Народное образование в Узбекской ССР за 25 лет (1924-1949). . Под.ред.А.Муратходжаева. - Т., 1949. - 121 с.
20. План города Ташкента. - Ташкент, 1890 г.
22. План-путеводитель по городу Ташкенту. - Ташкент, 1936 г.
23. Рашидов Г. История развития социалистического Ташкента (1917-1941 гг.). Автореф.дисс.на соис.уч.ст стор.наук. - Т.. 1966.
24. Ревес А.М., Мороз Л.И. Город, в котором живу и учусь.-Т., 1991.-43 с.

25. Ташкент. Географический атлас. Сост.: Академия наук УзССР - М., 1984.
20. Ташкент. Путеводитель. -Т., 1962. - 104 с.
27. Ташкент. Под ред.З.М.Акромова, Н.К.Смирнова. - Т.. 1964.- 222 с.
28. Ташкент. Атлас туриста. - М., 1988.
29. Тошкент –ислом маданияти гавҳари. Фотоальбом. - 2004- 240 б.
80. Тошкент (фотоальбом) (ўзбек, рус ва француз тилларида). Мухаррир Сафаров Р.А. - Т., 1978.
31. Тошкент. Энциклопедия. - Т.: Қомуслао боп: таҳририяти, 1992. - 443 б.
32. Тошкент. Эн " Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2009. - 782 б.
33. Чеботарева З.Г. Ташкент в прошлом и настоящем (краткий исторический очерк). - Т., 1968. - 42 с.
34. Юсупов Э.Ю. Молодость в возрасте 20(3) лет. - Т. 1983. - 27 с.